EPSON
EXCEED YOUR VISION

ET-4500 Series
Foydalanuvchi qo‘llanmasi

NPD5247-01 UZ

Mualliflik huquqlari

Ushbu qo'llanmaning har qanday qismini Seiko Epson korporatsiyasining yozma ruxsatini olmasdan turib qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki elektron, mexanik, fotonusxalash, yozib olish kabi istalgan usulda yoki istalgan shaklda uzatilishi mumkin emas. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanishga nisbatan panent majburiyatlari ko'zda tutilmaydi. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanilishi natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun ham javobgarlik ko'zda tutilmagan. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlar faqat ushbu Epson mahsuloti bilan birga foydalanish uchun mo'ljallangan. Bu yerda keltirilgan ma'lumotlardan boshqa ma'lumotlarga nisbatan har qanday foydalanishlar uchun Epson javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Ushbu mahsulotni xarid qilgan shaxs yoki boshqa tomon tominidan halokatlar, bu mahsulotdan noto'g'ri foydalanilishi yoki foydalanish qoidalarining buzilishi, bu mahsulotni ruxsatsiz ta'mirlash, o'zgartirish yoki moslashtirish yoki (AQSh-dan tashqari) Seiko Epson Corporation-ning ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish ko'rsatmalariga qatiy amal qilmaslik natijasida ko'rilgan zararlar, yo'qotishlar yoki harajatlar uchun Seiko Epson Corporation yoki uning sho'ba kompaniyalari mahsulotni xarid qilgan shaxs yoki boshqa shaxs oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Seiko Epson Corporation va uning sho'ba kompaniyalari Seiko Epson Corporation tomonidan ishlab chiqarilgan Asl Epson mahsulotlati yoki Epson tomonidan ma'qullangan mahsulotlar sifatida belgilangan mashulotlardan boshqa har qanday opsiyalar yoki iste'mol mahsulotlaridan foydalanilishi natijasida ko'rilgan har qanday zararlar yoki muammolar uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olmaydilar.

Seiko Epson Corporation tomonidan ishlab chiqarilgan Epson tomonidan ma'qullangan mahsulotlar sifatida belgilanganlaridan boshqa interfeys kabellaridan foydalanilishidan kelib chiquvchi elektromagnit halaqitlar natijasida ko'riladigan har qanday zararlar uchun Seiko Epson Corporation javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

© 2016 Seiko Epson Corporation. Barcha huquqlar himoya qilingan.

Bu qo'llanmaning mazmuni va bu mahsulotning texnik xususiyatlari avvaldan xabardor qilinmagan holda o'zgartirilishi mumkin.

Savdo belgilari

- EPSON® — Seiko Epson korporatsiyasining ro'yxatga olingan savdo belgisi, EPSON EXCEED YOUR VISION yoki EXCEED YOUR VISION esa savdo belgisidir.
- PRINT Image Matching™ va PRINT Image Matching logotipi Seiko Epson korporatsiyasining savdo belgilari hisoblanadi. Copyright © 2001 Seiko Epson Corporation. All rights reserved.
- EPSON Scan software is based in part on the work of the Independent JPEG Group.
- libtiff

  Copyright © 1988-1997 Sam Leffler

  Copyright © 1991-1997 Silicon Graphics, Inc.

  Permission to use, copy, modify, distribute, and sell this software and its documentation for any purpose is hereby granted without fee, provided that (i) the above copyright notices and this permission notice appear in all copies of the software and related documentation, and (ii) the names of Sam Leffler and Silicon Graphics may not be used in any advertising or publicity relating to the software without the specific, prior written permission of Sam Leffler and Silicon Graphics.

  THE SOFTWARE IS PROVIDED "AS-IS" AND WITHOUT WARRANTY OF ANY KIND, EXPRESS, IMPLIED OR OTHERWISE, INCLUDING WITHOUT LIMITATION, ANY WARRANTY OF MERCHANTABILITY OR FITNESS FOR A PARTICULAR PURPOSE.

  IN NO EVENT SHALL SAM LEFFLER OR SILICON GRAPHICS BE LIABLE FOR ANY SPECIAL, INCIDENTAL, INDIRECT OR CONSEQUENTIAL DAMAGES OF ANY KIND, OR ANY DAMAGES WHATSOEVER RESULTING FROM LOSS OF USE, DATA OR PROFITS, WHETHER OR NOT ADVISED OF THE POSSIBILITY OF DAMAGE, AND ON ANY THEORY OF LIABILITY, ARISING OUT OF OR IN CONNECTION WITH THE USE OR PERFORMANCE OF THIS SOFTWARE.
- Microsoft®, Windows®, and Windows Vista® are registered trademarks of Microsoft Corporation.
- Apple, Macintosh, Mac OS, OS X, Bonjour, Safari, iPad, iPhone, iPod touch, and iTunes are trademarks of Apple Inc., registered in the U.S. and other countries. AirPrint and the AirPrint logo are trademarks of Apple Inc.
- Google Cloud Print™, Chrome™, Chrome OS™, and Android™ are trademarks of Google Inc.
- Adobe, Adobe Reader, Acrobat, and Photoshop are trademarks of Adobe systems Incorporated, which may be registered in certain jurisdictions.
- Intel® is a registered trademark of Intel Corporation.
- Umumiy eslatma: Bu yerda keltirilgan boshqa mahsulot nomlari faqat tanishtirish maqsadlarida keltirilgan va ular o'zlarining tegishli egalarining savdo belgilari bo'lishlari mumkin. Epson o'sha belgilarga bo'lgan har qanday va barcha huquqlarni rad qiladi.

Mundarija

Mualliflik huquqlari

Savdo belgilari

Ushbu qo'llanma to'g'risida

Qo'llanmalarga kirish. 8
Belgilar va timsollar. 8
Ushbu qo'llanmada foydalaniladigan bayonlar. . .9
Operatsion tizim bo'yicha ma'lumotlar. 9

Muhim ko'rsatmalar

Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar. 10
Chop qilish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar. 11
Printerni o'rnatish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar. 11
Printerdan foydalanish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar. 12
Printerni tashish yoki saqlash bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar. 12
Printerdan simsiz ulanish orqali foydalanish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar. 12
LCD ekrandan foydalanish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar. 13
Shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qilish. 13

Printer asoslari

Qismlarning nomlari va funksiyalar. 14
Boshqaruv paneli. 16
Tugmalar va chiroqlar. 16
LCD ekranda namoyish qilinadigan tasvirchalar. 17
Menyu opsiyalari. 18
Nusxalash rejimi. 18
Skanerlash rejimi. 19
Faks rejimi. 19
Sozlash rejimi. 20

Qog'ozni yuklash

Qog'oz bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralari. 26
Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar. 27
Qog'oz turlari ro'yxati. 28
Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish. 28

Asl nusxalarni joylashtirish

ADF uchun mavjud asl nusxalar. 32
ADF-ga asl nusxalarni joylashtirish. 32
Skaner Oynasi-ga asl nusxalarni joylashtirish. . 33

Chop qilish

Kompyuterdan chop qilish. 35
Chop qilish asoslari — Windows. 35
Chop qilish asoslari — Mac OS X. 37
2 tomonlama chop qilish (faqat Windows uchun). 38
Bir nechta sahifani bitta varaqqa chop qilish. 40
Qog'oz o'lchamiga moslash bilan chop qilish. 41
Bir nechta faylni birgalikda chop qilish (faqat Windows uchun). 42
Poster yaratish uchun bitta tasvirni bir nechta varaqqa chop qilish (faqatWindows uchun). 43
Qo'shimcha funksiyalardan foydalanib chop qilish. 49
Epson Easy Photo Print-dan foydalanib fotosuratlarni chop qilish. 51
Smart qurilmalardan chop qilish. 52
Epson iPrint-dan foydalanish. 52
AirPrint-dan foydalanish. 54
Chop qilishni bekor qilish. 54
Chop qilishni bekor qilish — Printer tugmasi. 54
Chop qilishni bekor qilish — Windows. 54
Chop qilishni bekor qilish — Mac OS X. 55

Nusxa ko'chirish

Skanerlash

Boshqaruv panelidan foydalanib skanerlash. . . 57
Bulutga skanerlash. 57
Kompyuterga skanerlash. 57
Kompyuterga skanerlash (WSD). 58
Kompyuterdan skanerlash. 58
Skanerlash asoslari. 58

Mundarija

Qo'shimcha funksiyalardan foydalanib skanerlash. 60
Smart qurilmalardan skanerlash. 63
Epson iPrint dasturini o'rnatish. 63
Epson iPrint-dan foydalanish. 63

Fakslar yuborish

Faksni o'rnatish. 65
Telefon liniyasiga ulash. 65
Asosiy faks parametrlarini o'rnatish. 68
Faks yuborish uchun kontaktlarni ro'yxatga qo'shish. 71
Kontaktlarni ro'yxatdan o'tkazish. 71
Guruhlangan kontaktlarni ro'yxatdan o'tkazish. 71
Kompyuterdan foydalangan holda kontaktlarni ro'yxatdan o'tkazish va zahiraviy nusxalash. 72
Fakslar yuborish. 72
Asosiy faks yuborish operatsiyalari. 72
Fakslarni yuborishning turli usullari. 74
Fakslarni qabul qilish. 75
Olish rejimini o'rnatish. 75
Fakslarni olishning turli usullari. 76
Olingan fakslarni kompyuterga saqlash. 77
Boshqa faks funksiyalaridan foydalanish. 79
Faks hisoboti va ro'yxatini chop qilish. 79
Olingan fakslarni qayta chop qilish. 79

Siyoh to'ldirish

Siyoh darajalarini tekshirish. 81
Siyoh darajalarini tekshirish — Windows. . . . 81
Siyoh darajalarini tekshirish — Mac OS X. . . 81
Siyoh butilka kodlari. 82
Siyoh butilkalari bilan ishlashdagi ehtiyot choralari. 82
Siyoh baklarini siyoh bilan to'ldirish. 83

Chop qilish va skanerlash sifatini yaxshilash

Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash. . 87
Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash — Boshqaruv paneli. 87
Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash — Windows. 88
Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash — Mac OS X. 88
Siyoh naychalari ichidagi siyohni almashtirish. . 89
Siyoh trubkalari ichidagi siyohni almashtirish — Windows. 89
Siyoh trubkalari ichidagi siyohni almashtirish — Mac OS X. 90
Chop qilish golovkasini tekislash. 90
Chop qilish golovkasini tekislash — Boshqaruv paneli. 90
Chop qilish golovkasini tekislash — Windows. 91
Chop qilish golovkasini tekislash — Mac OS X. 91
Qog'oz yo'lidagi siyoh dog'larini tozalash. 91
ADF-ni tozalash. 92
Skaner Oynasi-ni tozalash. 93

Tarmoq xizmati va dasturiy ta'minot haqida ma'lumot

Epson Connect xizmati. 95
Web Config. 95
Web Config-ni veb-brauzerda ishga tushirish. 96
Web Config faylini Windows orqali ochish. . . 96
Web Config-ni Mac OS X-da ishga tushirish. 96
Windows Printer drayveri. 97
Windows printer drayveri uchun parametrlarni cheklash. 97
Windows printer drayveri uchun ishlatish parametrlarini o'rnatish. 98
Mac OS X Printer drayveri. 99
Mac OS X printer drayveri uchun ishlash rejimi sozlamalari. 99
EPSON Scan (Skaner drayveri). 99
Epson Event Manager. 100
PC-FAX Drayveri (Faks drayveri). 100
FAX Utility. 101
Epson Easy Photo Print. 101
E-Web Print (faqat Windows uchun). 102
EPSON Software Updater. 102
EpsonNet Config. 102
Dasturlarni o'chirish. 103
Dasturlarni o'chirish — Windows. 103
Dasturlarni o'chirish — Mac OS X. 104
Dasturlarni o'rnatish. 104
Dasturlar va mikrodasturlarni yangilash. 105

Mundarija

Muammolarni hal qilish

Printer holatini tekshirish. 106
LCD ekranda xabarlarni tekshirish. 106
Printer holatini tekshirish — Windows. 107
Printer holatini tekshirish — Mac OS X. . . . 107
Tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash. 108
Orqa Qog‘oz Tortmasi-dan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash. 108
Printerning ichidan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash. 108
ADF-dan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash. 110
Qog'oz to'g'ri uzatilmayapti. 111
Qog'oz g'ijimlanishi. 112
Qog'oz qiyshiq uzatilmoqda. 112
Bir vaqtda bir nechta qog'oz uzatilmoqda. . 112
Qog'oz uzatilmayapti. 112
Printer qog'ozni chiqarib yubormoqda. 112
Asl nusxa ADF-da uzatilmayapti. 112
Quvvat va boshqaruv paneli bilan bog'liq muammolar. 113
Printer yonmayapti. 113
Quvvat o'chmayapti. 113
Printer avtomatik o‘chib qolsa. 113
LCD ekran qorayib qoldi. 113
Printer chop qilmayapti. 113
Chop qilish muammolari. 114
Hech narsa chop qilinmayapti yoki tasvir juda xira. 114
Chop qilish sifati past. 115
Nusxa sifati past. 116
Asl nusxaning orqa tarafi tasviri nusxa ko'chirilgan tasvirda ko'rinayapti. 116
Chop qilingan materialning holati, o'lchamlari yoki hoshiyalari noto'g'ri. 117
Qo'goz chaplanayapti yoki ishqalanayapti. . 117
Chop qilingan harflar noto'g'ri yoki buzilgan. 118
Chop qilingan tasvir teskari. 118
Chop qilish bilan bog'liq muammoni aniqlab bo'lmadi. 118
Chop qilishning boshqa muammolari. 118
Chop qilish xaddan tashqari sekin. 118
To‘xtovsiz chop qilish vaqtida chop qilish tezligi keskin pasayib ketmoqda. 119
Skanerlashni boshlab bo'lmayapti. 119
Boshqaruv panelidan foydalanganda skaner qilib bo'lmayapti. 120
Skanerlangan tasvir bilan bog'liq muammolar 120
Skanerlash sifati past. 120
Harflar chaplanib ketayapti. 121
Asl nusxaning orqa tarafi tasviri skanerlangan tasvirda ko'rinayapti. 121
Skanerlangan tasvirda Muar (To'r) namunalari paydo bo'layapti. 121
Skanerlash sohasi yoki yo'nalishi to'g'ri emas. 122
Skanerlangan tasvir bilan bog'liq muammoni aniqlab bo'lmadi. 122
Skanerlashning boshqa muammolari. 123
Miniatyurali dastlabki ko'rish to'g'ri ishlamayapti. 123
Skanerlash xaddan tashqari sekin. 123
PDF/Multi-TIFF-ga skanerlaganda skaner to'xtab qolayapti. 123
Fakslarni yuborish va olish vaqtidagi muammolar. 123
Fakslarni yuborib yoki olib bo'lmayapti. . . . 123
Fakslarni yuborib bo'lmayapti. 125
Aniq bir oluvchiga fakslarni yuborib bo'lmayapti. 125
Ko'rsatilgan vaqtda fakslarni yuborib bo'lmayapti. 125
Fakslarni qabul qilib bo'lmayapti. 125
Xotiraning to'lib qolishi xatosi yuz berganda. 126
Yuborilgan faks sifati past. 126
Fakslar noto'g'ri o'lchamda yuborilayapti. . . 126
Olingan faks sifati past. 127
Olingan fakslar chop qilinmayapti. 127
Faks yuborishning boshqa muammolari. 127
Ulangan telefonda qo'ng'iroqlarni qilib bo'lmayapti. 127
Javob berish mashinasi ovozli qo'ng'iroqlarga javob bera olmayapti. 127
Yuboruvchining faks raqami olingan fakslarda ko'rsatilmayapti yoki raqam noto'g'ri. 128
Boshqa muammolar. 128
Printerga tekkanda yengil elektr toki urayapti. 128
Ishlash tovushi baland. 128
ADF ishlamayapti. 128
Sana va vaqt noto'g'ri. 128
Dastur Brandmauer tomonidan to'sib qo'yilgan (faqat Windows uchun). 129
Siyoh darajalarini qayta o'rnatishni so'rovchi xabar namoyish qilinadi. 129

Mundarija

Ilova

Texnik xususiyatlari. 130
Printerning texnik xususiyatlari. 130
Skanerning texnik xususiyatlari. 130
Interfeys xususiyatlari. 131
Faks xususiyatlari. 131
Wi-Fi xususiyatlari. 131
Ethernet xususiyatlari. 132
Xavfsizlik protokoli. 132
Boshqalarning qo'llab-quvvatlanuvchi xizmatlari. 132
O'lchamlari. 133
Elektr xususiyatlari. 133
Foydalanish va saqlash sharoitlari. 134
Tizimga bo'lgan talablar. 134
Me'yoriy ma'lumotlar. 135
Standartlar va ruxsatnomalar. 135
Nusxa ko'chirishdagi cheklanishlar. 136
Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish. 137
Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish — Boshqaruv paneli. 137
Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish — Windows. 137
Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish — Mac OS X. 137
Quvvatlarni tejash. 137
Quvvat tejash — Boshqaruv paneli. 138
Printerni tashish. 138
Qayerdan yordam olish mumkin. 140
Texnik qo'llab-quvvatlash veb-sayti. 140
Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish. 141

Ushbu qo'llanma to'g'risida

Qo'llanmalarga kirish

Quyidagi qo'llanmalar Epson printeringiz bilan birga keladi. Qo'llanmalar bilan birgalikda Epsonning turli dasturlariga kiritilgan yordam fayllariga ham qarang.

❏ Ishni boshlash qo‘llanmasi (qog'oz qo'llanma)

Printerni ishga tayyorlash, dasturiy ta'minotni o'rnatish, printerdan foydalanish, muammolarni bartaraf qilish kabilar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

❏ Foydalanuvchi qo‘llanmasi (raqamli qo'llanma)

Ushbu qo'llanma. Printerdan foydalanish hamda muammolarni hal qilish to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar va ko'rsatmalar bilan ta'minlaydi.

❏ Tarmoq bo‘yicha qo‘llanma (raqamli qo'llanma)

Printerdan tarmoqda foydalanganda tarmoqni o'rnatish va muammolarni hal qilish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Yuqoridagi qo'llanmalarning eng so'nggi versiyalarini quyidagi usullar orqali olishingiz mumkin.

❏ Qog'oz qo'llanma

Epson Europe ko'mak xizmati — http://www.epson.eu/Support yoki Epson butunjahon ko'mak xizmati veb-saytiga — http://support.epson.net/ tashrif buyuring.

❏ Elektron qo'llanma

Kompyuteringizda EPSON Software Updater dasturini ishga tushiring. EPSON Software Updater dasturi Epson dasturiy ilovalari va elektron qo'llanmalari uchun yangilanish mavjudligini tekshiradi hamda ularning eng so'nggi versiyasini yuklab olish imkonini beradi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “EPSON Software Updater” - 102-sahifada

Belgilar va timsollar

> ⚠ ***Diqqat:***
> *Tan jarohati olmaslik uchun qat'iy amal qilish kerak bo'lgan ko'rsatmalar.*

> ***Muhim:***
> *Jihozga zarar yetkazaslik uchun amal qilish kerak bo'lgan ko'rsatmalar.*

Eslatma:
Qo'shimcha va axborot ma'lumotlari bilan ta'minlaydi.

➡ Aloqador ma’lumotlar

Tegishli bo'limlarga ulanmalar.

Ushbu qo'llanmada foydalaniladigan bayonlar

- ❏ Printer drayveri skrinshotlari va EPSON Scan (skaner drayveri) ekranlari Windows 8.1 yoki Mac OS X v10.10.x-dan olingan. Model va holatga bog'liq ravishda ekranda namoyish qilingan kontentlar farq qiladi.
- ❏ Bu qo'llanmada foydalanilgan printer rasmlari faqat namuna uchundir. Garchi modelga bog'liq ravishda ozgina farqlar bo'lishi mumkin bo'lsada, ishlatish uchun bir xil.
- ❏ Model va parametrlarga bog'liq ravishda LCD ekrandagi menyu elementlaridan ayrimlari farq qilishi mumkin.

Operatsion tizim bo'yicha ma'lumotlar

Windows

Bu qo'llanmada "Windows 8.1", "Windows 8", "Windows 7", "Windows Vista", "Windows XP", "Windows Server 2012 R2", "Windows Server 2012", "Windows Server 2008 R2", "Windows Server 2008", "Windows Server 2003 R2" va "Windows Server 2003" kabi terminlar quyidagi operatsion tizimlarni anglatadi. Bundan tashqari "Windows"-dan barcha versiyalariga nisbatan foydalaniladi.

- ❏ Microsoft® Windows® 8.1 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows® 8 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows® 7 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Vista® operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows® XP operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows® XP Professional x64 Edition operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Server® 2012 R2 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Server® 2012 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Server® 2008 R2 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Server® 2008 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Server® 2003 R2 operatsion tizimi
- ❏ Microsoft® Windows Server® 2003 operatsion tizimi

Mac OS X

Bu qo'llanmada "Mac OS X v10.10.x" — OS X Yosemite, "Mac OS X v10.9.x" — OS X Mavericks va "Mac OS X v10.8.x" — OS X Mountain Lion operatsion tizimlarini bildiradi. Bundan tashqari, "Mac OS X" quyidagilarni anglatish uchun ishlatiladi: "Mac OS X v10.10.x", "Mac OS X v10.9.x", "Mac OS X v10.8.x", "Mac OS X v10.7.x" va "Mac OS X v10.6.8".

Muhim ko'rsatmalar

Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar

Bu printerdan foydalanish xavfsizligini kafolatlash uchun ushbu ko'rsatmalarni o'qib chiqing va ularga amal qiling. Bu qo'llanmani kelajakda foydalanish uchun saqlab qo'ying. Yana printerda belgilangan barcha ogohlantirishlar va ko'rsatmalarga albatta amal qiling.

- ❏ Printerda ishlatilgan ayrim belgilar xavfsizlikni ta’minlash va printerdan to‘g‘ri foydalanish uchun mo‘ljallangan. Bu belgilar ma’nosi haqida batafsil ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytga tashrif buyuring.

  http://support.epson.net/symbols

- ❏ Faqat printer bilan birga berilgan ta'minot shnuridan foydalaning va bu shnurdan boshqa qurilmalar bilan birgalikda foydalanmang. Bu printer bilan boshqa shnurlardan foydalanish yoki birga berilgan shnurdan boshqa jihozlar bilan birga foydalanish yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- ❏ O'zgaruvchan tok ta'minot shnurining mahalliy xavfsizlik standartlariga javob berishiga ishonch hosil qiling.
- ❏ Ta'minot shnuri, vilka, printer qurilmasi, skaner qurilmasi yoki opsiyalarni qismlarga ajratmang, o'zgartirmang yoki o'zingizcha ta'mirlashga urinmang, printer qo'llanmasida maxsus tushintirilgan hollar bundan mustasno.
- ❏ Quyidagi hollarda printerni rozetkadan uzing va malakali xizmat ko'rsatish xodimiga murojaat qiling:

  Ta'minot shnuri yoki vilka shikastlangan; printerga suyuqlik kirgan; printer tushirib yuborilgan yoki ust qoplami shikastlangan; printer odatdagidek ishlayapgan yoki ishlashida aniq o'zgarishlar kuzatilgan hollar. Ishlatish bo'yicha ko'rsatmalarda qamrab olinmagan boshqaruv tugmalarini o'zgartirmang.
- ❏ Printerni vilkani osongina uzish mumkin bo'ladigan tarzda devordagi rozetkaga yaqin joylashtiring.
- ❏ Printerni ochiq xavoga, ortiqcha kir yoki chang joylar, suv, issiqlik manbalari yaqiniga yoki tebranishlar, yuqori harorat yoki namlik ta'siriga uchraydigan joylarga joylashtirmang yoki bunday joylarda saqlamang.
- ❏ Printerga suyuqlik to'kib yubormaslik va printerni nam qo'l bilan ushlamaslik uchun ehtiyot bo'ling.
- ❏ Printerni kardiostimulyatorlardan kamida 22 sm uzoqroq masofaga joylashtiring. Bu printerdan chiquvchi radioto'lqinlar kardiostimulyatorlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- ❏ Agar LCD ekran shikastlansa, dileringizga murojaat qiling. Agar suyuq kristall eritmasi qo'llaringizga tegsa, tekkan joyni sovun va suv bilan yaxshilab yuvib tashlang. Agar suyuq kristall eritmasi ko'zlaringizga tegsa, uni suv bilan darhol yuvib tashlang. Yaxshilab yuvib tashlagandan keyin ham noqulaylik yoki ko'rish muammolar bartaraf bo'lmasa, darhol shifokorga uchrang.
- ❏ Momaqaldiroq vaqtida telefondan foydalanmang. Chaqmoqdan elektr toki urishi xavfi mavjud bo'lishi mumkin.
- ❏ Gaz oqib chiqayotgan joy yaqinida turib bu to'g'risida xabar berish uchun telefondan foydalanmang.

- ❏ Siyoh baklari, siyoh baklari qopqoqlari va ochilgan siyoh butilkalari yoki siyoh butilkasi qopqoqlarini ushlaganda siyohga tegmaslik uchun ehtiyot bo'ling.
  - ❏ Agar tanagizga siyoh tegsa, o‘sha joyni sovun va suv bilan yaxshilab yuvib tashlang.
  - ❏ Agar siyoh ko‘zingizga kirib ketsa, uni darhol suv bilan yuvib tashlang. Agar yuvib tashlagandan keyin ham ko‘zingizda noqulaylik yoki ko‘rish bilan bog‘liq muammolarni his qilsangiz, darhol shifokorga murojaat qiling.
  - ❏ Agar siyoh og‘zingizga kirib ketsa, darhol shifokorga murojaat qiling.
- ❏ Undan plombani olgandan keyin siyoh butilkasini tebratmang yoki silkitmang; bu siyohning oqib ketishiga olib kelishi mumkin.
- ❏ Siyoh butilkalari va siyoh baklarini bolalarning qo'llari yetmaydigan joylarda saqlang. Bolalarga siyoh butilkasidan ichishlariga yoki siyoh butilkalari va siyoh butilkasi qopqoqlarini ushlashlariga ruxsat bermang.

Chop qilish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar

Printer yoki buyumlaringizga zarar yetkazmaslik uchun quyidagi ko'rsatmalarni o'qib chiqing va ularga amal qiling. Bu qo'llanmani kelajakda foydalanish uchun saqlab qo'ying.

Printerni o'rnatish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar

- ❏ Printer ventilyatsiya teshiklari va tirqishlarini to'sib yoki yopib qo'ymang.
- ❏ Faqat printer yorlig'ida ko'rsatilgan quvvat manbasi turidan foydalaning.
- ❏ Muntazam ravishda o'chib-yonib turuvchi nusxa ko'chirish apparatlari yoki havo konditsionerlari bilan bita rozetkadan foydalanmang.
- ❏ Devordagi pereklyuchatellar yoki avtomatik taymerlar tomonidan boshqariluvchi elektr rozetkalaridan foydalanmang.
- ❏ Butun kompyuter tizimini dinamiklar yoki simsiz telefonlarning asosiy qurilmalari kabi elektromagnit halaqit manbalaridan uzoqroq saqlang.
- ❏ Elektr ta'minot shnurlari ishqalanishlar, qirqilishlar, yemirilish, qisilish va buralish xavfi bo'lmagan tarzda joylashtirilishi kerak. Elektr ta'minot shnurlari ustiga buyumlar qo'ymang va ularni bosish yoki ustidan yugirib o'tishlariga yo'l qo'ymang. Barcha elektr ta'minot shnurlari uchlari hamda transformatorga kirish va chiqish nuqtalarining to'g'ri holda bo'lishiga ayniqsa e'tirbor bering.
- ❏ Agar siz printer bilan uzaytirma kabeldan foydalansangiz, uzaytirma kabelga ulangan qurilmalar jami tok kuchining uzaytirma kabel mo'ljallangan tok kuchidan ortiq emasligiga ishonch hosil qiling. Yana devordagi rozetkaga ulangan qurilmalar jami tok kuchining rozetka mo'ljallangan tok kuchidan ortiq emasligiga ishonch hosil qiling.
- ❏ Agar siz printerdan Germaniyada foydalanmoqchi bo'lsangiz, printerni mos qisqa tutashuv himoyasi va ortiqcha kuchlanishdan himoyalash bilan ta'minlash uchun o'rnatish joyi 10 amper yoki 16 amperli zanjir uzgich bilan himoyalangan bo'lishi kerak.
- ❏ Printerni kabel bilan kompyuterga yoki boshqa qurilmaga ulaganda ulovchi simlarning to'g'ri yo'nalganligiga ishonch hosil qiling. Har bir ulovchi sim faqat bitta to'g'ri yo'nalishga ega. Ulovchi simni noto'g'ri yo'nalishda tiqish kabel orqali ulangan har ikkala qurilmani ham shikastlaydi.
- ❏ Printerni barcha yo'nalishlarda printer asosidan katta bo'lgan tekis, barqaror yuzaga o'rnating. Agar u burchak ostida qiyshaygan bo'lsa, printer to'g'ri ishlamaydi.

- ❏ Printer ustidan hujjat qopqog'ini to'liq ko'tarish mumkin bo'ladigan darajada joy qoldiring.
- ❏ Printerning old tomonidan qog'ozni to'liq chiqarib olishga yetarli darajada joy qoldiring.
- ❏ Printerni harorati va namligi keskin o'zgaruvchi joylarga joylashtirmang. Yana printerni to'g'ridan-to'g'ri tushuvchi quyosh nurlari, kuchli yorg'lik yoki issiqlik manbalari ta'sir qiladigan joylarga o'rnatmang.

Printerdan foydalanish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar

- ❏ Printerdagi slotlar orqali buyumlarni solmang.
- ❏ Chop qilish vaqtida printer ichiga qo'lingizni tiqmang.
- ❏ Printer ichidagi oq yassi kabel va siyoh tubiklariga tegmang.
- ❏ Printer ichida yoki atrofida tarkibida yonuvchan gazlar bo'lgan aerozol mahsulotlardan foydalanmang. Bunday qilish yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.
- ❏ Chop qilish kallagini qo‘l bilan sura ko‘rmang; aks holda, printerga shikast yetishi mumkin.
- ❏ Skaner qurilmasini yopganda barmoqlaringizni qisib olmaslik uchun ehtiyot bo'ling.
- ❏ Asl nusxalarni joylashtirganda skaner oynasi-ni xaddan tashqari qattiq bosmang.
- ❏ Siyoh darajasi quyi chiziqdan past bo'lgan holda printerdan uzoq foydalanish printerni shikastlashi mumkin. Epson siyoh darajalarini qaytadan o'rnatish uchun printer ishlamayotgan vaqtda barcha siyoh idishlarini yuqori chiziqqacha to'ldirishni tavsiya qiladi.
- ❏ Printerni domi ⏻ tugmasidan foydalangan holda o'chiring. ⏻ chiroq miltillashdan to'xtamagunicha printerni rozetkadan uzmang yoki tashqi rozetkadan o'chirmang.
- ❏ Agar printerdan uzoq vaqt foydalanmaslikni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, ta'minot shnurini elektr rozetkasidan uzib qo'ying.

Printerni tashish yoki saqlash bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar

- ❏ Printerni joylashda yoki biror yerga tashishda uni qiyshaytirish, tik yoki teskari holatda o‘rnatish mumkin emas; aks holda, siyoh oqib chiqishi mumkin.
- ❏ Printerni tashishdan avval chop qilish golovkasining uy holatida (chetki o'ng tomonda) ekanligiga ishonch hosil qiling.

Printerdan simsiz ulanish orqali foydalanish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar

- ❏ Bu printerdan chiquvchi radioto'lqinlar tibbiy elektron jihozlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa ularning noto'g'ri ishlashiga olib keladi. Bu printerdan tibbiyot muassasalarida yoki tibbiy jihozlar yaqinida foydalanganda tibbiyot muassasasining vakili bo'lgan vakolatli xodimlarning ko'rsatmalariga hamda tibbiyot jihozlariga chop qilingan ogohlantirishlar va ko'rsatmalarga amal qiling.
- ❏ Bu printerdan chiquvchi radioto'lqinlar avtomatik eshiklar yoki yong'indan ogohlantiruvchi signallar kabi avtomatik boshqariluvchi qurilmalarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va noto'g'ri ishlash tufayli halokatlarga olib kelishi mumkin. Bu printerdan avtomatik boshqariluvchi qurilmalar yaqinida foydalanganda shu qurilmalarga chop qilingan ogohlantirishlar va ko'rsatmalarga amal qiling.

LCD ekrandan foydalanish bo'yicha maslahatlar va ogohlantirishlar

- ❏ LCD ekranida bir nechta mayda yorqin yoki qora dog'lar bo'lishi va o'zining xususiyatlari tufayli u notekis ravshanlikka ega bo'lishi mumkin. Bularning barchasi oddiy holdir va ular uning biror tarzda shikastlanganligini ko'rsatmaydi.
- ❏ Tozalash uchun faqat quruq, yumshoq lattadan foydalaning. Suyuqlik yoki kimyoviy tozalagichlardan foydalanmang.
- ❏ Agar unga qattiq ta'sir ko'rsatilsa, LCD ekranning tashqi qopqog'i sinishi mumkin. Agar ekranning yuzasi sinsa yoki darz ketsa, dileringizga murojaat qiling va singan bo'laklarga tegmang yoki ularni olib tashlashga urinmang.

Shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qilish

Printeringizni boshqa shaxsga berganingizda yoki chiqitga chiqarganingizda boshqaruv panelidagi **Sozlash** > **Odatiy sozlamalarni tiklash** > **Barcha ma'lumot va sozlamalar tozalansin**-ni tanlash orqali printer xotirasiga saqlangan barcha shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chiring.

Printer asoslari

Qismlarning nomlari va funksiyalar



❶	ADF (Avtomatik qog'oz uzatgich) qopqog'i	ADF-da tiqilib qolgan asl nusxalarni olishda oching.
❷	ADF kiritish lotogi	Asl nusxalarni avtomatik uzatadi.
❸	ADF qirra yo'naltirgichi	Asl nusxalarni to'g'ridan-to'g'ri printerga uzatadi. Asl nusxalarning qirralariga suring.
❹	ADF chiqarish lotogi	ADF-dan chiqarib yuborilgan asl nusxalarni ushlab qoladi.



❶	Qirra yo'naltirgichi	Qog'ozni to'g'ridan-to'g'ri printerga uzatadi. Qog'ozning qirralariga suring.

Printer asoslari

❷	Orqa qog‘oz tortmasi	Qog'ozni yuklaydi.
❸	Qog'oz tayanchi	Yuklangan qog'ozni suyab turadi.
❹	Uzatgich yo'naltirgichi	Begona narsalarning printerga kirishining oldini oladi. Odatda bu yo'naltirgich yopilgan holatda bo'ladi.
❺	Chiqarish lotogi	Chiqarilgan qog'ozlarni ushlab turadi.



❶	Hujjat qopqog'i	Skanerlash vaqtida tashqi yorug'likni to'sadi.
❷	Skaner oynasi	Asl nusxalarni joylashtiring.
❸	Boshqaruv paneli	Printerni boshqaradi.



❶	Skaner qurilmasi	Joylashtirilgan asl nusxalarni skanerlaydi. Printer ichida tiqilib qolgan qog'ozni olishda oching.
❷	Siyoh baki qurilmasi	Siyoh baklarini o'z ichiga oladi.

❸	Siyoh rezervuar baklari (Siyoh baklari)	Printer golovkasini siyoh bilan ta'minlaydi.
❹	Chop qilish kallagi (ushbu bo'lim ostida)	Siyoh otadi.



❶	O'zgaruvchan tok kirishi	Quvvat shnurini ulaydi.
❷	USB porti	USB kabelini ulaydi.
❸	LINE porti	Telefon liniyasini ulaydi.
❹	EXT porti	Tashqi telefon qurilmalarini ulaydi.
❺	LAN porti	LAN kabelini ulaydi.

Boshqaruv paneli

Tugmalar va chiroqlar



❶	⏻	Printerni yoqadi yoki o'chiradi. Quvvat chirog'i o'chganda ta'minot shnurini rozetkadan uzing.
❷	🏠	Bosh ekranni namoyish qiladi.

❸		So'nggi terilgan raqamni kiriting yoki faks raqamini kiritganda to'xtatib turish tugmasini kiriting.
❹		Joriy operatsiyani to'xtatadi.
❺	-	Menyular va xabarlarni namoyish qiladi.
❻	◀, ▲, ▶, ▼, OK	Menyularni tanlash uchun ◀, ▲, ▶ va ▼-ni bosing. Tanlovingizni tasdiqlash uchun OK-ni bosing yoki tanlangan funksiyani ishga tushiring.
❼		Avvalgi ekranga qaytadi.
❽	0 - 9 *, #	Raqamlar, harflar va belgilarni kiritadi.
❾		Kontaktlar ro'yxatini ochadi.
❿		Oq-qora rangda chop qilish, nusxa ko'chirish, skanerlash va faks yuborishni boshlaydi.
⓫		Rangli chop qilish, nusxa ko'chirish, skanerlash va faks yuborishni boshlaydi.

LCD ekranda namoyish qilinadigan tasvirchalar

Printer holatiga bog'liq ravishda quyidagi tasvirchalar LCD ekranda namoyish qilinadi.

ADF	Asl nusxalar ADF-ga joylanganda yonadi.
	Simli tarmoq (Ethernet) o'chirilganda va Ethernet kabeli ulanmaganda yonadi.
	Printer simli (Ethernet) tarmog'iga ulangan holatda bo'lganda yonadi.
	Printer simsiz (Wi-Fi) tarmog'iga ulanmagan holatda bo'lganda yonadi.
	Printer simsiz (Wi-Fi) tarmog'iga ulangan holatda bo'lganda yonadi. Plitkalar soni ulanishning signal kuchini ko'rsatadi. Plitkalar qanchalik ko'p bo'lsa, ulanish shunchalik kuchli bo'ladi.
	Printerning simsiz (Wi-Fi) tarmoqqa ulanishi bilan bog'liq muammo borligini yoki printerning simsiz (Wi-Fi) tarmoq ulanishini qidirayotganligini ko'rsatadi.
Ad	Printerning tarmoqqa maxsus rejimda ulanganligini ko'rsatadi.
	Oddiy AP rejimi va Wi-Fi Direct rejimining o'chirilganligini ko'rsatadi.
D	Printerning tarmoqqa Wi-Fi Direct rejimida ulanganligini ko'rsatadi.
AP	Oddiy AP rejimining yoqilganligini ko'rsatadi.
eco	Eko rejim yoqilganda yonadi.

Menyu opsiyalari

Nusxalash rejimi

Eslatma:

❏ *Mavjud menyular siz tanlagan sxemaga bog'liq ravishda farq qiladi.*

❏ *Yashirin o'rnatilgan menyularni namoyish qilish uchun OK tugmasini bosing.*

Menyu	**Parametrlar va ularning tushintirishlari**	
Nusxalar soni	Nusxalar sonini kiriting.	
Sxema	Hoshiyali	Qirralar atrofidagi chegara bilan nusxa ko'chiring.
	2 talik	Bir necha sahifadagi asl nusxalarni bitta varaqqa nusxa ko'chiring. Asl nusxalarni ADF-ga joylashtirganda ularni fiderga yuqoridan yoki chap qirradan boshlab kiriting. Vertikal asl nusxalarni quyida ko'rsatilgani kabi yuklang va **Bo'yiga**-dan **Hujjat joylashuvi**-ni tanlang. Gorizontal asl nusxalarni quyida ko'rsatilgani kabi yuklang va **Eniga**-dan **Hujjat joylashuvi**-ni tanlang. 
	ID karta	ID kartaning har ikkala tarafini skanerlaydi va A4 o'lchamdagi qog'ozning bir tomoniga nusxa ko'chiradi.
Hujjat o'lchami	Asl nusxaning o'lchamini tanlang.	
Miqyos	Asl nusxani kattalashtiradi yoki kichiklashtiradi. Tanlangan qog'oz manbasining qog'oz o'lchamiga mos bo'lishi uchun **Betga avto sig'dirish**-ni tanlang.	
Hujjat joylashuvi	Asl nusxaning yo'nalganligini tanlang.	
Sifati	Asl nusxaning turini tanlang. Qoralama: Tezroq chop qilish bilan ta'minlaydi, biroq chop qilingan sahifalarning rangi och bo'lishi mumkin. Belgiyalik foydalanuvchilar uchun qoralama rejimi mavjud emas. Eng zo'r: Yuqoriroq sifatli chop qilish bilan ta’minlaydi, biroq chop qilish tezligi sekinroq bo‘lishi mumkin..	
Zichlik	Nusxalaringiz zichligini o'rnating.	
Sxema tartibi	**2 talik** parametr sifatida **Sxema**-ni tanlaganingizda bir nechta sahifalar uchun nusxalash qolipini tanlang.	

Skanerlash rejimi

Bulut

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Ko'zlangan joy	Epson Ulash xizmatida ro'yxatga olingan ko'zlangan joyni tanlang.	
Sozlamalar	Formati	Skanerlangan tasvirni saqlash formatini tanlang.
	Hududni skanerlash	Skanerlash sohasini tanlang. Avtomatik qirqish: Skanerlagan vaqtda matn yoki tasvir atrofidagi oq sohani qirqib oladi. Maks. hudud: skaner oynasi yoki ADF-ning maksimal skanerlash sohasida skanerlaydi.
	Hujjat turi	Asl nusxaning turini tanlang.
	Zichlik	Skanerlangan tasvir kontrastini tanlang.
	Hujjat joylashuvi	Asl nusxaning yo'nalganligini tanlang.

Kompyuter

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Kompyuterni tanlang	USB dan foydalanib yoki tarmoq orqali ulangan kompyuterlar ro'yxatidan skanerlangan tasvirni saqlashni xohlagan kompyuterni tanlang.	
Sozlamalar	Formati	Skanerlangan tasvirni saqlash formatini tanlang.

Kompyuter (WSD)

Bu menyuda hech qanday parametr yo'q.

Faks rejimi

Bosh ekranda **Faks**-ni tanlang va keyin OK tugmasini bosing.

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari
Nuqtalar zichligi	Chiquvchi faksning tasvir aniqligini tanlang. Ham matn, ham fototasvirlar bo'lgan asl nusxalar uchun **Foto**-ni tanlang.
Zichlik	Chiquvchi faksning zichligini tanlang.
To'g'ridan-to'g'ri jo'natish	Batafsil ma'lumotlar olish uchun bu xususiyatni bayon qiluvchi sahifaga qarang.
Yuborish hisoboti	Faks yuborilgandan keyin avtomatik ravishda yuborish hisobotini chop qiladi. Xatolik yuz berganda faqat hisobotni chop qilish uchun **Xato chiqqanida chop etilsin**-ni tanlang.

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Faksni keyinroq jo'natish	Batafsil ma'lumotlar olish uchun bu xususiyatlarni bayon qiluvchi sahifaga qarang.	
Faks jo'natish so'rovi		
Fakslarni qayta chop etish	Printer xotirasiga vaqtinchalik saqlangan olingan fakslarni so'nggisidan boshlab chop qiladi.	
Faks hisoboti	Faks sozlamalari ro'yxati	Joriy faks parametrlarini chop qiladi.
	Faks jurnali	Yuborilgan va olingan fakslar tarixini namoyish qiladi yoki chop qiladi. Quyidagi menyudan foydalangan holda bu hisobotni avtomatik chop qilishga o'rnatish mumkin. **Sozlash** > **Faks sozlamalari** > **Chiqarish sozlamalari** > **Faks jurnalini avtomatik chop etish**
	So'nggi yetkazilganlar	So'rov orqali yuborilgan yoki olingan avvalgi faks uchun hisobotni chop qiladi.
	Protokol kuzatuvi	Yuborilgan yoki olingan avvalgi faks uchun batafsil hisobotni chop qiladi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Monoxrom hujjatning ko'pgina betlarini yuborish (To'g'ridan-to'g'ri jo'natish)” - 74-sahifada
➡ “Ko'rsatilgan vaqtda fakslarni yuborish (Faksni keyinroq jo'natish)” - 74-sahifada
➡ “Ovoz berish orqali fakslarni qabul qilish (Faks jo'natish so'rovi)” - 77-sahifada

Sozlash rejimi

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Qarov	Kallak uchini tekshirish	Chop qilish golovkasi soplolarining tiqilib qolmaganligini tekshirish uchun namunalarni chop qiladi.
	Chop etish kallagini tozalash	Chop qilish golovkasidagi tiqilib qolgan soplolarni tozalaydi.
	Siyoh darajasini qayta qo'yish	Siyoh baklarini to'ldirishdan avval siyoh darajalarini qayta o'rnatish uchun shu funksiyani tanlang.
	Chop etish kallagini tekislash	Chop qilish sifatini yaxshilash uchun chop qilish golovkasini sozlaydi. Chop qilingan narsalar chaplangan yoki matn hamda chiziqlar tekis bo'lmasa, shu funksiyani bajartiring.
	Rostlagichni tozalash	Chop qilingan narsalar chaplangan yoki ishqalangan bo'lsa, shu funksiyani bajartiring.
Qog'ozni sozlash	Qog'oz manbasiga yuklangan qog'oz o'lchami va turini tanlang.	
Holat varag'ini chiqarish	Sozlash holati varag'i	Joriy printer holati va parametrlarni ko'satuvchi ma'lumotnoma varag'ini chop qiladi.
	Ishlatish tarixi varag'i	Printerdan foydalanish tarixini ko'rsatuvchi ma'lumotnoma varag'ini chop qiladi.

Printer asoslari

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari		
Printer sozlamalari	Qog'oz manbasi sozlamalari	A4/Xat almashish	Chop qilish ishi uchun qog'oz o'lchami va qog'oz manbasiga yuklangan qog'oz mos kelmagan hollrda ham xatolik xabarlarining namoyish qilinmasligi uchun shu funksiyani yoqing. Bu funksiyadan faqat qog'oz o'lchami A4 yoki Letter ga o'rnatilganda foydalanish mumkin.
		Xatolik xabari	**Qog'ozni sozlash**-dagi qog'oz o'lchami yoki qog'oz turi bilan chop qilish parametrlari mos kelmaganda xatolik xabarini namoyish qiladi.
	USB orqali kompyuterga ulanish	USB ulanishi orqali kompyuterga ulangan printerni yoqadi. Bu funksiya o'chirilganda kompyuter USB ulanishi orqali ulangan printerlarni tanimaydi.	
Umumiy sozlamalar	Tovush	Ovoz balandligini sozlang va audio turini tanlang.	
	Uyqu taymeri	Hech qanday operatsiyalar bajarilmaganda printer uyqu rejimiga (quvvatlarni tejash rejimi) o'tishidan avval o'tishi kerak bo'lgan vaqtni tanlang. O'rnatilgan vaqt o'tishi bilan LCD ekran qora rangga kiradi.	
	O'chirish sozlam.	Jihoz ishlab chiqarilgan sana va qayerda xarid qilinganiga qarab mahsulotda ushbu funksiya yoki **Printerni o'chirish taymeri** funksiyasi bo‘lishi mumkin.	
		Qo'shilmagan bo'lsa, quvvatni o'chirish	Quvvatlarni boshqarish qo'llanilishidan avval vaqtni sozlashingiz mumkin. Har qanday orttirish mahsulotning quvvat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Har qanday o'zgartirishlar qilishdan avval atrof-muhitni hisobga oling.
		Ajratilgan bo'lsa, quvvatni o'chirish	Barcha tarmoqlar, jumladan, LINE porti bilan aloqa uzilgach, 30 daqiqadan keyin printer o‘chadi.
	Printerni o'chirish taymeri	Quvvatlarni boshqarish qo'llanilishidan avval vaqtni sozlashingiz mumkin. Har qanday orttirish mahsulotning quvvat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Har qanday o'zgartirishlar qilishdan avval atrof-muhitni hisobga oling.	
	LCD kontrasti	LCD ekran kontrastini sozlang.	
	Sana/Vaqt sozlamalari	Sana/Vaqt	Joriy vaqt va sanani o'rnating.
		Yozgi vaqt	Hududingizda qo'llaniladigan yozgi vaqt parametrini tanlang.
		Vaqtdagi farq	Huquqingizdagi mahalliy vaqt bilan UTC (Coordinated Universal Time) o'rtasidagi vaqt farqini kiriting.
	Mamlakat/Mintaqa	Mamlakat yoki mintaqani tanlang.	
	Til/Language	Displey tilini tanlang.	
	O'tkazish tezligi	LCD ekran aylantirib o'tkazish tezligini tanlang.	

Printer asoslari

<table>
<tr><th>Menyu</th><th colspan="3">Parametrlar va ularning tushintirishlari</th></tr>
<tr><td rowspan="8">Tarmoq sozlamalari</td><td>Tarmoq holati</td><td colspan="2">Tarmoq parametrlari va ulanish holatini namoyish qiladi yoki chop qiladi.</td></tr>
<tr><td rowspan="5">Wi-Fi sozlash</td><td>Wi-Fi sozlash yordamchisi</td><td rowspan="4">Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Tarmoq bo'yicha qo'llanma-ga qarang.</td></tr>
<tr><td>Tugmali sozlash (WPS)</td></tr>
<tr><td>PIN kodni sozlash (WPS)</td></tr>
<tr><td>Wi-Fi avto ulanish</td></tr>
<tr><td>Wi-Fi'ni o'chirish</td><td>Wi-Fi parametrlarini ochirib qo'yish yoki Wi-Fi parametrlarini qaytadan o'rnatish orqali tarmoq muammolarini hal qila olishingiz mumkin. Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Tarmoq bo'yicha qo'llanma-ga qarang.</td></tr>
<tr><td>Wi-Fi Direct sozlash</td><td>Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Tarmoq bo'yicha qo'llanma-ga qarang.</td></tr>
<tr><td>Aloqani tekshirish</td><td colspan="2">Tarmoq ulanishi holatini tekshiradi va tarmoq ulanishi tekshiruvi hisobotini chop qiladi. Agar ulanish bilan bog'liq birorta muammo mavjud bo'lsa, muammoni hal qilish uchun tekshiruv hisobotiga qarang.</td></tr>
<tr><td>Qo'shimcha sozlash</td><td colspan="2">Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Tarmoq bo'yicha qo'llanma-ga qarang.</td></tr>
<tr><td>Epson Connect xizmatlari</td><td colspan="3" rowspan="2">Epson Connect yoki Google Could Print xizmatini to'xtatib qo'yishingiz yoki qayta tiklashingiz yoki xizmatlardan foydalanishni bekor qilishingiz mumkin (parametrlarning standart qiymatlarini qayta tiklash).
Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Epson Connect portali veb-saytiga qarang.
https://www.epsonconnect.com/
http://www.epsonconnect.eu (Faqat Yevropa)</td></tr>
<tr><td>Google Cloud Print xizmatlari</td></tr>
<tr><td>Faks sozlamalari</td><td colspan="3">Faks sozlamalari-da menyular ro'yxatiga qarang.</td></tr>
<tr><td rowspan="4">Universal bosma sozlamalari</td><td colspan="3">Printer drayveridan foydalanmasdan tashqi qurilmadan foydalangan holda chop qilganda ushbu chop qilish parametrlari qo'llaniladi.</td></tr>
<tr><td>Yuqoridan siljish</td><td colspan="2" rowspan="2">Printerning yuqori yoki chap hoshiyasini sozlang.</td></tr>
<tr><td>Chapdan siljish</td></tr>
<tr><td>Bo'sh betni tashlab ketish</td><td colspan="2">Chop qilinayotgan ma'lumotlardagi bo'sh sahifalarni avtomatik ravishda o'tkazib yuboradi.</td></tr>
<tr><td>Eko rejimi</td><td>Uyqu taymeri</td><td colspan="2">Hech qanday operatsiyalar bajarilmaganda printer uyqu rejimiga (quvvatlarni tejash rejimi) o'tishidan avval o'tishi kerak bo'lgan vaqtni tanlang.
O'rnatilgan vaqt o'tishi bilan LCD ekran qora rangga kiradi.
Bu parametr o'chirilganda Umumiy sozlamalar-da o'rnatilgan parametr qo'llaniladi.</td></tr>
<tr><td>Odatiy sozlamalarni tiklash</td><td colspan="3">Tanlangan parametrlarni ularning standart qiymatlariga qayta o'rnatadi.</td></tr>
</table>

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Nusxalash** rejimi” - 18-sahifada
➡ “**Skanerlash** rejimi” - 19-sahifada
➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

Faks sozlamalari

Bosh ekrandan **Sozlash** > **Faks sozlamalari**-ni tanlang.

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Foydalanuvchi sozlamalari	Bu menyuda o'rnatilgan parametrlar fakslarni yuborish uchun standart parametrlar bo'ladi. Elementlarni o'rnatish to'grisida batafsil ma'lumotlar olish uchun **Faks** rejimidagi menyular ro'yxatiga qarang.	
Qabul sozlamalari	Qabul qilish rejimi	Qabul qilish rejimini tanlang.
	DRD	Agar siz telefon kompaniyangizning ma'lum jiringlash xizmatiga obuna bo'lgan bo'lsangiz, kiruvchi fakslar uchun foydalanish uchun jiringlash namunasini tanlang (yoki **Yoniq**-ni tanlang).
	Javob berishga jiringlashlar soni	Printer faksni avtomatik ravishda qabul qilishidan avval sodir bo'lishi kerak bo'lgan jiringlashlar sonini tanlang. Agar fakslarni jiringlashlarsiz qabul qilmoqchi bo'lsangiz, "0" (nol) ni tanlang.
	Masofaviy qabul	Kiruvchi faks qo'ng'iroqlariga printerga ulangan telefonda javob berganingizda telefondan foydalanib kodni kiritish orqali faksni qabul qilishni boshlashingiz mumkin.

Printer asoslari

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Chiqarish sozlamalari	Faksni chiqarish	Olingan hujjatlarni kompyuterga saqlaydi. Kompyuterdagi FAX Utility-da parametrlarni o'rnatishingiz kerak.
	Avtomatik qisqartirish	Katta o'lchamda olingan hujjatlarni qog'oz manbasidagi qog'ozga mos kelishi uchun kichiklashtiradi. Olingan ma'lumotlarga bog'liq ravishda har doim ham kcihiklashtirib bo'lmasligi mumkin. Agar bu o'chirib qo'yilsa, katta hujjatlar bir necha sahifaga asl o'lchamida chop qilinadi yoki ikkinchi bo'sh sahida chiqarib yuborilishi mumkin.
	Avtomatik aylantirish	Peyzaj yo'nalishidagi A5 o'lchamdagi hujjat qabul qilinganda va qog'oz manbasi parametri A5 ga o'rnatilganda A5 o'lchamdagi qog'ozga chop qilish uchun avtomatik ravishda aylantiradi. Bu funksiya o'chirib qo'yilganda A4 o'lchamdagi qog'ozga chop qiladi.
	To'g'ri taxlash	Chop qilingan hujjatlar to'g'ri sahifa raqamlari bo'yicha taxlanishi uchun olingan hujjatlarni so'nggi sahifasidan boshlab chop qiladi. Printer xotirasida joy kam bo'lgan holda ishlayotganda bu funsksiyadan foydalanib bo'lmasligi mumkin.
	Chop etishni to'xtatish oralig'i	Kiritilgan vaqtda olingan hujjatlarni chop qilishni to'xtatadi va qaytadan boshlaydi. Ma'lum berilgan vaqt davomida olingan hujjatlar chop qilinmaydi, balki xotiraga saqlanadi. Printer xotirasida joy kam bo'lgan holda ishlayotganda bu funsksiyadan foydalanib bo'lmasligi mumkin. Qayta ishga tushirish vaqtidan keyin hujjatlar avtomatik ravishda chop qilinadi. Bu funksiyadan tunda shovqinning oldini olish yoki siz uzoqda bo'lgan vaqtda sir tutilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning oshkor qilinishining oldini olish uchun foydalaniladi.
	Hisobotga rasm biriktirish	Yuborilgan hujjatning birinchi sahifasi tasviri bilan birgalikda **Yuborish hisoboti**-ni chop qiladi. Yoniq(yirik rasm): Sahifaning yuqori qismini kichiklashtrimagan holda chop qiladi. Yoniq(kichik rasm): U hisobotga sig'ishi uchun butun sahifani kichiklashtirgan holda chop qiladi.
	Faks jurnalini avtomatik chop etish	Faks jurnalini avtomatik ravishda chop qiladi. Yoniq(har 30 tasida): 30 ta faks ishi yakunlanishi bilan jurnalni chop qiladi. Yoniq(vaqt): Jurnalni belgilangan vaqtda chop qiladi. Biroq agar faks ishlari soni 30 tadan ortiq bo'lsa, jurnal ko'rsatilgan vaqtdan avval chop qilinadi.
	Hisobot formati	Faks hisobotlari uchun **Protokol kuzatuvi**-dan boshqa formatni tanlang. Xatolik kodlarini chop qilish uchun **Tafsilot**-ni tanlang.

Menyu	Parametrlar va ularning tushintirishlari	
Asosiy sozlamalar	Faks tezligi	Faksni o'tkazish tezligini tanlang. Aloqa xatoliklari tez-tez yuz berib turganda, xorijga faks yuborganda/ xorijdan faks olganda yoki IP (VoIP) telefon xizmatidan foydalanganda **Sekin(9,600bps)**-ni tanlashni tavsiya qilamiz.
	ECM	Asosan telefon liniyasi halaqitlari tomonidan hosil qilingan faksni o'tkazishdagi xatoliklarni avtomatik ravishda tuzatadi (Xatoliklarni tuzatish rejimi). Agar bu funksiya o'chirib qo'yilsa, rangli hujjatlarni yuborib yoki qabul qilib bo'lmaydi.
	Gudokni aniqlash	Terishni boshlashdan avval raqam terish tovushini aniqlaydi. Agar printer ShTS (Shaxsiy telefon stansiyasi) yoki raqamli telefon liniyasiga ulangan bo'lsa, printer raqam terishni boshlay olmasligi mumkin. Bunday holatlarda **Liniya turi** parametrini **PBX**-ga o'zgartiring. Agar bu yordam bermasa, bu funksiyani o'chirib qo'ying. Biroq bu xususiyatning o'chirib qo'yilishi faks raqamining birinchi belgisining tushirib qoldirilishiga va noto'g'ri raqamga faks yuborilishiga olib kelishi mumkin.
	Raqam terish rejimi	O'zingiz printerni ulagan telefon tizimi turini tanlang. **Impuls**-ga o'rnatilganda faksning yuqori ekranida raqamlarni kiritish vaqtida ∗ ("T" kiritiladi) ni bosish orqali raqam terish rejimini pulsdan vaqtinchalik tovushga o'tkazish mumkin. Hududga bog'liq ravishda bu parametr namoyish qilinmasligi mumkin.
	Liniya turi	O'zingiz printerni ulagan liniya turini tanlang. Batafsil ma'lumotlar olish uchun asosiy faks parametrlarini bayon qiluvchi sahifaga qarang.
	Qalpoq	Yuboruvchi nomi va faks raqamini kiriting. Bu chiquvchi fakslarda sarlavha sifatida paydo bo'ladi. O'z nomingiz uchun 40 tagacha bo'lgan belgini va faks raqamingiz uchun 20 tagacha raqamni kiritishingiz mumkin.
Xavfsizlik sozlamalari	Zaxira ma'lumotlarini avtomatik tozalash	Boshqaruv panelidan foydalangan holda o'chirilgan faks hujjatlari LCD ekrandan yo'qoladi, biroq ularning zahiraviy nusxalari xotirada vaqtinchalik saqlanadi. Quyidagi funskiya zahiraviy nusxalarni o'chiradi.
	Zaxira ma'lumotini tozalash	Zaxira ma'lumotlarini avtomatik tozalash: Yuborilgan yoki olingan hujjat o'chirilgan har safar zahiraviy nusxalarni avtomatik ravishda o'chiradi. Zaxira ma'lumotini tozalash: Barcha zahiraviy nusxalarni o'chiradi. Printerni boshqaga berish yoki uni chiqitga chiqarishdan avval buni ishga tushiring.
Faks aloqasini tekshirish	Printerning telefon liniyasiga ulanganligi va faks yuborishga tayyorligini tekshiradi va tekshirish natijasini A4 o'lchamdagi oddiy qog'ozga chop qiladi.	
Faksni sozlash yordamchisi	Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qilgan holda asosiy faks parametrlarini o'rnating. Batafsil ma'lumotlar olish uchun asosiy faks parametrlarini bayon qiluvchi sahifaga qarang.	

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada

➡ “Olingan fakslarni kompyuterga saqlash” - 77-sahifada

➡ “Asosiy faks parametrlarini o'rnatish” - 68-sahifada

Qog'ozni yuklash

Qog'oz bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralari

❏ Qog'oz bilan berilgan ko'rsatmalar varaqlarini o'qib chiqing.

❏ Solishdan avval qog'oz qirralarini yelpig'ich qiling va tekislang. Fotoqog'ozlarni yelpig'ich qilmang yoki egmang. Bunday qilish chop qiladigan tomonni shikastlashi mumkin.



❏ Agar qog'oz egilgan bo'lsa, solishdan avval uni tekislang yoki teskari yo'nalishda eging. Egilgan qog'ozga chop qilish qo'gozning tiqilib qolishi yoki chop qilingan narsalarning chaplanib ketishiga olib kelishi mumkin.



❏ To'lqinsimon, yirtilgan, qirqilgan, buklangan, xaddan tashqari qalin, xaddan tashqari yupqa yoki stikerlar yopishtirilgan qog'ozdan foydalanmang. Bunday turdagi qog'ozlardan foydalanish qo'gozning tiqilib qolishi yoki chop qilingan narsalarning chaplanib ketishiga olib kelishi mumkin.

❏ Solishdan avval konvert qirralarini yelpig'ich qiling va tekislang. Taxlangan konvertlar havo bilan pudalganda solishdan avval ularni tekislash uchun pastga bosing.



❏ Egilgan yoki bukilgan konvertlardan foydalanmang. Bunday konvertlardan foydalanish qo'gozning tiqilib qolishi yoki chop qilingan narsalarning chaplanib ketishiga olib kelishi mumkin.

❏ Yopqich tomonlari yopishqoq sirtga ega bo'lgan yoki oynali konvertlardan foydalanmang.

❏ Xaddan tashqari yupqa konvertlardan foydalanmang, chunki ular chop qilish vaqtiga egilib ketishi mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Printerning texnik xususiyatlari” - 130-sahifada

Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar

Yuqori sifatli chop qilishlarni kafolatlash uchun Epson asl Epson qog'ozidan foydalanishni tavsiya qiladi.

Asl Epson qog'ozi

Media nomi	O'lchami	Yuklash sig'imi (Varaqlar)	Qo'lda 2 tomonlama chop qilish
Epson Bright White Ink Jet Paper	A4	80*1	✓
Epson Premium Glossy Photo Paper*2	A4, 13×18 sm (5×7 in.), 16:9 kengligi (102×181 mm), 10×15 sm (4×6 in.)	20	-
Epson Matte Paper-Heavyweight*2	A4	20	-
Epson Photo Quality Ink Jet Paper*3	A4	80	-

*1 Qo'lda 2 tomonlama chop qilish uchun bir tomonida chop qilingan 30 varaqqacha qo'goz solishingiz mumkin.

*2 Faqat kompyuterdan yoki smart qurilmadan chop qilish mumkin.

*3 Faqat kompyuterdan chop qilish mumkin.

Eslatma:
Joyga bog'liq ravishda qog'ozlarning mavjudligi farq qiladi. Hududingizda mavjud qog'ozlar to'g'risidagi eng yangi ma'lumotlarni olish uchun Epson kompaniyasining qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.

Tijoriy tarzda sotiladigan qog'ozlar

Media nomi	O'lchami	Yuklash sig'imi (Varaqlar)	Qo'lda 2 tomonlama chop qilish
Oddiy qog'oz	Letter*1, A4, B5*1, A5*1, A6*1	Yon yo'naltirgichdagi uchburchak bergisi bilan ko'rsatilgan chiziqqacha.*2	✓
	Legal, foydalanuvchi belgilaydigan*1	1	
Envelope*1	Envelope #10, Envelope DL, Envelope C6	10	-

*1 Faqat kompyuterdan yoki smart qurilmadan chop qilish mumkin.

*2 Qo'lda 2 tomonlama chop qilish uchun bir tomonida chop qilingan 30 varaqqacha qo'goz solishingiz mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Texnik qo'llab-quvvatlash veb-sayti” - 140-sahifada

Qog'oz turlari ro'yxati

Eng yaxshi chop qilish natijalariga erishish uchun qog'ozingizga mos qog'oz turini tanlang.

Media nomi	Media turi	
	Boshqaruv paneli	Printer drayveri, Smart qurilma*
Epson Bright White Ink Jet Paper	tekis qog'ozlar	Tekis qog‘oz
Epson Premium Glossy Photo Paper	Prem. Jiloli	Epson Premium Glossy
Epson Matte Paper-Heavyweight	Jilosiz	Epson Matte
Epson Photo Quality Ink Jet Paper	Jilosiz	Epson Matte
Oddiy qog'oz	tekis qog'ozlar	Tekis qog‘oz
Konvert	Konvert	Konvert

* Smart qurilmalari uchun Epson iPrint foydalanib chop qilishda bu media turlarini tanlash mumkin.

Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish

1. Uzatgichni oching va qog'oz tayanchini tortib chiqaring.



Qog'ozni yuklash

2. Qirra yo'naltirgichini suring.



3. Qog'ozni orqa qog'oz uzatgichining o'ng tomoni bo'ylab chop qilinadigan tomonini yuqoriga qilgan holda vertikal yo'nalishda joylashtiring.



Muhim:

Qog'oz uchun ko'rsatilgan maksimal varaqlar sonidan ortiq qog'oz solmang. Oddiy qog'ozni qirra yo'naltirgichi ichidagi ▼ belgisidan o'tadigan tarzda solmang.

❏ Konvertlar



Qog'ozni yuklash

❏ Teshib qo'yilgan qog'ozlar



Eslatma:
Quyidagi sharoitlarda teshib qo'yilgan qog'ozlardan foydalanib bo'lmaydi.

❏ *Yuklash sig'imi: Bitta varaq*

❏ *Mavjud o'lchamlari: A4, B5, A5, A6, Letter, Legal*

❏ *Bog'lash teshiklari: Bog'lash teshiklari bo'lgan qog'ozlarni eng yuqoriga yoki eng pastga joylashtirmang.*

Teshiklar ustiga chop qilmaslik uchun faylning chop qilish holatini o'zgartiring.

4. Qirra yo'naltirgichini qog'oz qirrasiga surib qo'ying va keyin uzatgichni yoping.



5. Boshqaruv panelidaorqa qog‘oz tortmasi-ga solingan qog'oz o'lchami va turini tanlang.

Eslatma:
Sozlash *>* ***Qog'ozni sozlash****-ni tanlash orqali ham qog'oz o'lchami va qo'goz turi parametlari ekranini namoyish qilishingiz mumkin.*

6. Chiqarish lotogini tashqariga suring.



Eslatma:
Qolgan qog'ozni qadog'oga qaytarib soling. Agar uni printerda qoldirsangiz, qog'oz buklanishi yoki chop qilish sifati pasayishi mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Qog'oz bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralari” - 26-sahifada

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada

Asl nusxalarni joylashtirish

Asl nusxalarni skaner oynasi yoki ADF-ga joylashtiring. ADF qo'llab-quvvatlamaydigan asl nusxalar uchun skaner oynasi-dan foydalaning.

ADF bilan bir vaqtning o'zida bir nechta asl nusxalarni skanerlash mumkin.

ADF uchun mavjud asl nusxalar

Mavjud qog'oz o'lchamlari	A4, Letter, Legal
Qog'oz turi	Oddiy qog'oz
Qog'oz qalinligi (Qog'ozning vazni)	64 to 95 g/m²
Yuklash sig'imi	A4, Letter: 30 varaq yoki 3 mm Legal: 10 varaq

Qog'ozning tiqilib qolishining oldini olish uchun quyidagi asl nusxalarni ADF ga joylashtirmang. Bu turlar uchun skaner oynasi-dan foydalaning.

- ❏ Yirtilgan, buklangan, g'ijimlangan, buzilgan yoki o'ram qilingan asl nusxalar
- ❏ Tikish tirqishlari bo'lgan asl nusxalar
- ❏ Tasma, skoba, skrepka kabilar bilan bog'langan asl nusxalar
- ❏ Stikerlar yoki etiketkalar yopishtirilgan asl nusxalar
- ❏ Notekis yoki to'g'ri burchak bo'lmagan tarzda qirqilgan asl nuxalar
- ❏ Bog'langan asl nusxalar
- ❏ OHP, issiqlik o'tazuvchi qog'oz yoki qora qog'ozlar

ADF-ga asl nusxalarni joylashtirish

1. Asl nusxalarning qirralarini tenglashtiring.
2. ADF qirra yo'naltirgichini suring.



3. Asl nusxalarni ADF-ga old tomonini yuqoriga qilgan holda joylashtiring.



> ***Muhim:***
>
> ❏ *Asl nusxalarni qirra yo'naltirgichi ichidagi ▼ belgisidan o'tadigan tarzda solmang.*
>
> ❏ *Skanerlash vaqtida asl nusxalarni qo'shmang.*

4. ADF qirra yo'naltirgichini asl nusxalar qirralariga suring.



Aloqador ma’lumotlar

➡ “ADF uchun mavjud asl nusxalar” - 32-sahifada

Skaner Oynasi-ga asl nusxalarni joylashtirish

> ***Diqqat:***
>
> *Hujjat qopqog'ini yopganda barmoqlaringizni qisib olmaslik uchun ehtiyot bo'ling. Aks holda jarohat olishingiz mumkin.*

> ***Muhim:***
>
> *Kitob singari hajmdor asl nusxalarni joylashtirishda tashqi yoritgich nurlarining to'g'ridan-to'g'ri skaner oynasi-ga tushishiga yo'l qo'ymang.*

Asl nusxalarni joylashtirish

1. Hujjat qopqog'ini oching.



2. skaner oynasi-dagi changlar yoki dog'larni ketkazing.

3. Asl nusxani pastga qaratgan holda joylashtiring va burchak belgisi tomon suring.



Eslatma:

- ❏ *skaner oynasi qirralaridan 1,5 mm masofadagi soha skanerlanmaydi.*
- ❏ *Asl nusxalar ADF va skaner oynasi-ga joylashtirilganda ADF-ga joylashtirilgan asl nusxalar ustuvor hisoblanadi.*

4. Qopqoqni ehtiyotlik bilan yoping.

Eslatma:
Skanerlagandan yoki nusxa ko'chirgandan keyin asl nusxalarni oling. Agar asl nusxalar skaner oynasi-da uzoq vaqt qoldirilsa, ular shisha yuzasiga yopishib qolishi mumkin.

Chop qilish

Kompyuterdan chop qilish

Chop qilish asoslari — Windows

Eslatma:

- *Elementlarni o'rnatish tushuntirishlarini olish uchun onlayn yordamga qarang. Elementga o'ng tugmani bosing va keyin **Yordam**-ni cherting.*
- *Ishlashi dasturga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.*

1. Printerga qog'oz soling.

   > ***Muhim:***
   > *Boshqaruv panelida tegishli qog'oz parametrlarini o'rnating.*

2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. **Fayl** menyusidan **Chop qilish** yoki **Chop qilishni o'rnatish**-ni tanlang.
4. Printerni tanlang.

Chop qilish

5. Printer drayveri oynasiga kirish uchun **Afzalliklar** yoki **Xususiyatlar**-ni tanlang.



6. Quyidagi parametrlarni o'rnatishni bajaring.
   - ❏ Hujjat o'lchami: Printerga yuklagan qog'oz o'lchamlarini tanlang.
   - ❏ Joylashuv: O'zingiz dasturda o'rnatgan yo'nalganlikni tanlang.
   - ❏ Qog'oz turi: O'zingiz yuklagan qog'oz turini tanlang.
   - ❏ Rangli: Qora yoki kulrang darajalarida chop qilishni xohlaganingizda **Kulrang shkala**-ni tanlang.

   Eslatma:
   *Konvertlarga chop qilishda **Joylashuv** parametri sifatida Enigani tanlang.*

7. Printer drayveri oynasini yopish uchun **OK**-ni cherting.

8. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada
➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Qog'oz turlari ro'yxati” - 28-sahifada

Chop qilish asoslari — Mac OS X

Eslatma:
Bo'limdagi izohlar misol sifatida TextEdit dasturidan foydalanadi. Amallar va ekranlar dasturga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

1. Printerga qog‘oz soling.

   > ***Muhim:***
   > *Boshqaruv panelida tegishli qog'oz parametrlarini o'rnating.*

2. Chop qilmoqchi bo‘lgan faylni oching.

3. Chop qilish muloqot oynasini ochish uchun **Fayl** menyusidan **Chop qilish** yoki boshqa mos buyruqni tanlang.

   Agar zarur bo‘lsa, chop qilish oynasini kengaytirish uchun **Tafsilotlarni ko‘rsatish** yoki ▼ tugmasini bosing.



4. Quyidagi sozlamalarni amalga oshiring.
   - ❏ Printer: Printeringizni tanlang.
   - ❏ Andozalar: Qayd qilingan sozlamalardan qachon foydalanishni tanlang.
   - ❏ Qog'oz o'lchami: Printerga solingan qog‘oz o‘lchamini tanlang.
   - ❏ Joylashuv: Dasturiy ilovada o‘rnatilgan joylashuvni tanlang.

   Eslatma:
   - ❏ *Agar yuqoridagi sozlama menyulari ko'rsatilmasa, chop qilish oynasini yopib,* ***Fayl*** *menyusidan* ***Qog'ozni sozlash****ni tanlang va kerakli sozlamalarni amalga oshiring.*
   - ❏ *Konvertlarga chop qilishda peyzaj yo'nalganlikni tanlang.*

5. Qalqib chiquvchi menyudan **Chop etish sozlamalari**ni tanlang.



Eslatma:
*Mac OS X v10.8.x yoki undan keyingi versiyalarda agar **Chop etish sozlamalari** menyusi ko‘rinmasa, Epson printer drayveri noto‘g‘ri o‘rnatilgan bo‘ladi.*

*menyu > **Printerlar va skanerlar** (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**)-dan **Tizim afzalliklari**-ni tanlang, printerni o'chiring va keyin qaytadan qo'shing. Printerni qo'shish uchun quyidagiga qarang.*

http://epson.sn

6. Quyidagi sozlamalarni amalga oshiring.
   - ❏ Media Type: Solingan qog‘oz turini tanlang.
   - ❏ Kulrang shkala: Qora yoki kulrang soyasi rangida chop qilish uchun tanlang.
7. **Chop qilish** tugmasini bosing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada
➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Qog'oz turlari ro'yxati” - 28-sahifada

2 tomonlama chop qilish (faqat Windows uchun)

Printer drayveri toq va judt raqamlarni avtomatik ravishda ajratgan holda chop qiladi. Printer top betlarni chop qilishni yakunlaganda juft betlarni chop qilish uchun ko'rsatmalarga amal qilgan holda

qog'ozni ag'daring. Siz yana chop qilinganlarni buklash orqali yaratish mumkin bo'lgan bukletni chop qilishingiz ham mumkin.



Eslatma:

- *Agar siz 2 tomonlama chop qilishga mos bo'lmagan qog'ozdan foyadlansangiz, chop qilish sifati pasayishi va qog'ozning tiqilib qolishi yuz berishi mumkin.*
- *Qog'oz va ma'lumotlarga bog'liq ravishda siyoh qog'ozning boshqa tomonidan oqib ketishi mumkin.*
- *Agar **EPSON Status Monitor 3** o'chirilgan bo'lsa, printer drayveriga kiring, **Kengaytirilgan sozlamalar** panelida **Texnik xizmat**-ni tanlang va keyin **EPSON Status Monitor 3 ni yoqish**-ni tanlang.*
- *Printerga tarmoqdan kirilganda yoki printerdan baham ko'rilgan printer sifatida foydalanilganda 2 tomonlama chop qilishdan foydalanib bo'lmasligi mumkin.*

1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Printer drayveri oynasiga kiring.
4. **Asosiy** panelidagi **2 tomonlama chop qilish**-dan **Qo'lda (uzun tomonidan tikish)** yoki **Qo'lda (kalta tomonidan tikish)**-ni tanlang.
5. **Sozlamalar**-ni cherting, mos parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.

   Eslatma:
   *Buklet sifatida chop qilish uchun **Broshyura**-ni tanlang.*
6. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.
7. **Chop qilish**-ni cherting.

   Birinchi tomonni chop qilish yakunlanganda kompyuterda suzuvchi oyna namoyish qilinadi. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada
➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Chop qilish asoslari — Windows” - 35-sahifada

Bir nechta sahifani bitta varaqqa chop qilish

Ma'lumotlarning ikki yoki to'rtta sahifasini bitta qog'oz varag'iga chop qilish mumkin.



Bir nechta sahifani bitta varaqqa chop qilish — Windows

1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Printer drayveri oynasiga kiring.
4. **Asosiy** panelida **Ko'p sahifali** parametri sifatida **Ikkitalik** yoki **To'rttalik**-ni tanlang.
5. **Sahifa tartibi**-ni cherting, mos parametrlarni o'rnating va keyin oynani yopish uchun **OK**-ni cherting.
6. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.
7. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Chop qilish asoslari — Windows” - 35-sahifada

Bir nechta sahifani bitta varaqqa chop qilish — Mac OS X

1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Chop qilish dialogiga kirish.
4. Suzib chiquvchi menudan **Qolip**-ni tanlang.

5. **Varaqdagi sahifalar soni**-da sahifalar soni, **Qolip yo'nalishi** (sahifalar tartibi), va **Hoshiya**-ni o'rnating.
6. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rnating.
7. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Chop qilish asoslari — Mac OS X” - 37-sahifada

Qog'oz o'lchamiga moslash bilan chop qilish

Siz o'zingiz printerga yuklagan qog'oz o'lchamiga mos keladigan tarzda chop qilishingiz mumkin.



Qog'oz o'lchamiga moslash bilan chop qilish — Windows

1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Printer drayveri oynasiga kiring.
4. **Ko'proq tanlamalar** panelida quyidagi parametrlarni o'rnating.
   - ❏ Hujjat o'lchami: O'zingiz dasturda o'rnatgan qog'oz o'lchamlarini tanlang.
   - ❏ Natijaviy qog'oz: Printerga yuklagan qog'oz o'lchamlarini tanlang.
     Sahifaga moslashtirish avtomatik ravishda tanlanadi.

   Eslatma:
   *Agar kichraytirilgan tasvirni sahifa markazida chop qilmoqchi bo'lsangiz, **Markaz**-ni tanlang.*
5. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.
6. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

➡ “Chop qilish asoslari — Windows” - 35-sahifada

Qog'oz o'lchamiga moslash bilan chop qilish — Mac OS X

1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Chop qilish dialogiga kirish.
4. O'zingiz dasturda o'rnatgan qog'oz o'lchamini **Qog'oz o'lchami** parametri sifatida tanlang.
5. Suzib chiquvchi menudan **Qolip**-ni tanlang.
6. **Qog'oz o'lchamiga moslash uchun masshtablash**-ni tanlang.
7. O'zingiz printerga yuklagan qog'oz o'lchamini **Mo'ljallangan qog'oz o'lchami** parametri sifatida tanlang.
8. Zarur bo'lgan hollarda boshqa narsalarni o'rnating.
9. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Chop qilish asoslari — Mac OS X” - 37-sahifada

Bir nechta faylni birgalikda chop qilish (faqat Windows uchun)

Job Arranger Lite bir nechta dasturlar tomonidan yaratilgan fayllarni birlashtirish va ularni bitta chop qilish ishi sifatida chop qilishga imkon beradi. Birlashtirilgan fayllar uchun joylashish, chop qilish tartibi va yo'nalganlik kabi chop qilish parametrlarini ko'rsatish mumkin.



Eslatma:
Job Arranger Lite*-ga saqlangan* ***Loyihani chop etish****-ni ochish uchun printer drayverining* ***Texnik xizmat*** *panelida* ***Job Arranger Lite****-ni cherting. Keyin faylni tanlash uchun* ***Fayl*** *menyusidagi* ***Ochish****-ni tanlang. Saqlangan fayllar kengaytmasi "ecl".*

1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.

3. Printer drayveri oynasiga kiring.
4. **Asosiy** panelidagi **Job Arranger Lite**-ni tanlang.
5. Printer drayveri oynasini yopish uchun **OK**-ni cherting.
6. **Chop qilish**-ni cherting.

   Job Arranger Lite oynasi namoyish qilinadi va chop qilish ishi **Loyihani chop etish**-ga qo'shiladi.
7. **Job Arranger Lite** oynasi ochilgan holda joriy fayl bilan birlashtirmoqchi bo'lgan faylni oching va keyin 3 dan 6 gacha bo'lgan qadamlarni takrorlang.

   Eslatma:
   Job Arranger Lite *oynasi yopilsa, saqlanmagan* ***Loyihani chop etish*** *o'chiriladi. Keyinroq chop qilish uchun* ***Fayl*** *menyusida* ***Saqlash****-ni tanlang.*
8. Tahrirlash zarur bo'lgan hollarda **Job Arranger Lite Loyihani chop etish**-da **Sxema** va **Tahrirlash** menyularini tanlang.
9. **Fayl** menyusida **Chop etish**-ni tanlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Chop qilish asoslari — Windows” - 35-sahifada

Poster yaratish uchun bitta tasvirni bir nechta varaqqa chop qilish (faqatWindows uchun)

Bu funksiya bitta tasvirni bir necha varaq qog'ozga chop qilish imkonini beradi. Siz posterlarni bir-biriga ulash orqali kattaroq poster yaratishingiz mumkin.



1. Printerga qog'oz soling.
2. O'zingiz chop qilmoqchi bo'lgan faylni oching.
3. Printer drayveri oynasiga kiring.
4. **Asosiy** panelidagi **Ko'p sahifali**-dan **2x1 plakat**, **2x2 plakat**, **3x3 plakat** yoki **4x4 plakat**-ni tanlang.
5. **Sozlamalar**-ni cherting, mos parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.

6. Zarur hollarda **Asosiy** va **Ko'proq tanlamalar** panellaridagi boshqa parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.

7. **Chop qilish**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

➡ “Chop qilish asoslari — Windows” - 35-sahifada

Ustiga chiqarish belgilari-dan foydalanib posterlar qilish

Bu yerda **2x2 plakat** tanlanganda va **Qirqish chiziqlarini chop etish**-da **Ustiga chiqarish belgilari** tanlanganda poster qilishga misol keltirilgan.



Chop qilish

1. Sheet 1 va Sheet 2-ni tayyorlang. Sheet 1 hoshiyasini yuqori va quyi kesishish belgilari markazi orqali vertikal ko'k chiziq bo'ylab qirqing.



2. Sheet 1 qirrasini Sheet 2 yuqori qismiga qo'ying va kesishish belgilarini tenglashtiring, keyin ikkala varaqni orqasi bilan vaqtinchalik bir-biriga yopishtiring.



Chop qilish

3. Birlashtirilgan varaqlarni vertikal qizil chiziq bo'ylab tenglashtirish belgilari orqali ikkiga qirqing (bu safar kesishish belgilarining chap tomonidagi chiziq).



4. Varaqlani orqasidan bir-biriga yopishiring.



5. Sheet 3 va Sheet 4-ni birgalikda yopishtirish uchun 1 dan 4-gacha bo'lgan qadamlarni takrorlang.

Chop qilish

6. Sheet 2 va Sheet 2 hoshiyalarini chap va o'ng kesishish belgilari markazi orqali gorizontal ko'k chiziq bo'ylab qirqing.



7. Sheet 1 va Sheet 2 Sheet 3 va Sheet 4 yuqori qismiga qo'ying va kesishish belgilarini tenglashtiring, keyin ikkala varaqni orqasi bilan vaqtinchalik bir-biriga yopishtiring.



Chop qilish

8. Birlashtirilgan varaqlarni gorizontal qizil chiziq bo'ylab tenglashtirish belgilari orqali ikkiga qirqing (bu safar kesishish belgilarining tepasidagi chiziq).



9. Varaqlani orqasidan bir-biriga yopishiring.



10. Qolgan hoshiyalarni tashqi yo'riqnoma bo'ylab qirqing.



Qo'shimcha funksiyalardan foydalanib chop qilish

Bu bo'limda printer drayverida mavjud bo'lgan turli qo'shimcha joylashtirish va chop qilish funksiyalari keltiriladi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

➡ “Mac OS X Printer drayveri” - 99-sahifada

Jarayonni qulaylashtirish uchun chop qilish andozalarini qo‘shish

Agar printer drayverida o‘zingiz tez-tez ishlatadigan chop qilish sozlamalari andozasini yaratsangiz, ro‘yxatdan mavjud andozani tanlab, osongina chop qilishingiz mumkin.

Windows

O‘z andozalaringizni qo‘shish uchun **Asosiy** yoki **Ko'proq tanlamalar** oynasida **Hujjat o'lchami** va **Qog'oz turi** kabi elementlarni o‘rnatib, keyin **Chop qilish andozalari** bo‘limidagi **Tayyorlarni qo'shish/olib tashlash** tugmasini bosing.

Eslatma:
*Avval qo‘shilgan andozani o‘chirish uchun **Tayyorlarni qo'shish/olib tashlash** tugmasini bosib, keyin o‘chirmoqchi bo‘lgan andozani ro‘yxatdan tanlang va uni o‘chiring.*

Mac OS X

Chop qilish muloqot oynasiga kiring. O‘z andozangizni qo‘shish uchun **Qog'oz o'lchami** va **Media Type** kabi sozlamalarni o‘rnatib, keyin o‘sha sozlamalarni **Andozalar** sozlamasi sifatida saqlang.

Eslatma:
*Avval qo‘shilgan andozani o‘chirish uchun **Andozalar** > **Andozalarni ko‘rsatish** buyruqlar ketma-ketligini tanlab, o‘chirmoqchi bo‘lgan andoza nomini ro‘yxatdan tanlang va uni o‘chiring.*

Kichiklashtirilgan yoki kattalashtirilgan hujjatni chop qilish

Hujjatni ma'lum foizga kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin.

Windows

Ko'proq tanlamalar panelidagi **Hujjat o'lchami**-ni tanlang. **Hujjatni katta/kichraytirish**, **Miqyos**-ni tanlang va keyin foizni kiriting.

Mac OS X

Eslatma:
Ishlashi dasturga bog'liq ravishda farq qiladi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Fayl menyusidan **Qog'ozni sozlash** (yoki **Chop qilish**)ni tanlang. **Quyidagi uchun format** menyusidan printerni tanlang, qog'oz o'lchamini tanlang va keyin **Masshtab**ga foizni kiriting. Oynani yoping va keyin quyidagi asosiy chop qilish ko'rsatmalarini chop qiling.

Chop qilish rangini sozlash

Chop qilishda foydalaniladigan ranglarni sozlash mumkin.

PhotoEnhance asl tasvir ma'lumotlaridagi kontrast, to'yinganlik va ravshanlikni avtomatik sozlash orqali tiniqroq tasvirlar hamda yorqinroq ranglar hosil qiladi.

Eslatma:
- *Ushu sozlashlar asl ma'lumotlarga qo'llanilmaydi.*
- ***PhotoEnhance** buyumning joylashgan joyini tahlil qilish orqali rangni sozlaydi. Shuning uchun agar tasvirni kichraytirish, kattalashtirish, qirqish yoki aylantirish orqali buyum joyi o'zgartirilgan bo'lsa, rang kutilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Agar tasvir fokusdan tashqarida bo'lsa, tus notabiiy bo'lishi mumkin. Agar rang o'zgargan yoki notabiiy bo'lsa, **PhotoEnhance**-dan boshqa rejimda chop qiling.*

Windows

Ko'proq tanlamalar panelidagi **Rangni to'g'rilash**-dan ranglarni tuzatish usulini tanlang.

Agar **Avtomatik**-ni tanlansa, ranglar qog'oz turi va chop qilish sifati parametrlariga mos bo'ladigan tarzda avtomatik ravishda sozlanadi. Agar **Noodatiy** tanlansa va **Qo'shimcha**-ni chertilsa, o'z parametrlaringizni o'zgartirishingiz mumkin.

Mac OS X

Chop qilish dialogiga kirish. Suzub chiquvchi menyudan **Ranglarni moslash**-ni tanlang va keyin **EPSON Color Controls**-ni tanlang. Suzub chiquvchi menyudan **Color Options**-ni tanlang va keyin mavjud opsiyalardan birini tanlang **Qo'shimcha sozlamalar** yonidagi strelka belgisini cherting va tegishli o'rnatishlarni bajaring

Suvsimon belgini chop qilish (faqat Windows uchun)

Bosmalar ustiga suvsimon belgi, masalan, “Maxfiy” degan yozuvni chop qilishingiz mumkin. O‘z suvsimon belgilaringizni ham qo‘shishingiz mumkin.

Ko'proq tanlamalar oynasidan **Suv belgisi xususiyatlari** bo‘limini tanlang va biror suvsimon belgini tanlang. Suvsimon belgi tafsilotlarini, masalan, zichligi va joylashuvini o‘zgartirish uchun **Sozlamalar** ustiga bosing.

Yuqori va quyi kolontitullarni chop qilish (faqat Windows uchun)

Yuqori yoki quyi kolontitullar sifatida foydalanuvchi nomi va chop qilish sanasi kabi ma'lumotlarni chop qilish mumkin.

Ko'proq tanlamalar panelida **Suv belgisi xususiyatlari**-ni cherting va keyin **Sarlavha/Taglavha**-ni tanlang. **Sozlamalar**-ni cherting va keyin tushuvchi ro'yxatdan kerakli elementlarni tanlang.

Epson Easy Photo Print-dan foydalanib fotosuratlarni chop qilish

Epson Easy Photo Print qog'ozning turli turlariga fotosuratlarni joylashtirish va chop qilishga imkon beradi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Eslatma:
Asl Epson fotoqog'oziga chop qilish orqali siyoh sifati maksimallashtiriladi va chop qilingan narsalar yorqin va tiniq bo'ladi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada
➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Epson Easy Photo Print” - 101-sahifada

Smart qurilmalardan chop qilish

Epson iPrint-dan foydalanish

Epson iPrint smartfon yoki planshet kabi smart qurilmada fotosuratlar, hujjatlar va veb-sahifalarni chop qilishga imkon beruvchi dasturdir. Siz bitta simsiz tarmoqqa ulangan smart qurilmadan chop qiluvchi mahalliy chop qilishdan yoki internet orqali masofaviy chop qilishdan foydalanishingiz mumkin. Masofaviy chop qilishdan foydalanish uchun printeringizni Epson Connect xizmatida ro'yxatdan o'tkazing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Epson Connect xizmati” - 95-sahifada

Epson iPrint dasturini o'rnatish

Epson iPrint-ni quyidagi URL yoki QR koddan smart qurilmangizga o'rnatishingiz mumkin.

http://ipr.to/c

Epson iPrint yordamida chop qilish

Smart qurilmangizda Epson iPrint-ni ishga tushiring va bosh ekranda o'zingiz foydalanmoqchi bo'lgan elementni tanlang.

Chop qilish

Quyidagi ekranlar avvaldan xabardor qilmasdan turib o'zgartirilishi mumkin.



❶	Dastur ishga tushirilganda namoyish qilinadigan bosh ekran.
❷	Printerni qanday o'rnatish to'g'risidagi ma'lumotlar va ko'p beriladigan savollarni (FAQ) namoyish qiladi.
❸	Printerni tanlashingiz va printer parametrlarini o'rnatishingiz mumkin bo'lgan ekranni namoyish qiladi. Printerni tanlaganingizdan keyin keyingi safar uni tanlashingiz shart emas.
❹	Fotosuratlar, hujjatlar va veb-saytlar kabi chop qilmoqchi bo'lgan narsangizni tanlang.
❺	Qog'oz o'lchami va qog'oz turi kabi chop qilish parametrlarini o'rnayish oynasini namoyish qiladi.
❻	O'zingiz tanlagan fotosuratlar va hujjatlarni namoyish qiladi.
❼	Chop qilishni boshlaydi.

Eslatma:
iOS asosida ishlovchi iPhone, iPad va iPod touch qurilmasida Epson iPrintdan foydalanib hujjat menyusini chop qilish uchun iTunesdagi faylni almashish funksiyasidan foydalangan holda chop qilmoqchi bo'lgan hujjatni o'tkazgandan keyin ishga tushiring.

AirPrint-dan foydalanish

AirPrint iOS-ning so'nggi versiyasidan foydalangan holda iOS qurilmasidan va Mac OS X v10.7.x yoki keyingi versiyalaridan turib simsiz ravishda AirPrint-yoqilgan printerga chop qilishga imkon beradi.

Eslatma:
Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Apple veb-saytining AirPrint sahifasiga qarang.

1. Printerga qog'oz soling.
2. Qurilmani printeringiz ulangan simsiz tarmoqqa ulang.
3. Qurilmangizdan printerga chop qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Chop qilishni bekor qilish

Eslatma:
- *Windows-da u printerga butunlay jo'natilgandan keyin kompyuterdan chop qilish ishini bekor qila olmaysiz. Bunday hollarda printerning boshqaruv panelidan foydalangan holda chop qilish ishini bekor qiling.*
- *Mac OS X-dan turib bir necha sahifalarni chop qilishda boshqaruv panelidan foydalangan holda barcha ishlarni bekor qilib bo'lmaydi. Bunday kompyuterdan chop qilish ishini bekor qiling.*
- *Agar siz chop qilish ishini Mac OS X v10.6.8-dan tarmoq orqali yuborgan bo'lsangiz, kompyuterdan chop qilish ishini bekor qila olmasligingiz mumkin. Bunday hollarda printerning boshqaruv panelidan foydalangan holda chop qilish ishini bekor qiling. Kompyuterdan chop qilishni bekor qilish uchun Web Config-da parametrlarni o'zgartirishingiz kerak. Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Tarmoq bo‘yicha qo'llanma-ga qarang.*

Chop qilishni bekor qilish — Printer tugmasi

Borayotgan chop qilish ishini bekor qilish uchun ⊽ tugmasini bosing.

Chop qilishni bekor qilish — Windows

1. Printer drayveri oynasiga kiring.

2. **Texnik xizmat** panelini tanlang.
3. **Bosma navbati**-ni cherting.
4. Bekor qilmoqchi bo'lgan chop qilish ishiga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va keyin **Bekor qilish**-ni tanlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Chop qilishni bekor qilish — Mac OS X

1. **Dok**-dagi printer tasvirchasini cherting.
2. O'zingiz bekor qilmoqchi bo'lgan ishni tanlang.
3. Ishni bekor qiling.
   - ❏ Mac OS X v10.8.x yoki keyingi versiyalari

     Ishning borishini ko'rsatuvchi o'lchovning yonidagi -ni cherting.
   - ❏ Mac OS X v10.6.8 dan v10.7.x-ga

     O'chirish-ni cherting.

Nusxa ko'chirish

1. Printerga qog'oz soling.
2. Asl nusxalarni joylashtiring.
3. Bosh ekrandan **Nusxalash**-ga kiring.
4. Nusxalar sonini kiritish uchun ▲ va ▼ tugmalarini bosing.
5. OK tugmasini bosing.
6. **Sxema**-ni tanlang va keyin tegishli qolipni tanlang.
7. ▼ tugmasini bosing va keyin kerak bo'lsa, boshqa parametrlarni o'zgartiring.
8. ◈ tugmasini bosing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada
➡ “**Nusxalash** rejimi” - 18-sahifada

Skanerlash

Boshqaruv panelidan foydalanib skanerlash

Bulutga skanerlash

Epson Connect-dan foydalangan holda skanerlangan tasvirlarni bulut xizmatlariga yuborish mumkin.

Batafsil ma'lumotlar olish uchun Epson Connect portali veb-saytiga qarang.

https://www.epsonconnect.com/

http://www.epsonconnect.eu (Faqat Yevropa)

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Skanerlash** rejimi” - 19-sahifada

Kompyuterga skanerlash

> ***Muhim:***
> *Bu funksiyadan foydalanishdan avval kompyuteringizga EPSON Scan va Epson Event Manager-ning o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.*

1. Asl nusxalarni joylashtiring.
2. Bosh ekrandan **Skanerlash**-ga kiring.
3. **Kompyuter**-ni tanlang.
4. Skanerlangan tasvirlani saqlash uchun kompyuterni tanlang.

   Eslatma:
   - ❏ *Epson Event Manager-dan foydalangan holda hujjat turi, saqlash uchun papka yoki saqlash formati kabi tez-tez foydalaniladigan skanerlash parametrlarini o'zgartirish mumkin.*
   - ❏ *Printer tarmoqqa ulanganda printerning boshqaruv panelida 20 tagacha kompyuter namoyish qilinishi mumkin.*
   - ❏ *O'zingiz skanerlangan tasvirlarni saqlamoqchi bo'lgan kompyuter tarmoqda aniqlanganda boshqaruv panelida kompyuter nomining dastlabki 15 ta belgisi namoyish qilinadi. Agar tarmoqning skanerlash nomini Epson Event Manager-da o'rnatsangiz, u boshqaruv panelida namoyish qilinadi.*
5. OK tugmasini bosing va keyin fayl formatini tanlang.
6. ⛢ tugmasini bosing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “Epson Event Manager” - 100-sahifada

➡ “**Skanerlash** rejimi” - 19-sahifada

Kompyuterga skanerlash (WSD)

Eslatma:

- ❏ *Bu funksiyadan faqat Windows 8.1/Windows 8/Windows 7/Windows Vista o'rnatilgan kompyuterlardagina foydalanish mumkin.*
- ❏ *Agar kompyuteringiz Windows 7/Windows Vista asosida ishlasa, ushbu funksiyadan foydalanish uchun kompyuteringizni avvaldan sozlashingiz lozim. Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Tarmoq bo'yicha qo'llanmaga qarang.*

1. Asl nusxalarni joylashtiring.
2. Bosh ekrandan **Skanerlash**-ga kiring.
3. **Kompyuter (WSD)**-ni tanlang.
4. Kompyuterni tanlang.
5. ⏀ tugmasini bosing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada
➡ “**Skanerlash** rejimi” - 19-sahifada

Kompyuterdan skanerlash

"EPSON Scan" skaner drayveridan foydalanib skanerlang. Har bir o'rnatiladigan parametr tushuntirishini ko'rish uchun EPSON Scan yordamiga qarang.

Skanerlash asoslari

Bu bo'limda skanerlash asoslarini tushintirish uchun EPSON Scan-ning **Home Mode**-dan foydalaniladi. Ishlashining borishi boshqa skanerlash rejimlari bilan bir xildir.

Eslatma:
*ADFdan skanerlaganda **Home Mode**dan foydalanib bo'lmaydi. skaner oynasi-dan skanerlang yoki **Office Mode** yoki **Professional Mode**-dan foydalaning.*

1. Asl nusxalarni joylashtiring.
2. EPSON Scan-ni ishga tushiring.

3. **Home Mode** ro'yxatidan **Mode**-ni tanlang.



4. Quyidagi parametrlarni o'rnatishni bajaring.
   - ❏ **Document Type**: O'zingiz skanerlamoqchi bo'lgan asl nusxa turini tanlang.
   - ❏ **Image Type**: O'zingiz skanerlamoqchi bo'lgan tasvir rangini tanlang.

     Garchi bu **Document Type** parametri tomonidan avtomatik ravishda tanlansa ham siz buni o'zgartirishingiz mumkin.
   - ❏ **Destination**: O'zingiz skanerlamoqchi bo'lgan tasvir aniqligini tanlang.

     Agar **Other** tanlansa, **Resolution**-ni o'rnatish mumkin.
   - ❏ **Thumbnail**: Faqat **Photograph** parametri sifatida Document Type tanlanganda foydalanish mumkin.

     Agar siz buni tanlansangiz va **Preview**-ni chertsangiz, hujjatning skanerlash sohasi, yo'nalishi yoki siljishini avtomatik aniqlash yoki skaner oynasi-ga bir nechta fotosuratlarni joylashtirgan holda skanerlashingiz mumkin.

5. **Preview**-ni cherting.

   Eslatma:
   - ❏ *Fotosuratlar va skanerlash sharoitlariga bog'liq ravishda skanerlash natijalari kutilganidek chiqmasligi mumkin. **Thumbnail**-ni tozalang va faqat bitta fotosurat joylashtiring.*
   - ❏ *Bir nechta fotosuratni joylashtirganda ularni bir-birlaridan kamida 20 mm (0,8 inch) masofada joylashtiring. Yana skaner oynasi-ning qirra sohalari skanerlanmaydi.*

6. Zarur bo'lgan hollarda tasvir sifati yoki ravshanligini sozlang.

   Eslatma:
   Asl nusxalarga bog'liq ravishda skanerlash natijalari kutilganidek chiqmasligi mumkin.

7. **Scan**-ni cherting.

8. **File Save Settings** ekranida kerakli sozlamalarni, masalan, fayl nomi, joyi va tasvir formatini belgilang, keyin **OK** tugmasini bosing.

   Eslatma:
   ***Show this dialog box before next scan** tozalanganda **File Save Settings** ekrani namoyish qilinmaydi va skanerlash darhol boshlanadi. **File Save Settings** ekranini ko'rsatish uchun skanerlashni boshlashdan avval **Scan**ning o'ng tomonidagi (**File Save Settings**) belgisini bosing.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “EPSON Scan (Skaner drayveri)” - 99-sahifada

Qo'shimcha funksiyalardan foydalanib skanerlash

Berilgan o'lchamlarda skanerlash (Office Mode)

Tasvirlarni dastlabki ko'rmasdan turib asl nusxalarni berilgan o'lchamlarda skanerlash mumkin. ADF yordamida siz ko'plab hujjatlarni tezda skanerlashingiz mumkin. EPSON Scan-da **Mode** ro'yxatidan **Office Mode** tanlang.

Skanerlash

Eslatma:

- *Agar siz ko'pgina hujjatlarni bitta faylga skanerlamoqchi bo'lsangiz, PDF formatda saqlang.*
- *Agar ADF-dan foydalanayotgan va **Preview**-ni chertmoqchi bo'lsangiz, o'zingiz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan asl nusxaning faqat birinchi sahifasini yuklang. Dastlabki ko'rib chiqqandan keyin butun hujjatni, jumladan birinchi betni ham yuklang va keyin **Scan**-cherting.*



Tasvir sifatini sozlash orqali skanerlash (Professional Mode)

Tasvirlarni sifatini va rangini sozlagan holda skanerlash mumkin. Bu rejim tajribali foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. EPSON Scan-da **Mode** ro'yxatidan **Professional Mode**-ni tanlang.

Skanerlash

Eslatma:

- ❏ *Agar siz ADF-dan foydalanib skanerlamoqchi bo'lsangiz, **Document Source** sifatida **ADF**-ni tanlang.*
- ❏ *Agar ADF-dan foydalanayotgan va **Preview**-ni chertmoqchi bo'lsangiz, o'zingiz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan asl nusxaning faqat birinchi sahifasini yuklang. Dastlabki ko'rib chiqqandan keyin butun hujjatni, jumladan birinchi betni ham yuklang va keyin **Scan**-cherting.*



Smart qurilmalardan skanerlash

Epson iPrint printer bilan bitta simsiz tarmoqa ulangan smartfon yoki planshet kabi smart qurilmadan turib fotosuratlar va hujjatlarni skanerlashga imkon beruvchi dasturdir. Skanerlangan ma'lumotlarni smart qurilmaga yoki Bulut xizmatlariga saqlash, elekrton pochta orqali yuborish yoki chop qilish mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Epson Connect xizmati” - 95-sahifada

Epson iPrint dasturini o'rnatish

Epson iPrint-ni quyidagi URL yoki QR koddan smart qurilmangizga o'rnatishingiz mumkin.

http://ipr.to/c

Epson iPrint-dan foydalanish

Smart qurilmangizda Epson iPrint-ni ishga tushiring va bosh ekranda o'zingiz foydalanmoqchi bo'lgan elementni tanlang.

Quyidagi ekranlar avvaldan xabardor qilmasdan turib o'zgartirilishi mumkin.

Skanerlash

❶	Dastur ishga tushirilganda namoyish qilinadigan bosh ekran.
❷	Printerni qanday o'rnatish to'g'risidagi ma'lumotlar va ko'p beriladigan savollarni (FAQ) namoyish qiladi.
❸	Printerni tanlashingiz va printer parametrlarini o'rnatishingiz mumkin bo'lgan ekranni namoyish qiladi. Printerni tanlaganingizdan keyin keyingi safar uni tanlashingiz shart emas.
❹	Skanerlash ekranni namoyish qiladi.
❺	Tasvir aniqligi kabi skanerlash parametrlarini o'rnatishingiz mumkin bo'lgan ekranni namoyish qiladi.
❻	Skanerlangan tasvirlarni namoyish qiladi.
❼	Skanerlashni boshlaydi.
❽	Skanerlangan ma'lumotlarni smart qurilmaga yoki Bulut xizmatlariga saqlashingiz mumkin bo'lgan ekranni namoyish qiladi.
❾	Skanerlangan ma'lumotarni elektron pochta orqali yuborishingiz mumkin bo'lgan ekranni namoyish qiladi.
❿	Skanerlangan ma'lumotarni chop qilishingiz mumkin bo'lgan ekranni namoyish qiladi.

Fakslar yuborish

Faksni o'rnatish

Telefon liniyasiga ulash

Mos keluvchi telefon liniyalari

Siz printerdan standart analog telefon liniyalari (UFTT = Umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'i) va ShTS (Shaharcha chiqishga ega bo'lgan shaxsiy telefon stansiyasi) telefon tizimlari orqali foydalanishingiz mumkin.

Printerdan quyidagi telefon liniyalari yoki tizimlari bilan birgalikda foydalanib bo'maydi.

- ❏ DSL yoki optik tolali raqamli xizmat kabi VoIP telefon liniyasi
- ❏ Raqamli telefon liniyasi (ISDN)
- ❏ Ayrim ShTS telefon tizimlari
- ❏ Terminal adapterlari, VoIP adapterlari, splitterlar yoki DSL routeri kabi adapterlar devordagi telefon uyachasi bilan printer o'rtasiga ulanganda

Printerni telefon liniyasiga ulash

Printerni RJ-11 (6P2C) telefon kabeli yordamida devordagi telefon rozetkasiga ulang. Telefonni printerga ulashda ikkinchi RJ-11 (6P2C) telefon kabelidan foydalaning.

Hududga bog'liq ravishda telefon kabeli printerga qo'shib berilishi mumkin. Agar qo'shib berilsa, o'sha kabeldan foydalaning.

Sizdan telefon kabelini mamlakatingiz yoki mintaqangiz uchun berilgan adapterga ulash talab qilinishi mumkin.

> ***Muhim:***
>
> *Faqat telefonni printerga ulagandagina printerning EXT. porti qopqog'ini olib qo'ying. Agar telefonni ulamasangiz, qopqoqni olib qo'ymang.*

Tez-tez chaqmoq bo'lib turadigan hududlarda tarmoq filtridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Standart telefon liniyasi (PSTN) yoki ShTS-ga ulash

Telefon kabelini devordagi telefon uyachasi yoki ShTS portidan printerning orqa tarafidagi LINE portiga ulang.



Aloqador ma’lumotlar

➡ “ShTS telefon tizimi uchun parametrlarni o'rnatish” - 70-sahifada

DSL yoki ISDN-ga ulash

Telefon kabelini DSL modem yoki ISDN terminal adapteridan printerning orqa tarafidagi LINE portiga ulang. Batafsil ma'lumotlar olish uchun modem yoki adapter bilan berilgan hujjatlarga qarang.

Eslatma:
Agar DSL modem ichki qurilgan DSL filtri bilan jihozlanmagan bo'lsa, alohida DSL filtrini ulang.



Telefon qurilmasini printerga ulash

Printer va telefondan bitta telefon liniyasida foydalanganda telefonni printerga ulang.

Eslatma:

- ❏ *Agar telefon qurilmasi faks funksiyasiga ega bo'lsa, ulashdan avval faks funksiyasini o'chirib qo'ying. Batafsil ma'lumotlar olish uchun telefon qurilmasi bilan berilgan hujjatlarga qarang.*
- ❏ *Javob berish mashinasiga mo'ljallanganiga qaraganda kattaroq sondagi fakslarni qabul qilishdan avval* ***Javob berishga jiringlashlar soni*** *sonini o'rnating.*

1. Printerning orqa tarafidagi EXT. portidan qopqoqni olib tashlang.



2. Kompyuter va EXT. portini telefon kabeli bilan ulang.



> ***Muhim:***
>
> *Bitta telefon liniyasini baham ko'rganda telefon qurilmasini printerning EXT. portiga ulaganligingizga ishonch hosil qiling. Agar telefon qurilmasi va printerni ulash uchun liniya bo'linsa, telefon va printer to'g'ri ishlamaydi.*

3. Ulangan telefon go'shagini ko'taring va faksni yuborish yoki olishni tanlashni so'rovchi xabarning LCD ekranda namoyish qilinganligini tasdiqlang.

   Agar xabar namoyish qilinmasa, telefon kabelining EXT. portiga mahkam ulanganligini tekshiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Avtomatik javob bergich uchun parametrlar” - 76-sahifada

Asosiy faks parametrlarini o'rnatish

Avval **Faksni sozlash yordamchisi**-dan foydalangan holda **Qabul qilish rejimi** kabi asosiy faks parametrlarini o'rnating va keyin zarur bo'lgan hollarda boshqa parametrlarni o'zgartiring.

Printer ilk marta yoqilganda **Faksni sozlash yordamchisi** avtomatik ravishda namoyish qilinadi. Parametrlarni o'rnatganingizdan keyin ulanish muhiti o'zgarmagunicha bu parametrlarni qaytadan o'rnatishingiz shart emas.

Faksni sozlash yordamchisi-dan foydalanib asosiy faks parametrlarini o'rnatish

Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qilgan holda asosiy parametrlarni o'rnating.

Fakslar yuborish

1. Printerni telefon liniyasiga ulang.

   > ***Muhim:***
   > *Avtomatik faks ulanishi tekshiruvi usta ishining oxirida ishga tushirilganligi sababli ustani ishga tushirishdan avval printerni telefon liniyasiga ulanganligiga ishonch hosil qiling.*

2. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.

3. **Faks sozlamalari** > **Faksni sozlash yordamchisi**-ni tanlang va keyin ▲ tugmasini bosing.

   Usta ishga tushadi.

4. Faks sarlavhasini kiritish ekranida kompaniyangiz nomi kabi yuboruvchi nomini kiriting.

   Eslatma:
   Yuboruvchi nomi va faks raqami chiquvchi fakslarning sarlavhasi sifatida namoyish qilinadi.

5. Telefon raqamini kiritish ekranida faks raqamingizni kiriting.

6. DRD parametridan foydalanyotganligingiz yoki yo'qligini tanlang.

   ❏ Agar siz telefon kompaniyangizning aniq bir jurunglash xizmatiga obuna bo'lgan bo'lsdangiz: ▲ tugmasini bosing, kiruvchi fakslar uchun foydalaniladigan jiringlash namunasini tanlang va keyin 9-qadamga o'ting. **Qabul qilish rejimi** avtomatik ravishda **Avtomatik**-ga o'rnatiladi.

   ❏ Agar bu opsiyani o'rnatishingiz kerak bo'lmasa: ▼ tugmasini bosing va keyin keyingiz qadamga o'ting.

   Eslatma:
   ❏ *Ko'pgina telefon kompaniyalari tomonidan taklif qilinadigan aniq bir jiringlash xizmatlari (kompaniyaga qarab xizmat nomi o'zgaradi) telefon liniyasida bir nechta telefon raqamlariga ega bo'lishga imkon beradi. Har bir raqamga alohida jiringlash namunasi tayinlanadi. Siz ovozli qo'ng'iroqlar uchun bitta raqamdan va faks qo'ng'iroqlari uchun boshqa raqamdan foydalanishingiz mumkin. **DRD**-da faks qo'ng'iroqlari uchun tayinlangan jiringlash namunasini tanlang.*

   ❏ *Hududga bog'liq ravishda **Yoniq** va **O'chiq DRD** opsiyalari sifatida namoyish qilinadi. Aniq bir jiringlash xususiyatidan foydalanish uchun **Yoniq**-ni tanlang.*

7. Printerga ulangan telefon qurilmasidan foydalanayotganligingiz yoki yo'qligini tanlang.

   ❏ Ulanganda: ▲ tugmasini bosing va keyin keyingiz qadamga o'ting.

   ❏ Ulanmaganda: ▼ tugmasini bosing va keyin 9-qadamga o'ting. **Qabul qilish rejimi Avtomatik**-ga o'rnatiladi.

8. Fakslarni avtomatik ravishda olishni xohlashingiz yoki yo'qligini tanlang.

   ❏ Avtomatik ravishda olish uchun: ▲ tugmasini bosing. **Qabul qilish rejimi Avtomatik**-ga o'rnatiladi.

   ❏ Qo'lda olish uchun: ▼ tugmasini bosing. **Qabul qilish rejimi Qo'lda**-ga o'rnatiladi.

9. **Sozlamalarni tasdiqlash** ekranida OK tugmasini bosing. O'zingiz o'rnatgan parametrlarni tekshirish uchun ▲ va ▼tugmalarini bosing va keyin OK tugmasini bosing.

   Parametrlarga tuzatish kiritish yoki o'zgartirish uchun ↺ tugmasini bosing.

10. **Boshlash**-ni tanlang va sizga tekshirish natijalarini chop qilish taklif qilinganda ◈ tugmasini bosing.

    Ulanish holatini ko'rsatuvchi tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot chop qilinadi.

    Eslatma:
    - ❏ *Agar biror xatolik to'g'risida hisobot berilsa, bu muammoni hal qilish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.*
    - ❏ *Agar sizdan liniya turini tanlash so'ralsa, liniya turini tanlang. Printerni ShTS telefon tizimi yoki terminal adapteriga ulaganingizda **PBX**-ni tanlang.*
    - ❏ *Agar ekranda terish tovushining aniqlanmaganligi ko'rsatilsa, terish tovushini aniqlash funksiyasini o'chirib qo'yish uchun ▲ tugmasini bosing.*

      Biroq terish tovushini aniqlash funksiyasining o'chirib qo'yilishi faks raqamining birinchi belgisining tushirib qoldirilishiga va noto'g'ri raqamga faks yuborilishiga olib kelishi mumkin.

11. **Boshlash** yana ko'rsatilganda ▼ tugmasini bosing. Ustadan chiqish uchun **Tayyor**-ni tanlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Printerni telefon liniyasiga ulash” - 65-sahifada
➡ “Olish rejimini o'rnatish” - 75-sahifada
➡ “ShTS telefon tizimi uchun parametrlarni o'rnatish” - 70-sahifada
➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

Asosiy faks parametrlarini yakka tartibda o'rnatish

Har bir o'rnatish parametrini yakka tartibda tanlash orqali faksni o'rnatish ustasidan foydalanmasdan faks parametrlarini o'rnatish mumkin. O'rnatish ustasi yordamida o'rnatilgan parametrlarni ham o'zgartirish mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun asosiy faks parametrlarining menyular ro'yxatiga qarang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

ShTS telefon tizimi uchun parametrlarni o'rnatish

Telefon raqami kengaytmalaridan foydalanuvchi va tashqaridagi liniyaga chiqish uchun 0 va 9 kabi tashqi kirish kodlarini talab qiluvchi ofislarda printerdan foydalanganda quyidagi parametrlarni o'rnating.

1. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
2. **Faks sozlamalari** > **Asosiy sozlamalar** > **Liniya turi**-ni tanlang.
3. **PBX**-ni tanlang.
4. Kirish kodi sifatida **Ishlatilsin**-ni tanlang.
5. **Chiqish kodi** ekranida telefon tizimingiz uchun foydalaniluvchi tashqi kirish kodini kiriting va keyin OK tugmasini bosing.

   Kirish kodi printerda saqlanadi. Tashqi faks raqamiga faks yuborishda haqiqiy kirish kodi o'rniga # (xesh) belgisini kiriting.

Eslatma:
Faks raqamining boshlanishiga # (xesh) belgisi kiritilganda raqam terishda printer # ni saqlangan kirish kodi bilan almashtiradi. # dan foydalanish tashqaridagi liniyaga ulanganda ulanish bilan bog'liq muammolarning oldini olishga yordam beradi.

Faks yuborish uchun kontaktlarni ro'yxatga qo'shish

Tez-tez ishlatiladigan faks raqamlarini kontaktlar ro'yxatiga qo'shish fakslarni osongina yuborish imkonini beradi. Bitta faksni bir vaqtda bir nechta qabul qiluvchiga yuborish uchun kontaktlarni guruhlashingiz ham mumkin. 60 tagacha kontakt (guruh kontakti bitta hisoblanadi) qo'shish mumkin.

Kontaktlarni ro'yxatdan o'tkazish

1. **Faks** rejimida tugmasini bosing.
2. # tugmasini bosing va keyin **Kiritma qo'shish**-ni tanlang.
3. O'zingiz ro'yxatdan o'tkazmoqchi bo'lgan kiritish raqamini tanlang.
4. Ismi va aks raqamini kiriting.

   Eslatma:
   *Agar telefon tizimingiz ShTS bo'lsa, faks raqamini kiritganda raqamning boshlanishida tashqi kirish kodini kiriting va tashqi liniyaga chiqish uchun kirish kodini kiritish talab qilinadi. Agar kirish kodi **Liniya turi** parametrida o'rnatilgan bo'lsa, haqiqiy kirish kodining o'rniga panjara (#) belgisini kiriting. Raqam terish vaqtida to'xtalish (uch soniyali to'xtalish) qo'shish uchun tugmasini bosgan holda defis belgisini kiriting.*

5. Faks tezligini tanlang. O'zgartirish uchun uchun ▶ tugmasini bosing.

   Eslatma:
   *Faks tezligi **Sozlash** > **Faks sozlamalari** > **Asosiy sozlamalar** > **Faks tezligi** orqali o'rnatiladi. Agar qabul qiluvchi bilan aloqada tez-tez muammo kuzatilsa yoki qabul qiluvchi bilan uzoqda bo'lsa, **Sekin(9,600bps)** paramateridan foydalanish tavsiya etiladi.*

6. Kontaktni ro'yxatdan o'tkazish uchun OK tugmasini bosing.

   Eslatma:
   *Kiritilgan yozuvni tahrirlash yoki o'chirish uchun shu yozuvni tanlang, ▶ tugmasini bosing va keyin **Tahrirlash** yoki **O'chirish**-ni tanlang.*

Guruhlangan kontaktlarni ro'yxatdan o'tkazish

Kontaktlarni guruhga qo'shish bir vaqtning o'zida bir nechta manzilga faks yuborishga imkon beradi.

1. **Faks** rejimida tugmasini bosing.
2. # tugmasini bosing va keyin **Guruh qo'shish**-ni tanlang.
3. O'zingiz ro'yxatdan o'tkazmoqchi bo'lgan kiritish raqamini tanlang.

4. Nomni kiriting va keyin OK tugmasini bosing.
5. Guruhda Ro'yxatdan o'tkazmoqchi bo'lgan kontaktlarni tanlash uchun ⁎ tugmasini bosing.

   Eslatma:
   - ❏ *Siz 30 tagacha kontaktni ro'yxatdan o'tkazishingiz mumkin.*
   - ❏ *Tanlovni bekor qilish uchun yana ⁎ tugmasini bosing.*

6. Kontaktlarni guruh sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun OK tugmasini bosing.

   Eslatma:
   *Guruhlangan kontaktni tahrirlash yoki o'chirish uchun shu guruhlangan kontaktni tanlang, ▶ tugmasini bosing va keyin **Tahrirlash** yoki **O'chirish**-ni tanlang.*

Kompyuterdan foydalangan holda kontaktlarni ro'yxatdan o'tkazish va zahiraviy nusxalash

FAX Utility yordamida siz kompyuterda kontaktlar ro'yxatini yaratishingiz va uni printerga import qilishingiz mumkin. Bundan tashqari, printerga saqlangan kontakt ma'lumotini kompyuterga arxivlashingiz ham mumkin. Tafsilotlar uchun FAX Utility yordam ma'lumotini ko'ring.

Printerning noto'g'ri ishlashi tufayli kontaktlarning ma'lumotlari yo'qotilishi mumkin. Ma'lumotlarni yangilashingiz bilan ularni zahiraviy nusxalarini olib qo'yishni tavsiya qilamiz. Har qanday ma'lumotlarning yo'qotilishi, ma'lumotlar va/yoki parametrlarni zahiraviy nusxalash yoki qayta tiklash uchun Epson xattoki kafolat muddati davomida ham javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Fakslar yuborish

Asosiy faks yuborish operatsiyalari

Fakslarni rangli yoki monoxrom (oq-qora) ko'rinishda yuboring.

Eslatma:
Agar faks raqami band bo'lsa yoki muammo yuz bersa, bir daqiqadan keyin printer avtomatik ravishda qayta qo'ng'iroq qiladi.

Boshqaruv panelidan foydalanib fakslar yuborish

1. Asl nusxalarni joylashtiring.

   Eslatma:
   Bir o'tkazishda 100 betgacha yuborish mumkin; biroq xotirada qolgan bo'sh joyga bog'liq ravishda 100 betdan kamroq bo'lgan fakslarni yuborib bo'lmay qolishi mumkin.

2. Bosh ekrandan **Faks**-ga kiring.
3. Oluvchini ko'rsating.
   - ❏ Qo'lda kiritish uchun: Raqamli klaviaturadan foydalanib raqamni kiriting va keyin OK tugmasini bosing.
   - ❏ Kontaktlar ro'yxatidan tanlash uchun: tugmasini bosing va keyin oluvchini tanlang.
   - ❏ So'nggi terilgan raqamni tanlash uchun: tugmasini bosing.

Eslatma:

- *Monoxrom faksni 30 tagacha oluvchiga yuborish mumkin. Rangli faksni bir martada faqat bir oluvchiga yuborish mumkin.*
- *Raqam terish vaqtida to'xtalish (uch soniyali to'xtalish) qo'shish uchun* *tugmasini bosgan holda defis belgisini kiriting.*
- ***Liniya turi**-da tashqi kirish kodi o'rnatilgan bo'lsa, haqiqiy tashqi kirish kodining o'rniga faks raqamining boshlanishida "#" (panjara) belgisini kiriting.*
- *Agar* *tugmasini bossangiz va so'nggi faks guruhli raqam terish yozuviga yuborilgan bo'lsa, guruhda so'nngi bo'lib ro'yxatga olingan yozuv namoyish qilinadi.*
- *Tanlangan oluvchini o'chirish uchun* ▶ *tugmasini bosing va keyin **Kontaktlarni o'chirish**-ni tanlang.*

4. OK tugmasini bosing va keyin zarur bo'lgan hollarda tasvir aniqligi va yuborish usuli kabi parametrlarni o'rnating.

5. ◈ tugmasini bosing.

Eslatma:

- *Yuborishni bekor qilish uchun* ▽ *tugmasini bosing.*
- *Rangli faksni yuborish ko'proq vaqtni oladi, chunki printer skanerlash va yuborishni bir vaqtda bajaradi. Rangli faksni yuborish vaqtida boshqa funksiyalardan foydalanib bo'lmaydi.*
- *Asl hujjat tarkibi va siz tanlagan tasvir aniqligiga qarab faksni yuborishga ketadigan vaqt farq qilishi mumkin.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada

➡ “Faks yuborish uchun kontaktlarni ro'yxatga qo'shish” - 71-sahifada

Fakslar yuborish Tashqi telefon qurilmasidan raqam terish

Fakslarni yuborishdan avval telefon orqali gaplashmoqchi bo'lganingizda yoki oluvchining faks mashinasi faksga avtomatik o'tmasa, ulangan telefon orqali raqam terish orqali fakslarni yuborishingiz mumkin.

1. Asl nusxalarni joylashtiring.

Eslatma:
Bitta o'tkazishda 100 betgacha yuborish mumkin.

2. Ulangan telefon go'shagini ko'taring.

3. Printer boshqaruv panelida **Jo'natish**-ni tanlang va keyin telefondan foydalangan holda oluvchining faks raqamini tering.

4. OK tugmasini bosing va keyin zarur bo'lgan hollarda tasvir aniqligi va yuborish usuli kabi parametrlarni o'rnating.

5. Faks tovushini eshitganingizda ◈ tugmasini bosing va keyin go'shakni qo'ying.

   Eslatma:
   - ❏ *Ulangan telefon orqali raqam terilganda faks yuborish ko'proq vaqtni oladi, chunki printer skanerlash va yuborishni bir vaqtda bajaradi. Faksni yuborish vaqtida boshqa funksiyalardan foydalanib bo'lmaydi.*
   - ❏ *Asl hujjat tarkibi va siz tanlagan tasvir aniqligiga qarab faksni yuborishga ketadigan vaqt farq qilishi mumkin.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada

Fakslarni yuborishning turli usullari

Ko'rsatilgan vaqtda fakslarni yuborish (Faksni keyinroq jo'natish)

Fakslarni ko'rsatilgan vaqtda yuborishga o'rnatish mumkin. Yuborish vaqti o'rnatilganda faqat monoxrom fakslarni yuborish mumkin.

1. Asl nusxalarni joylashtiring.
2. Bosh ekrandan **Faks**-ga kiring.
3. Oluvchini ko'rsating.
4. OK tugmasini bosing va keyin **Faksni keyinroq jo'natish**-ni tanlang.
5. **Yoniq**-ni tanlang va keyin OK tugmasini bosing.
6. Faksni yuborish vaqtini kiriting va keyin OK tugmasini bosing.
7. Zarur bo'lgan hollarda tasvir aniqligi va zichlik kabi parametrlarni o'rnating.
8. ◈ tugmasini bosing.

   Eslatma:
   Faks ko'rsatilgan vaqtda yuborilmagunicha boshqa fakslarni yuborib bo'lmaydi. Faksni bekor qilish uchun faks rejimining yuqori ekranida ▽ tugmasini bosing va keyin ▲ tugmasini bosing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Boshqaruv panelidan foydalanib fakslar yuborish” - 72-sahifada

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada

Monoxrom hujjatning ko'pgina betlarini yuborish (To'g'ridan-to'g'ri jo'natish)

Faksni monoxrom ko'rinishda yuborganda skanerlangan hujjat vaqtinchalik printer xotirasiga saqlanadi. Shuning uchun sahifalarning juda ko'p bo'lishi printer xotirasining yetmay qolishi va faks yuborishning

to'xtatilishiga olib keladi. **To'g'ridan-to'g'ri jo'natish** funksiyasini yoqish orqali buning oldini olish mumkin, biroq faks yuborish ko'proq vaqtni oladi, chunki printer skanerlash va yuborishni bir vaqtda bajaradi. Siz bu funksiyadan faqat bitta oluvchi bo'lganda foydalanishingiz mumkin.

Bosh ekranda **Faks**-ni tanlang va keyin OK tugmasini bosing. **To'g'ridan-to'g'ri jo'natish**-ni **Yoniq**-ga o'rnating

Kompyuterdan faks yuborish

FAX Utility va PC-FAX drayveridan foydalangan holda kompyuterdan fakslar yuborish mumkin. Ishlatish bo'yicha ko'rsatmalarni olish uchun FAX Utility va PC-FAX drayver yordamiga qarang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “PC-FAX Drayveri (Faks drayveri)” - 100-sahifada

➡ “FAX Utility” - 101-sahifada

Fakslarni qabul qilish

Olish rejimini o'rnatish

Faksni sozlash yordamchisi-dan foydalangan holda **Qabul qilish rejimi**-ni o'rnatish mumkin. Faks funksiyasini ilk marta o'rnatganda **Faksni sozlash yordamchisi**-dan foydalanishni tavsiya qilamiz. Agar **Qabul qilish rejimi** parametrlarini yakka tartibda o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, quyidagi qadamlarga amal qiling.

1. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
2. **Faks sozlamalari** > **Qabul sozlamalari** > **Qabul qilish rejimi**-ni tanlang.
3. Qanday qabul qilishni tanlang.
   - ❏ Avtomatik: Faksdan ko'p foydalanuvchilar uchun tavsiya qilinadi. Ko'rsatilgan jiringlashlar sonidan keyin faks avtomatik ravishda qabul qilinadi.

     > ***Muhim:***
     > *Telefonni printerga ulamaganingizda **Avtomatik** rejimini tanlang.*

   - ❏ Qo'lda: Faksdan unchalik ko'p foydalanmaydigan yoki ulangan telefon orqali javob bergandan keyin faksni qabul qilishni xohlaydigan foydalanuvchilar uchun tavsiya qilinadi. Faksni olayotganda go'shakni ko'taring va keyin printerni ishlating.

     Eslatma:
     *Agar **Masofaviy qabul** funksiyasi yoqilgan bo'lsa, shunchaki ulangan telefondan foydalanib fakslarni qabul qilishni boshlash mumkin.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Faksni sozlash yordamchisi-dan foydalanib asosiy faks parametrlarini o'rnatish” - 68-sahifada

➡ “Faksni qo'lda qabul qilish” - 76-sahifada

➡ “Ulangan telefondan foydalanib fakslarni olish (Masofaviy qabul)” - 76-sahifada

Avtomatik javob bergich uchun parametrlar

Avtomatik javob bergichdan foydalanish uchun parametrlarni o'rnatishingiz kerak.

❏ Printerning **Qabul qilish rejimi**-ni **Avtomatik**-ga o'rnating.

❏ Printerning **Javob berishga jiringlashlar soni** parametrini avtomatik javob bergich uchun jiringlashlar soniga qaraganda balandroq songa o'rnating. Aks holda avtomatik javob bergich ovozli xabarlarni yozib olish ovozli qo'ng'iroqlarni qabul qila olmaydi. Uning parametrlari to'g'risida ma'lumotlar olish uchun avtomatik javob bergich bilan birga berilgan qo'llanmalarga qarang.

Hududga bog'liq ravishda **Javob berishga jiringlashlar soni** parametri namoyish qilinmasligi mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

Fakslarni olishning turli usullari

Faksni qo'lda qabul qilish

Telefonni ulaganingizda va printerning **Qabul qilish rejimi** parametrini **Qo'lda**-ga o'rnatganingizda, fakslarni qabul qilish uchun quyidagi qadamlarga amal qiling.

1. Telefon jiringlaganda go'shakni ko'taring.
2. Faks tovushini eshitganingizda printerning boshqaruv panelida **Qabul qilish**-ni tanlang.

   Eslatma:
   *Agar **Masofaviy qabul** funksiyasi yoqilgan bo'lsa, shunchaki ulangan telefondan foydalanib fakslarni qabul qilishni boshlash mumkin.*

3. ✆ tugmasini bosing va keyin go'shakni joyiga qo'ying.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Ulangan telefondan foydalanib fakslarni olish (Masofaviy qabul)” - 76-sahifada

➡ “Olingan fakslarni kompyuterga saqlash” - 77-sahifada

Ulangan telefondan foydalanib fakslarni olish (Masofaviy qabul)

Fakslarni qo'lda olish uchun telefon go'shagini ko'targandan keyin printerni boshqarishingiz kerak. **Masofaviy qabul** funksiyasidan foydalangan holda shunchaki ulangan telefondanni ishlatish orqali fakslarni qabul qilishni boshlash mumkin.

Masofaviy qabul funksiyasidan tovushli raqam terishni qo'llab-quvvatlovchi telefonlarda foydalanish mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Faksni qo'lda qabul qilish” - 76-sahifada

Masofaviy qabul-ni o'rnatish

1. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
2. **Faks sozlamalari** > **Qabul sozlamalari** > **Masofaviy qabul**-ni tanlang.
3. **Masofaviy qabul**-ni yoqqandan keyin ikkita raqamli kodni kiriting (0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar, * va # ni kiritish mumkin).
4. OK tugmasini bosing.

Masofaviy qabul-dan foydalanish

1. Telefon jiringlaganda go'shakni ko'taring.
2. Faks tovushini eshitganingizda telefondan foydalanib boshlash kodini kiriting.
3. Printer faksni qabul qilishni boshlaganligi tasdiqlangandan keyin go'shakni qo'ying.

Ovoz berish orqali fakslarni qabul qilish (Faks jo'natish so'rovi)

O'sha faks raqamini terish orqali boshqa faks mashinasiga saqlangan faksni olish mumkin. Bu funksiyadan faks ma'lumotlar xizmatidan hujjat olish uchun foydalaning. Biroq agar faks ma'lumotlar xizmati hujjatni qabul qilish uchun amal qilish kerak bo'lgan audio yo'riqnoma funksiyasiga ega bo'lsa, bu funksiyadan foydalana olmaysiz.

Eslatma:
Audio yo'riqnomadan foydalanuvchi faks ma'lumotlar xizmatidan hujjat olish uchun ulangan telefondan foydalanib faks raqamini tering va audio yo'riqnomaga amal qilgan holda telefon va printerni boshqaring.

1. Bosh ekrandan **Faks**-ga kiring.
2. OK tugmasini bosing va keyin **Faks jo'natish so'rovi**-ni yoqing.
3. Faks raqamini tering.
4. ◈ tugmasini bosing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Fakslar yuborish Tashqi telefon qurilmasidan raqam terish” - 73-sahifada

Olingan fakslarni kompyuterga saqlash

Siz olingan hujjatlarni PDF formatiga o'tkazish hamda ularni printerga ulangan kompyuterga saqlab olishingiz mumkin. Bundan tashqari siz hujjatlarni kompyuterga saqlash bilan birga ularni avtomatik ravishda chop ham qilishingiz mumkin.

Dastlab, sozlash uchun FAX Utility dasturidan foydalanishingiz lozim. Kompyuterga FAX Utility dasturini o'rnating.

Fakslar yuborish

Muhim:

- *Printerning qabul qilish rejimini **Avtomatik** qilib belgilang.*
- *Kompyuteringizni uyqu rejimiga o'tib qolmasin. Agar kompyuter uyqu rejimida qolib ketsa yoki o'chiq bo'lsa, printer qabul qilingan hujjatlarni vaqtinchalik saqlaydi va natijada, uning xotirasi to'lib qolib, faks yuborish va olishda xatolik yuz berishi mumkin.*

1. Printerga ulangan kompyuterda FAX Utility dasturini ishga tushiring.
2. FAX Utility dasturining sozlamalar ekranini oching.
   - Windows

     Fax Settings for Printer > **Received Fax Output Settings**-ni tanlang.
   - **Mac OS X**

     Fax Receive Monitor ustiga bosing, printerni tanlang va **Received Fax Output Settings.**ni bosing.
3. **Save faxes on this computer** ustiga bosing va qabul qilingan hujjatlarni saqlash uchun jildni tanlang.
4. Zaruratga qarab boshqa sozlamalarni ham amalga oshirib, keyin ushbu paramaterlarni printerga yuboring.

   Eslatma:
   Parametrlar va jarayon haqida batafsil ma'lumot olish uchun FAX Utility dasturi yordam ma'lumotiga qarang.
5. Printerning boshqaruv panelidan **Sozlash** bo'limiga kiring.
6. **Faks sozlamalari** > **Chiqarish sozlamalari** > **Faksni chiqarish**-ni tanlang.
7. Joriy sozlama ko'rsatiladi. Printer fakslarni kompyuterga saqlaydigan qilib sozlanganligini tekshiring. Agar qabul qilingan hujjatlarni kompyuterga saqlash vaqtida ularni avtomatik chop qilish uchun **Saqlab, chop etish**ni tanlang.

   Eslatma:
   *Qabul qilingan hujjatlarni kompyuterga saqlashni to'xtatish uchun printerda **Faksni chiqarish**ni **Chop etish** qilib o'zgartiring. Sozlamalarni FAX Utility orqali ham o'zgartirish mumkin, biroq kompyuterda qabul qilingan fakslar saqlangan bo'lsa, FAX Utility dasturidan foydalanib bo'lmaydi.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “FAX Utility” - 101-sahifada
➡ “Olish rejimini o'rnatish” - 75-sahifada

Boshqa faks funksiyalaridan foydalanish

Faks hisoboti va ro'yxatini chop qilish

Faks hisobotini qo'lda chop qilish

1. Bosh ekrandan **Faks**-ga kiring.
2. OK tugmasini bosing va keyin **Faks hisoboti**-ni tanlang.
3. Chop qilish uchun hisobotni tanlang va keyin ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

   Eslatma:
   *Hisobot formatini o'zgartirish mumkin. Bosh ekranda **Sozlash** > **Faks sozlamalari** > **Chiqarish sozlamalari**-ni va keyin **Hisobotga rasm biriktirish** yoki **Hisobot formati** parametrlarini o'zgartiring.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada
➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

Faks hisobotlarini avtomatik chop qilishga o'rnatish

Quyidagi faks hisobotlarini avtomatik ravishda chop qiladigan tarzda parametrlarni o'rnatish mumkin.

Yuborish hisoboti

Bosh ekranda **Sozlash** > **Faks sozlamalari** > **Foydalanuvchi sozlamalari** > **Yuborish hisoboti**-ni va keyin **Chop etish** yoki **Xato chiqqanida chop etilsin**-ni tanlang.

Eslatma:
*Faksni yuborishda parametrlarni o'zgartirish uchun faksning yuqori ekranidagi OK tugmasini bosing va keyin **Yuborish hisoboti**-ni tanlang.*

Faks jurnali

Bosh ekranda **Sozlash** > **Faks sozlamalari** > **Chiqarish sozlamalari** > **Faks jurnalini avtomatik chop etish**-ni va keyin **Yoniq(har 30 tasida)** yoki **Yoniq(vaqt)**-ni tanlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada
➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

Olingan fakslarni qayta chop qilish

Siz allaqachon chop qilgan olingan hujjatlarni qaytadan chop qilishingiz mumkin. Printer xotirasiga saqlangan olingan hujjatlarning barchasi teskari xronologik tartibda chop qilinadi. Biroq printer xotirasida bo'sh joy yetarli bo'lmasa, allaqachon chop qilingan hujjatlar eng eskisidan boshlab avtomatik ravishda o'chiriladi.

Fakslar yuborish

1. Bosh ekrandan **Faks**-ga kiring.
2. OK tugmasini bosing va keyin **Fakslarni qayta chop etish**-ni tanlang.
3. ◈ tugmasini bosing.

   Eslatma:
   Hujjatlarni qayta chop qilgandan keyin chop qilishni to'xtatish uchun ⊘ tugmasini bosing.

Siyoh to'ldirish

Siyoh darajalarini tekshirish

Haqiqatda qolgan suyohni tasdiqlash uchun printerning barcha siyoh baklaridagi siyoh darajalarini ko'z bilan tekshiring.

Muhim:

Idishlardagi siyoh darajasi quyi chiziqdan past bo'lgan holda printerdan uzoq foydalanish printerni shikastlashi mumkin. Qayta to'ldirishni unutmang.



Siz kompyuter orqali taxminiy siyoh darajasini tekshirishingiz mumkin.

Siyoh darajalarini tekshirish — Windows

1. Printer drayveri oynasiga kiring.
2. **Siyoh darajasi** panelidagi **Asosiy**-ni cherting.

   Eslatma:
   EPSON Status Monitor 3 *o'chirib qo'yilgan bo'lsa, siyoh darajalari ko'rsatilmaydi.* ***Texnik xizmat*** *oynasidagi* ***Kengaytirilgan sozlamalar*** *tugmasini bosib, keyin* ***EPSON Status Monitor 3 ni yoqish*** *bandini tanlang.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Siyoh darajalarini tekshirish — Mac OS X

1. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.
2. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.

3. **EPSON Status Monitor**-ni cherting.

Siyoh butilka kodlari

Epson haqiqiy Epson siyoh butilkalaridan foydalanishni tavsiya qiladi. Belgilangan siyohdan boshqa siyohdan foydalanish oqibatida, jumladan, ushbu printer uchun mo'ljallanmagan asl Epson siyohidan foydalanish oqibatida yuzaga kelgan zararlar Epson kafolati bilan qoplanmaydi.

Epson tomonidan ishlab chiqarilmagan mahsulotlar Epson kafolati bilan qamrab olinmaydigan zarar yetkazishga olib kelish va ma'lum holatlarda printerning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

Quyidagilar asl Epson siyoh butilkalari uchun kodlardir.

BK: Black (Qora)	C: Cyan (Zangori)	M: Magenta (Qirmizi)	Y: Yellow (Sariq)
664	664	664	664

Muhim:
Ko'rsatilganidan boshqa haqiqy Epson siyohidan foydalanish Epson kafolatlari bilan qamrab olinmaydigan zarar yetkazishga olib kelishi mumkin.

Eslatma:
Yevropalik foydalanuvchilar Epson siyoh idishlari to'g'risida ma'lumot olish uchun quyidagi veb-saytga tashrif buyurishi mumkin.

http://www.epson.eu/pageyield

Siyoh butilkalari bilan ishlashdagi ehtiyot choralari

Siyoh bilan to'ldirishdan avval quyidagi ko'rsatmalarni o'qib chiqing.

Muomala qilish ehtiyot choralari

- ❏ Bu printer uchun to'g'ri qism kodiga ega bo'lgan siyoh butilkalaridan foydalaning.
- ❏ Bu printer siyoh bilan ehtiyotkorona muomala qilishni talab qiladi. Baklar siyoh bilan to'ldirilganda yoki to'ldirilayotganda siyoh sachrab ketishi mumkin. Agar siyoh kiyimlaringizga yoki buyumlaringizga tegsa, u ketmasligi mumkin.
- ❏ Siyoh butilkalarini oddiy xona haroratida saqlang va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ta'siriga qo'ymang.
- ❏ Epson siyoh butilkalaridan qadog'ida ko'rsaatilgan sanadan avval foydalanishni tavsiya qiladi.
- ❏ Siyoh butilkalarini printer bilan bir xil sharoitlarda saqlang.
- ❏ Plombasini buzgandan keyin siyoh butilkasini saqlaganda yoki tashiganda butilkani quyshaytirmang va uni turli ta'sirlar yoki haroratdagi o'zgarishlar ostiga qo'ymang. Aks holda xattoki butilka qopqog'i mahkam yopilgan bo'lsa ham siyoh oqib ketishi mumkin. Qopqoqni qotirayotgan vaqtda siyoh butilkasini tik ushlang va butilkani tashiganda siyohning oqib ketishining oldini olish choralarini ko'ring.

- ❏ Siyoh butilkasini sovuq saqlash joyidan ichkariga keltirgandan keyin undan foydalanishdan avval uni xona haroratigacha isitish uchun kamida uch soat kuting.
- ❏ Siyoh bakini to'ldirishga tayyor bo'lmaguningizcha siyoh butilka qadog'ini ochmang. Uning ishonchliligini ta'minlash uchun siyoh butilkalari vakuumli ravishda qadoqlangan. Agar undan foydalanishdan avval siyoh butilkasini qadoqlanmagan holda uzoq vaqt qodlrisangiz, chop qilish me'yorida bo'lmasligi mumkin.
- ❏ Siyoh darajasi quyi chiziqdan past bo'lgan holda printerdan uzoq foydalanish printerni shikastlashi mumkin. Epson siyoh darajalarini qaytadan o'rnatish uchun printer ishlamayotgan vaqtda barcha siyoh idishlarini yuqori chiziqqacha to'ldirishni tavsiya qiladi.
- ❏ Chop qilishning oliy sifatini ta'minlash va chop qilish golovkasini himoya qilishda yordam berish uchun printer bakni to'ldirish kerakliguni ko'rsatganda o'zgaruvchan siyoh zahirasi bak ichida qoladi. Sizga keltirilgan ma'lumotlar bu zahirani o'z ichiga olmaydi.
- ❏ Garchi siyoh butilkalari qayta ishlangan materiallarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lsada, bu printer funksiyasi yoki uning ishlashiga ta'sir ko'rsatmaydi.
- ❏ Siyoh butilkalarining texnik xususiyatlari va ko'rinishi yaxshilash maqsadida avvaldan xabardor qilmagan holda o'zgartirilishi mumkin.
- ❏ Natija chop qilinayotgan rasmlar, ishlatilayotgan qog‘oz turi, chop qilish oralig‘i hamda harorat kabi tashqi muhit ta’sirlariga qarab farq qilishi mumkin.

Siyoh sarfi

- ❏ Chop qilish golovkasining optimal darajada ishlashini ta'minlash uchun barcha siyoh baklaridagi siyohlar nafaqat chop qilish davomida, balki texnik xizmat ko'rsatish, masalan, chop qilish golovkasini tozalaganda ham ishlatiladi.
- ❏ Monoxrom yoki kulrang shkala bilan chop qilishda qog‘oz turi yoki bosma sifati sozlamalariga qarab qora siyoh o‘rniga rangli siyohlar ishlatilishi mumkin. Chunki, qora rangni hosil qilish uchun rangli siyohlar aralashmasidan foydalaniladi.
- ❏ Printer bilan birga berilgan siyoh butilkalaridagi siyohdan dastlabki o'rnatish vaqtida qisman foydalaniladi. Yuqori sifatli chop qilishlarni ta'minlash maqsadida printerning chop qilish golovkasi siyoh bilan to'liq to'ldirib olinadi. Bu bir martalik jarayon ma'lum miqdordagi siyoh iste'mol qiladi va shuning uchun bu siyoh butilkalari keyingi siyoh butilkalariga qaraganda kamroq sahifaga yetishi mumkin.

Siyoh baklarini siyoh bilan to'ldirish

1. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
2. **Qarov** > **Siyoh darajasini qayta qo'yish**-ni tanlang.
3. ⓕ tugmasini bosing.

Siyoh to'ldirish

4. Siyoh baki qurilmasi qopqog'ini oching va keyin siyoh baki qopqog'ini oling. Qopqoqchani chiqarib tashlagach, uni quyida ko'rsatilganidek joylang.



Muhim:

- ❏ *Siyohni sachratib yubormaslik uchun ehtiyot bo'ling.*
- ❏ *Siyoh baki rangining to'ldirmoqchi bo'lgan siyoh rangi bilan bir xil ekanligiga ishonch hosil qiling.*



5. Qopqoqning uchini sindiring, siyoh butilkasi qopqog'ini oling, butilkadan plombani ko'chiring va keyin qopqoqni o'rnating.



Siyoh to'ldirish

Muhim:

Butilka qopqoqlarini mahkam yoping; aks holda siyoh oqib ketishi mumkin.



Eslatma:

Qopqoqning tepa qismini chiqitga chiqarmang. Agar bakni to'ldirgandan keyin siyoh butilkasida siyoh qolsa, siyoh butilkasi qopqog'ini polmbalash uchun qopqoqning yuqori qismidan foydalaning.

6. Siyoh bakini to'g'ri rangdagi siyoh bilan siyoh bakidagi yuqori chiziqqacha to'ldiring.



Muhim:

Siyoh idishining ichini ko'rish qiyin bo'lishi mumkin. Siyoh idishlarini qayta to'ldirishda ehtiyot bo'ling, siyoh kiradigan joydan oqib ketishi mumkin.

Eslatma:

Siyoh baki yuqori chiziqqacha to'ldirilgandan keyin siyoh butilkasida siyoh qolsa, qopqoqni ehtiyotlik bilan o'rnating va keyinchalik foydalanish uchun siyoh butilkasini tik holda saqlang.



Siyoh to'ldirish

7. Siyoh baki qopqog'ini mahkam yoping.



8. Siyoh baki qurilmasi qopqog'ini yoping.



9. OK tugmasini bosing.

10. Siyoh darajalarini qaytadan o'rnatish uchun LCD ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Eslatma:
Xattoki siyohni yuqori chiziqqacha to'ldirmagan bo'lsangiz ham siyoh darajalarini qaytadan o'rnatishingiz mumkin. Biroq printer bildirishnomanalrni hosil qila olmaydi va siyoh darajalari quyi chiziqdan pastga tushishidan avval ishlashdan to'xtaydi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Siyoh butilka kodlari” - 82-sahifada
➡ “Siyoh butilkalari bilan ishlashdagi ehtiyot choralari” - 82-sahifada

Chop qilish va skanerlash sifatini yaxshilash

Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash

Agar soplolar tiqilib qolgan bulsa, chop qilingan narsalarning rangi och bo'ladi, ko'zga ko'rinarli polosalar yoki kutilmagan ranglar paydo bo'ladi. Chop qilish sifati pasayganda soploni tekshirish funsksiyasidan foydalaning va soplolarning tiqilib qolmaganligini tekshiring. Agar soplolar tiqilib qolgan bulsa, chop qilish golovkasini tozalang.

> ***Muhim:***
> *Kallakni tozalash vaqtida skaner blokini ocha ko‘rmang yoki printerni o‘chira ko‘rmang. Agar kallakni tozalash tugallanmasa, chop qila olmay qolasiz.*

Eslatma:

- *Chop qilish kallagini tozalashda biroz siyoh ishlatiladi, shuning uchun uni faqat bosma sifati pasayganda tozalang.*
- *Siyoh darajasi past bo'lganda printer golovkasini tozalay olmasligingiz mumkin. Yangi siyoh butilkasini tayyorlang.*
- *Agar soploni tekshirish va chop qilish golovkasini tozalashni uch marta takrorlagandan keyin chop qilish sifati yaxshilanmasa, chopqilmasdan kamida 12 soat kuting va keyin soploni tekshirishni ishga tushiring va zarur hollarda golovkani tozalashni takrorlang. Printerni o'chirishni tavsiya qilamiz. Agar chop qilish sifati baribir yaxshilanmasa, Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.*
- *Chop qilish golovkasining qurib qolishining oldini olish uchun yoqilgan holda printerni rozetkadan uzmang.*
- *Chop qilish golovkasining eng yaxshi ishlashini saqlab qolish uchun muntazam ravishda bir nechta sahifani chop qilib turishi tavsiya qilamiz.*

Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash — Boshqaruv paneli

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
3. **Qarov** > **Kallak uchini tekshirish**-ni tanlang.
4. Soploni tekislash namunasini chop qilish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

   Eslatma:
   Sinov namunasi modelga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

5. Chop qilingan tekshirish namunasini quyida ko'rsatilgan namuna bilan solishtiring.
   - ❏ Barcha chiziqlar chop qilingan. Chop qilish golovkasi soplolari tiqilib qolmagan. Soploni tekshirish xususiyatini yoping.



   - ❏ Uzilgan chiziqlar yoki yo'qolgan segmentlar mavjud. Chop qilish golovkasi soplolari tiqilib qolgan bo'lishi mumkin. Keyingiz qadamga o'ting.



6. Chop qilish golovkasini tozalash uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.
7. Tozalash nihoyasiga yetgandan keyin yana soploni tekshirish namunasini chop qiling. Barcha chiziqlar to'liq chop qilingunicha tozalash va chop qilishni takrorlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash — Windows

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. Printer drayveri oynasiga kiring.
3. **Uchlikni tekshirish** panelidagi **Texnik xizmat**-ni cherting.
4. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash — Mac OS X

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.

2. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.
3. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.
4. **Uchlikni tekshirish**-ni cherting.
5. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Siyoh naychalari ichidagi siyohni almashtirish

Agar printerdan uzoq vaqt davomida foydalanmasangiz hamda bosmalarda yetishmayotgan ranglarni sezsangiz, bu muammoni hal qilish uchun siyoh naychalari ichidagi siyohni almashtirishga to‘g‘ri kelishi mumkin. **Siyohni kuchli sepish** xizmat dasturi siyoh naychalari ichidagi barcha siyohni almashtirish imkonini beradi.

Muhim:

- *Bu funksiya juda ko'p siyohdan foydalanadi. Bu funksiyadan foydalanishdan avval printerning siyoh baklarida siyohning yetarli ekanligiga ishonch hosil qiling. Agar siyoh yetarli bo'lmasa, siyoh baklarini to'ldiring.*
- *Ushbu funksiya muhr yostiqchasining xizmat muddatiga ta’sir ko'rsatadi. Agar ushbu funksiya ishlatilsa, muhr yostiqchasi o‘zining xizmat muddatiga ertaroq yetib boradi. Muhr yostiqchasining xizmat muddati tugashidan oldin uni almashtirish uchun Epson yoki vakolatli Epson xizmat ta’minotchisiga murojaat qiling. Uni foydalanuvchining o‘zi almashtirmasligi lozim.*
- *Siyohni kuchli sepish yordamchi dasturidan foydalangandan keyin printerni o'chiring va kamida 12 soat kuting. Bu funksiyadan foydalanish chop qilish sifatini 12 soatdan keyin yaxshilaydi, biroq undan so'nggi foydalanishdan keyingi 12 soat davomida foydalanib bo'lmaydi. Agar yuqoridagi usullarning barchasini sinab ko'rgandan keyin ham muammoni hal qilib bo'lmasa, Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.*

Siyoh trubkalari ichidagi siyohni almashtirish — Windows

1. Printer drayveri oynasiga kiring.
2. **Siyohni kuchli sepish** panelidagi **Texnik xizmat**-ni cherting.
3. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Siyoh trubkalari ichidagi siyohni almashtirish — Mac OS X

1. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.
2. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.
3. **Siyohni kuchli sepish**-ni cherting.
4. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Chop qilish golovkasini tekislash

Agar vertikal chiziqlarning tekislanmaganligini yoki chaplangan tasvirlarni payqasangiz, chop qilish golovkasini tekislang.

Chop qilish golovkasini tekislash — Boshqaruv paneli

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
3. **Qarov** > **Chop etish kallagini tekislash**-ni tanlang.
4. Tekislash namunasini chop qilish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.
5. Chop qilish golovkasini tekislash uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling. Har bir guruhdagi eng zich namuna uchun raqamni toping va kiriting.



Eslatma:

- *Sinov namunasi modelga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.*
- *Agar chop qilish sifati yaxshilanmasa, chop qilish golovkasini kompyuterdan tekislang.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Chop qilish golovkasini tekislash — Windows

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. Printer drayveri oynasiga kiring.
3. **Texnik xizmat** panelidagi **Kallakni tekislash**-ni cherting.
4. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada
➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Chop qilish golovkasini tekislash — Mac OS X

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.
3. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.
4. **Print Head Alignment**-ni cherting.
5. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Qog'oz yo'lidagi siyoh dog'larini tozalash

Chop qilingan qog'ozlar kirlangan yoki o'chgan joylarga ega bo'lganda printer ichidagi barabanni tozalang.

> ***Muhim:***
> *Printer ichini tozalash uchun salfetka qog'ozdan foydalanmang. Chop qilish golovkasi soplolariga titilgan iplar tiqilib qolgan bo'lishi mumkin.*

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
3. **Qarov** > **Rostlagichni tozalash**-ni tanlang.

4. Qog'oz o'tish yo'lini tozalash uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

   Eslatma:
   Bu jarayonni qog'oz siyoh bilan kirlanmaydigan bo'lgunicha davom ettiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

ADF-ni tozalash

ADF-dagi nusxa olingan yoki skanerlangan tasvirlar kirlanganda yoki asl nusxalar ADF-ga to'g'ri uzatilmaganda ADF-ni tozalang.

> ***Muhim:***
> *Printerni tozalash uchun spirt yoki erituvchilardan foydalanmang. Bu kimyoviy moddalar printerni shikastlashi mumkin.*

1. ADF qopqog'ini oching.



2. Baraban va ADF ichki qismlarini tozalash uchun yumshoq, quruq, toza lattadan foydalaning.



3. Hujjat qopqog'ini oching.



4. Rasmda ko'rsatilgan qismni tozalang.



Eslatma:

- ❏ *Agar shisha yuza yog' yoki boshqa ketkazish qiyin bo'lgan material bilan ifloslangan bo'lsa, uni ketkazish uchun oz miqdorda shisha tozalagich va yumshoq lattadan foydalaning. Qolgan barcha suyuqlikni artib tashlang.*
- ❏ *Shisha yuzani xaddan tashqari qattiq bosmang.*
- ❏ *Shisha yuzasini tirnab qo'ymaslik yoki shikastlamaslik uchun ehtiyot bo'ling. Shikastlangan shisha yuzasi skanerlash sifatini pasaytirishi mumkin.*

Skaner Oynasi-ni tozalash

Ko'chirilgan nusxalar yoki skanerlangan tasvirlar kirlansa yoki o'chib ketsa, skaner oynasi-ni tozalang.

> ⚠ ***Diqqat:***
>
> *Hujjat qopqog'ini ochganda yoki yopganda qo'llaringiz yoki barmoqlaringizni qisib olmaslik uchun ehtiyot bo'ling. Aks holda jarohat olishingiz mumkin.*

Chop qilish va skanerlash sifatini yaxshilash

Muhim:

Printerni tozalash uchun spirt yoki erituvchilardan foydalanmang. Bu kimyoviy moddalar printerni shikastlashi mumkin.

1. Hujjat qopqog'ini oching.



2. Baraban va skaner oynasi yuzasini tozalash uchun yumshoq, quruq, toza lattadan foydalaning.

Eslatma:

- *Agar shisha yuza yog' yoki boshqa ketkazish qiyin bo'lgan material bilan ifloslangan bo'lsa, uni ketkazish uchun oz miqdorda shisha tozalagich va yumshoq lattadan foydalaning. Qolgan barcha suyuqlikni artib tashlang.*
- *Shisha yuzani xaddan tashqari qattiq bosmang.*
- *Shisha yuzasini tirnab qo'ymaslik yoki shikastlamaslik uchun ehtiyot bo'ling. Shikastlangan shisha yuzasi skanerlash sifatini pasaytirishi mumkin.*

Tarmoq xizmati va dasturiy ta'minot haqida ma'lumot

Ushbu bo'limda tarmoq xizmatlari va printeringiz uchun Epson veb-sayti yoki jihoz bilan birga kelgan CD-diskda mavjud dasturiy ta'minot mahsulotlari haqida ma'lumot olasiz.

Epson Connect xizmati

Internetda mavjud bo'lgan Epson Connect xizmatidan foydalanish orqali smartfon, planshet yoki noutbukdan turib istalgan vaqtda va deyarli istalgan joyda chop qilish mumkin.

Internetda foydalanish mumkin bo'lgan xususiyatlar quyidagilardir.

Email Print	Epson iPrint masofaviy printeri	Scan to Cloud	Remote Print Driver
✓	✓	✓	✓

Batafsil ma'lumotlar olish uchun Epson Connect portali veb-saytiga qarang.

https://www.epsonconnect.com/

http://www.epsonconnect.eu (Faqat Yevropa)

Web Config

Web Config kompyuterda yoki smart qurilmada Internet Explorer va Chrome veb-brauzerni ishga tushiruvchi dasturdir. Printer holartini tasdiqlashingiz yoki tarmoq xizmati va printer parametrlarini o'zgartirishingiz mumkin. Web Config-dan foydalanish uchun printer va kompyuter yoki qurilmani bitta tarmoqqa ulang.

Eslatma:
Quyidagi brauzerlar qo'llab-quvvatlanadi.

OT	Brauzer
Windows XP yoki keyingi versiyalari	Internet Explorer 8 yoki keyingi versiyalari, Firefox*, Chrome*
Mac OS X v10.6.8 yoki keyingi versiyalari	Safari*, Firefox*, Chrome*
iOS*	Safari*
Android 2.3 yoki keyingi versiyalari	Standart brauzer
Chrome OS*	Standart brauzer

*: Eng so'nggi versiyadan foydalaning.

Web Config-ni veb-brauzerda ishga tushirish

1. Printerning IP-manzilini tekshiring.

   Bosh ekranda **Sozlash** > **Tarmoq sozlamalari** > **Tarmoq holati** > **Simli LAN/Wi-Fi holati** yoki **Wi-Fi holati**-ni tanlang va keyin printerning IP-manzilini tekshiring.

2. Kompyuterda yoki smart qurilmada veb-brauzerni ishga tushiring va keyin printerning IP-manzilini kiriting.

   Formati:

   IPv4: http://printerning IP-manzili/

   IPv6: http://[printerning IP-manzili]/

   Misollar:

   IPv4: http://192.168.100.201/

   IPv6: http://[2001:db8::1000:1]/

   Eslatma:
   Smart qurilmadan foydalangan holda Web Config-ni Epson iPrint-ning texnik xizmat ko'rsatish ekranidan ishga tushirishingiz ham mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Epson iPrint-dan foydalanish” - 52-sahifada

Web Config faylini Windows orqali ochish

Agar kompyuterni printerga WSD orqali ulayotgan bo‘lsangiz, veb-konfigurator faylini ochish uchun quyidagi amallarni bajaring.

1. Windows platformasining qurilma va printerlar ekraniga kiring.
   - ❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012

     Ish stoli > **Sozlamalar** > **Boshqaruv paneli**ga kirib, **Apparat va ovoz** (yoki **Apparat**) bo‘limidan **Qurilma va printerlarni ko‘rish** bandini tanlang.
   - ❏ Windows 7/Windows Server 2008 R2

     Windows tugmasini bosib, **Boshqaruv paneli**ga kiring va **Apparat va ovoz** bo‘limidan **Qurilma va printerlarni ko‘rish** bandini tanlang.
   - ❏ Windows Vista/Windows Server 2008

     Windows tugmasini bosib, **Boshqaruv paneli**ga kiring va **Apparat va ovoz** bo‘limidan **Printerlar** bandini tanlang.

2. Printeringiz nomi ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bosing va **Xususiyatlar** bandini tanlang.

3. **Veb-xizmat** darchasini tanlang va URL ustiga bosing.

Web Config-ni Mac OS X-da ishga tushirish

1. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.

2. **Opsiyalar va ta'minotchilar**> **Printer veb-sahifasini ko'rsatish**-ga cherting.

Windows Printer drayveri

Printer drayveri dasturdan olingan buyruqlarga ko'ra printerni boshqaradi. Printer drayveridagi parametrlarni sozlash eng yaxshi chop qilish sifati bilan ta'minlaydi. Yana printer drayveri yordamchi dasturidan foydalangan holda printer holatini tekshirish yoki eni eng yaxshi ishlash holatida saqlash ham mumkin.

Eslatma:
Printer drayveri tilini o'zgartirishingiz mumkin. ***Texnik xizmat*** *panelidagi* ***Til*** *parametrida o'zingiz foydalanmoqqchi bo'lgan tilni tanlang.*

Dasturlardan printer drayveriga kirish

Faqat o'zingiz foydalanayotgan dasturga qo'llaniladigan parametrlarni o'rnatish uchun o'sha dasturdan kiring.

Fayl menyusidan **Chop qilish** yoki **Chop qilishni o'rnatish**-ni tanlang. Printerni tanlang va keyin **Afzalliklar** yoki **Xususiyatlar**-ni cherting.

Eslatma:
Ishlashi dasturga bog'liq ravishda farq qiladi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Boshqaruv panelidan printer drayveriga kirish

Barcha dasturlarga qo'llaniladigan parametrlarni o'rnatish uchun boshqaruv panelidan kiring.

❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012

Apparat vositalar va tovush-da **Ish stoli** > **Sozlanmalar** > **Boshqaruv paneli** > **Qurilmalar va printerlarni ko'rish**-ni tanlang. Printerga o'ng tugmani bosing yoki uni bosing va ushlab turing va keyin **Chop qilish afzalliklari**-ni tanlang.

❏ Windows 7/Windows Server 2008 R2

Start tugmasini cherting va **Apparat vositalar va tovush**-da **Boshqaruv paneli** > **Qurilmalar va printerlarni ko'rish**-ni tanlang. Printerga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va **Chop qilish afzalliklari**-ni tanlang.

❏ Windows Vista/Windows Server 2008

Start tugmasini cherting va **Apparat vositalar va tovush**-da **Boshqaruv paneli** > **Printerlar**-ni tanlang. Printerga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va **Chop qilish afzalliklarini tanlash**-ni tanlang.

❏ Windows XP/Windows Server 2003 R2/Windows Server 2003

Start tugmasini cherting va **Boshqaruv paneli** > **Printerlar va boshqa apparat vositalar** > **Printerlar va fakslar**-ni tanlang. Printerga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va **Chop qilish afzalliklari**-ni tanlang.

Yordamchi dasturni ishga tushirish

Printer drayveri oynasiga kiring. **Texnik xizmat** panelini cherting.

Windows printer drayveri uchun parametrlarni cheklash

Boshqa foydalanuvchilar ularni o'zgartira olmasliklar uchun printer drayveri parametrlaridan ayrimlarini qulflab qo'yish mumkin.

Eslatma:
Kompyuteringizga ma'mur sifatida kiring.

1. Printer xususiyatlarida **Ixtiyoriy sozlamalar** panelini oching.
   - ❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012

     Apparat vositalar va tovush-da **Ish stoli** > **Sozlanmalar** > **Boshqaruv paneli** > **Qurilmalar va printerlarni ko'rish**-ni tanlang. Printerga o'ng tugmani bosing yoki uni bosing va ushlab turing va keyin **Printer xususiyatlari**-ni tanlang. **Ixtiyoriy sozlamalar** panelini cherting.
   - ❏ Windows 7/Windows Server 2008 R2

     Start tugmasini cherting va **Apparat vositalar va tovush**-da **Boshqaruv paneli** > **Qurilmalar va printerlarni ko'rish**-ni tanlang. Printerga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va keyin **Printer xususiyatlari**-ni tanlang. **Ixtiyoriy sozlamalar** panelini cherting.
   - ❏ Windows Vista/Windows Server 2008

     Start tugmasini cherting va **Apparat vositalar va tovush**-da **Boshqaruv paneli** > **Printerlar**-ni tanlang. Printerga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va keyin **Xususiyatlar**-ni tanlang. **Ixtiyoriy sozlamalar** panelini cherting.
   - ❏ Windows XP/Windows Server 2003 R2/Windows Server 2003

     Start tugmasini cherting va **Boshqaruv paneli** > **Printerlar va boshqa apparat vositalar** > **Printerlar va fakslar**-ni tanlang. Printerga sichqonchaning o'ng tugmasini bosing va keyin **Xususiyatlar**-ni tanlang. **Ixtiyoriy sozlamalar** panelini cherting.
2. **Drayver sozlamalari**-ni cherting.
3. O'zingiz cheklamoqchi bo'lgan xususiyatni tanlang.

   Elementlarni o'rnatish tushuntirishlarini olish uchun onlayn yordamga qarang.
4. **OK**-ni cherting.

Windows printer drayveri uchun ishlatish parametrlarini o'rnatish

Siz **EPSON Status Monitor 3**-ni yoqish kabi parametrlarni o'rnatishingiz mumkin.

1. Printer drayveri oynasiga kiring.
2. **Kengaytirilgan sozlamalar** panelidagi **Texnik xizmat**-ni cherting.
3. Tegishli parametrlarni o'rnating va keyin **OK**-ni cherting.

   Elementlarni o'rnatish tushuntirishlarini olish uchun onlayn yordamga qarang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Mac OS X Printer drayveri

Printer drayveri dasturdan olingan buyruqlarga ko'ra printerni boshqaradi. Printer drayveridagi parametrlarni sozlash eng yaxshi chop qilish sifati bilan ta'minlaydi. Yana printer drayveri yordamchi dasturidan foydalangan holda printer holatini tekshirish yoki eni eng yaxshi ishlash holatida saqlash ham mumkin.

Dasturlardan printer drayveriga kirish

Dasturning **Fayl** menyusidagi **Qog'ozni sozlash** yoki **Chop qilish** ustiga bosing. Zarur bo'lgan hollarda chop qilish oynasini kengaytirish uchun **Tafsilotlarni ko'rsatish**-ga (yoki ▼-ga) cherting.

Eslatma:
*Ishlatilayotgan dasturga qarab **Qog'ozni sozlash** bandi **Fayl** menyusida ko'rinmasligi mumkin hamda chop qilish ekranini ko'rsatish amali ham boshqacha bo'lishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.*

Yordamchi dasturni ishga tushirish

menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.

Mac OS X printer drayveri uchun ishlash rejimi sozlamalari

Mac OS X printer drayverining ishlash rejimi sozlamalari oynasiga kirish

menyusidan **Tizim sozlamalari** > **Printer va skanerlar** (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**) buyruqlar ketma-ketligini tanlab, keyin u yerdan printerni tanlang. **Tanlamalar va sarf materiallari** > **Tanlamalar** (yoki **Drayver**) buyruqlar ketma-ketligini tanlang.

Mac OS X printer drayveri uchun ishlash rejimi sozlamalari

- ❏ Bo'sh sahifani tashlab ket: Bo‘sh sahifalarni chop qilishning oldini oladi.
- ❏ Sokin rejim: Sokin rejimda chop qiladi. Shunday bo‘lsa-da, chop qilish tezligi pastroq bo‘ladi.
- ❏ High Speed Printing: Chop qilish kallagi har ikkala yo‘nalishda harakatlanayotganda chop qiladi. Chop qilish tezligi yuqori bo‘ladi, biroq bosma sifati pasayishi mumkin.
- ❏ Warning Notifications: Printer drayveriga ogohlantiruvchi bildirishnomalarni ko‘rsatish uchun ruxsat beradi.
- ❏ Establish bidirectional communication: Odatda buni **On**-ga o'rnatish kerak. Printer **Off** kompyuterlari o'rtasida tarmoqda baham ko'rilganligi yoki boshqa har qanday sabab tufayli printer ma'lumotlarini olish mumkin bo'lmaganda Windows-ni tanlang.

EPSON Scan (Skaner drayveri)

EPSON Scan skanerlashni boshqarish uchun dasturdir. Skaner qilinayotgan tasvir o'lchami, tasvir aniqligi, ravshanlik, kontrast va skaner qilish sifatini sozlash mumkin.

Eslatma:
Siz TWAIN-ga mos skanerlash dasturidan EPSON Scan-ni ishga tushirishingiz ham mumkin.

Windows-da ishga tushirish

Eslatma:
*Windows Server operatsion tizimlari uchun **Ish stoli tajribasi** xususiyati o'rnatilishi kerak.*

❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012

Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012-dan tashqari

Start tugmasini cherting va **Barcha dasturlar** or **Dasturlar** > **EPSON** > **EPSON Scan** > **EPSON Scan**-ni tanlang.

Mac OS X-da ishga tushirish

Eslatma:
EPSON Scan Mac OS X-ning foydalanuvchini tez almashtirish funksiyasini qo'llab-quvvatlamaydi. Foydalanuvchini tez almashtirish funskiyasini o'chirib qo'ying.

O'tish > **Dasturlar** > **Epson Software** > **EPSON Scan**-ni tanlang.

Epson Event Manager

Epson Event Manager boshqaruv panelidan skanerlashni boshqarish va tasvirlarni kompyuterga saqlashga imkon beruvchi dasturdir. Hujjat turi, saqlash papkasi joylashgan joy va tasvir formati kabi o'z parametrlaringizni dastlabki o'rnatilganlar sifatida qo'shishingiz mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Eslatma:
Windows Server operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlanmaydi.

Windows-da ishga tushirish

❏ Windows 8.1/Windows 8

Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

❏ Windows 7/Windows Vista/Windows XP

Start tugmasini cherting va **Barcha dasturlar** yoki **Dasturlar** > **Epson Software** > **Event Manager**-ni tanlang.

Mac OS X-da ishga tushirish

O'tish > **Dasturlar** > **Epson Software** > **Event Manager**-ni tanlang.

PC-FAX Drayveri (Faks drayveri)

PC-FAX drayveri alohida dasturda yaratilgan hujjatni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterdan faks sifatida yuborishga imkon beruvchi dasturdir. FAX yordamchi dasturi o'rnatilganda PC-FAX drayveri o'rnatiladi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Eslatma:
- *Windows Server operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlanmaydi.*
- *Hujjat yaratilgan dasturga bog'liq ravishda ishlashi farq qiladi. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.*

Windows-dan kirish

Dasturdagi **Fayl** menyusidan **Chop qilish** yoki **Chop qilishni o'rnatish**-ni tanlang. Printerni (FAX) tanlang va keyin **Afzalliklar** yoki **Xususiyatlar**-ni cherting.

Mac OS X-dan kirish

Dasturdagi **Fayl** menyusidan **Chop qilish**-ni tanlang. Printerni (FAX) **Printer** parametri sifatida tanlang va keyin suzib chiquvchi menyudan **Fax Settings** yoki **Recipient Settings**-ni tanlang.

FAX Utility

FAX Utility kompyuterdan faks yuborish uchun turli parametrlarni sozlashga imkon beruvchi dasturdir. Faks yuborishda foydalaniladigan kontaktlar ro'yxatini yaratishingiz yoki tahrirlashingiz, olingan fakslarni kompyuterda PDF formatida saqlaydigan tarzda sozlashingiz va boshqa shunga o'xshash narsalarni qilishingiz mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Eslatma:
- *Windows Server operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlanmaydi.*
- *FAX Utility-ni o'rnatishdan avval printer drayverining o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.*

Windows-da ishga tushirish

- Windows 8.1/Windows 8

  Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

- Windows 7/Windows Vista/Windows XP

  Start tugmasini cherting va **Barcha dasturlar** (yoki **Dasturlar**) > **Epson Software** > **FAX Utility**-ni tanlang.

Mac OS X-da ishga tushirish

menyu > **Printerlar va skanerlar** (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**)-da **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin namoyish qilingan printerni (FAKS) tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.

Epson Easy Photo Print

Epson Easy Photo Print fotosuratlarni turli qoliplarda osongina chop qilishga imkon beruvchi dasturdir. Fotosuratdagi tasvirlarni ko'rib chiqish va tasvirlar yoki ularning holatini o'zgartirish mumkin. Fotosuratlarni yana hoshiyalar bilan ham chop qilish mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang.

Eslatma:
- *Windows Server operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlanmaydi.*
- *Bu dasturdan foydalanish uchun printer drayveri o'rnatilgan bo'lishi kerak.*

Windows-da ishga tushirish

❏ Windows 8.1/Windows 8

Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

❏ Windows 7/Windows Vista/Windows XP

Start tugmasini cherting va keyin **Barcha dasturlar** yoki **Dasturlar** > **Epson Software** > **Epson Easy Photo Print**-ni tanlang.

Mac OS X-da ishga tushirish

O'tish > **Dasturlar** > **Epson Software** > **Epson Easy Photo Print**-ni tanlang.

E-Web Print (faqat Windows uchun)

E-Web Print veb-sahifalarni turli qoliplarda osongina chop qilishga imkon beruvchi dasturdir. Batafsil ma'lumotlar olish uchun dastur yordamiga qarang. Siz yordamga **E-Web Print** vositalar panelidagi **E-Web Print** menyusidan kirishingiz mumkin.

Eslatma:
Windows Server operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlanmaydi.

Ishga tushirish

E-Web Print o'rnatilganda u brauzerda namoyish qilinadi. **Print** yoki **Clip**-ni cherting.

EPSON Software Updater

EPSON Software Updater internetda yangi yoki yangilangan dasturiy ta'minotni qidiruvchi va uni o'rnatuvchi dasturdir. Siz printerning mikrodasturi va qo'llanmasini yangilashingiz mumkin.

Eslatma:
Windows Server operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlanmaydi.

Windows-da ishga tushirish

❏ Windows 8.1/Windows 8

Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

❏ Windows 7/Windows Vista/Windows XP

Start tugmasini cherting va **Barcha dasturlar** (yoki **Dasturlar**) > **Epson Software** > **EPSON Software Updater**-ni tanlang.

Mac OS X-da ishga tushirish

O'tish > **Dasturlar** > **Epson Software** > **EPSON Software Updater**-ni tanlang.

EpsonNet Config

EpsonNet Config tarmoq interfeysi manzillari va protokollarini o'rnatishga imkon beruvchi dasturdir. Batafsil ma'lumotlar olish uchun EpsonNet Config ishlatish yo'riqnomasi yoki dastur yordamiga qarang.

Windows-da ishga tushirish

❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012

Qidirish qatoriga dastur nomini yozing va keyin namoyish qilingan tasvirchani tanlang.

❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012-dan tashqari

Start tugmasini cherting va **Barcha dasturlar** (yoki **Dasturlar**) > **EpsonNet** > **EpsonNet Config V4** > **EpsonNet Config**-ni tanlang.

Mac OS X-da ishga tushirish

O'tish > **Dasturlar** > **Epson Software** > **EpsonNet** > **EpsonNet Config V4** > **EpsonNet Config**-ni tanlang.

Dasturlarni o'chirish

Eslatma:
Kompyuteringizga ma'mur sifatida kiring. Kompyuter sho'rasa, ma'mur parolini kiriting.

Dasturlarni o'chirish — Windows

1. Printerni o'chirish uchun ⏻ tugmasini bosing.
2. Barcha ishlayotgan dasturlardan chiqing.
3. **Boshqaruv paneli**-ni oching:
   - ❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012

     Ish stoli > **Sozlanmalar** > **Boshqaruv paneli**-ni tanlang.
   - ❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012-dan tashqari

     Start tugmasini bosing va keyin **Boshqaruv paneli**-ni tanlang.
4. **Dasturni o'chirish**-ni (yoki **Dasturlarni qo'shish yoki olib tashlash**-ni) oching:
   - ❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows 7/Windows Vista/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012/Windows Server 2008 R2/Windows Server 2008

     Dasturlari-da **Dasturni o'chirish**-ni tanlang.
   - ❏ Windows XP/Windows Server 2003 R2/Windows Server 2003

     Dasturlarni qo'shish yoki olib tashlash-ni cherting.
5. O'zingiz o'chirmoqchi bo'lgan dasturni tanlang.
6. Dasturlarni o'chiring:
   - ❏ Windows 8.1/Windows 8/Windows 7/Windows Vista/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012/Windows Server 2008 R2/Windows Server 2008

     O'chirish/O'zgartirish yoki **O'chirish**-ni cherting.
   - ❏ Windows XP/Windows Server 2003 R2/Windows Server 2003

     O'chirish/Olib tashlash yoki **Olib tashlash**-ni cherting.

Eslatma:
Goydalanuvchi hisob qaydnomasini boshqarish *oynasi namoyish qilinsa,* ***Davom ettirish****-ni cherting.*

7. Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Dasturlarni o'chirish — Mac OS X

1. EPSON Software Updater-dan foydalanib Uninstaller-ni yuklab oling.

   Uninstaller-yuklab olganingizdan keyin har safar dasturni o'chirganingizda uni yuklab olishingiz shart emas.

2. Printerni o'chirish uchun ⏻ tugmasini bosing.

3. Printer drayverini yoki PC-FAX drayverini ochirish uchun menyu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni yoqilgan printerlar ro'yxatidan olib tashlang.

4. Barcha ishlayotgan dasturlardan chiqing.

5. **O'tish** > **Dasturlar** > **Epson Software** > **Uninstaller**-ni tanlang.

6. O'zingiz o'chirmoqchi bo'lgan dasturni tanlang va keyin **Uninstall**-ni cherting.

   > ***Muhim:***
   > *Uninstaller Epson oqimli printerlari uchun barcha drayverlarni kompyuterdan o'chiradi. Agar siz bir nechta Epson oqimli printerlaridan foydalansangiz va ayrim drayverlarni o'chirishni xohlamasangiz, avval ularning hammasini o'chiring va keyin kerakli printer drayverini qayta o'rnating.*

   Eslatma:
   Agar o'chirmoqchi bo'lgan dasturni dasturlar ro'yxatidan topa olmasangiz, uni Uninstaller-dan foydalanib o'chira olmaysiz. Bunday hollarda ***O'tish*** *>* ***Dasturlar*** *>* ***Epson Software****-ni tanlang, o'chirmoqchi bo'lgan dasturni tanlang va keyin uni axlat savatchasiga sudrang.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “EPSON Software Updater” - 102-sahifada

Dasturlarni o'rnatish

Kompyuteringizni tarmoqqa ulang va dasturiy ilovalarning eng so'nggi versiyasini veb-saytdan yuklab oling.

Eslatma:
❏ *Kompyuteringizga ma'mur sifatida kiring. Kompyuter sho'rasa, ma'mur parolini kiriting.*

❏ *Dasturni qaytadan o'rnatish uchun avval dasturni o'chirishingiz kerak.*

1. Barcha ishlayotgan dasturlardan chiqing.

2. Printer drayveri yoki EPSON Scan-ni o'rnatganda printerni kompyuterdan vaqtinchalik uzib qo'ying.

   Eslatma:
   Sizga shunday qilish to'g'risida ko'rsatma berilmagunicha printerni kompyuterga ulamang.

3. Dasturlarni quyidagi veb-saytda berilgan ko'rsatmalarga amal qilgan holda o'rnating.

   http://epson.sn

   Eslatma:
   Agar Windows asosida ishlovchi kompyuterdan foydalanayotgan bo'lsangiz hamda veb-saytdan dasturlarni yuklay olmasangiz, ularni printer bilan birga berilgan dasturiy ta'minot diskidan o'rnating.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Dasturlarni o'chirish” - 103-sahifada

Dasturlar va mikrodasturlarni yangilash

Dasturlar va mikrodasturlarni yangilash orqali ma'lum muammolarni hal qilishingiz va funksiyalarni yaxshilashingiz yoki qo'shishingiz mumkin. Dasturlar va mikrodasturlarning eng so'nggi versiyasidan foydalanayotganligingizga ishonch hosil qiling.

1. Printerning kompyuterga ulanganligiga va kompyuterning internetga ulanganligiga ishonch hosil qiling.

2. EPSON Software Updater-ni ishga tushiring va dasturlar yoki mikrodasturlarni yangilang.

   > ***Muhim:***
   > *Yangilash vaqtida kompyuter yoki printerni o'chirmang.*

   Eslatma:
   Agar yangilamoqchi bo'lgan dasturni ro'yxatdan topa olmasangiz, uni EPSON Software Updater-dan foydalanib yangilay olmaysiz. Mahaliiy Epson veb-saytidan dasturlarning eng so'nggi versiyalarini tekshiring.

   http://www.epson.com

Aloqador ma’lumotlar

➡ “EPSON Software Updater” - 102-sahifada

Muammolarni hal qilish

Printer holatini tekshirish

LCD ekranda xabarlarni tekshirish

Agar LCD ekranda xatolik to'g'risida xabar namoyish qilinsa, muammoni hal qilish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga yoki quyidagi yechimlarga amal qiling.

Xatolik to'g'risidagi xabarlar	Yechimlar
Printer xatosi 0xXX Printerni o'chirib yoqing. Tafsilotlar uchun qo'llanmaga qarang.	Printerdan har qanday qog'oz yoki himoya materialini olib tashlang. Quvvat o'chirlganidan va qayta yoqilganidan keyin ham xatolik xabari yana namoyish qilinsa, Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.
Printerning chiqindi siyoh yutgich yostiqchasi xizmat muddati tugamoqda. Epson Support bilan bog'laning.	Muhr yostiqchasini almashtirish uchun Epson yoki vakolatli Epson xizmati ta’minotchisiga murojaat qiling.* Uni foydalanuvchining o‘zi almashtirmasligi lozim. Xabar muhr yostiqchasi almashtirilguncha ko‘rinib turadi. Chop qilishni qayta tiklash uchun ◇ tugmasini bosing.
Printerning chiqindi siyoh yutgich yostiqchasi xizmat muddati tugagan. Epson Support bilan bog'laning.	Muhr yostiqchasini almashtirish uchun Epson yoki vakolatli Epson xizmati ta’minotchisiga murojaat qiling.* Uni foydalanuvchining o‘zi almashtirmasligi lozim.
Aloqa xatosi. Kompyuter ulanganini tekshiring.	Kompyuter va printerni to'g'ri ulang. Agar tarmoq orqali ulayotgan bo'lsangiz, *Tarmoq bo'yicha qo'llanma*-ga qarang. Agar xatolik to'g'risidagi xabar baribir namoyish qilinsa, EPSON Scan va Epson Event Manager-ning kompyuterga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
IP manzili va subtarmoq maskasi yaroqsiz. To'g'ri kiriting. Qo'llanmani ko'ring.	*Tarmoq bo'yicha qo'llanma*-ga qarang.
Gudok aniqlanmadi.	Bu muammoni **Sozlash** > **Faks sozlamalari** > **Asosiy sozlamalar** > **Liniya turi**-ni va keyin **PBX**-ni tanlash orqali hal qilish mumkin bo'lishi mumkin. Agar telefon tizimingiz tashiq liniyaga chiqish uchun tashqi kirish kodini talab qilsa, **PBX**-ni tanlagandan keyin tashqi kirish kodini o'rnating. Tashqi faks raqamini kiritishda haqiqiy kirish kodining o'rniga # (xesh) belgisidan foydalaning. Bu ulanishni yanada xavsizroq qiladi. Agar xatolik xabari baribir namoyish qilinsa, **Gudokni aniqlash** parametrlarini o'chirishga o'rnating. Biroq bu xusisiyatning o'chirib qo'yilishi faks raqamining birinchi belgisining tushirib qoldirilishiga va noto'g'ri raqamga faks yuborilishiga olib kelishi mumkin.

Xatolik to'g'risidagi xabarlar	Yechimlar
Recovery Mode	Mikrodastur yangilanishi xatolikka uchraganligi tufayli printer qayta tiklash rejimini ishga tushirdi. Mikrodastur yangilanishiga qaytadan urinish uchun quyidagi qadamlarga amal qiling. 1. Kompyuter va printerni USB kabeli bilan ulang. (Qayta tiklash rejimida mikrodasturni tarmoq ulanishi orqali yangilay olmaysiz.) 2. Batfsil ko'rsatmalar olish uchun mahalliy Epson veb-saytiga tashrif buyuring.

* Bir nechta chop qilish davridan so‘ng muhr yostiqchasida judayam oz miqdorda ortiqcha siyoh to‘planib qolishi mumkin. Yostiqchadan siyoh oqishining oldini olish maqsadida muhr yostiqchasi o‘z xizmat chegarasiga yetgach, printer chop qilishdan to‘xtaydi. Bu narsaga qachon zarurat tug‘ilishi chop qilingan sahifalar soni, chop qilingan material turi va printer bajaradigan tozalash bosqichlari soniga qarab farq qiladi. Yostiqchani almashtirish zaruratining paydo bo‘lishi printeringiz endi o‘z texnik ko‘rsatkichlariga muvofiq ishlamasligini bildirmaydi. Printer yostiqchani qachon almashtirish zarurligi haqida ogohlantiradi. Buni faqat vakolatli Epson xizmati ta’minotchisi bajarishi lozim. Epson kafolati uni almashtirishni o‘z ichiga olmaydi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish” - 141-sahifada

➡ “Dasturlarni o'rnatish” - 104-sahifada

➡ “Dasturlar va mikrodasturlarni yangilash” - 105-sahifada

Printer holatini tekshirish — Windows

1. Printer drayveri oynasiga kiring.
2. **EPSON Status Monitor 3** panelidagi **Texnik xizmat**-ni cherting.

   Eslatma:
   - ❏ *Siz yana vazifalar panelidagi printer tasvirchasini ikki marta chertish orqali ham printer holatini tekshirishingiz mumkin. Agar printer tasvirchasi vazifalar paneliga qo'shilmagan bo'lsa,* ***Texnik xizmat*** *panelidagi* ***Kuzatuv sozlamalari****-ni cherting va keyin* ***Yorliq tasvirchasini vazifalar satrida qayd qilish****-ni tanlang.*
   - ❏ *Agar* ***EPSON Status Monitor 3*** *o'chirilgan bo'lsa,* ***Kengaytirilgan sozlamalar*** *panelida* ***Texnik xizmat****-ni tanlang va keyin* ***EPSON Status Monitor 3 ni yoqish****-ni tanlang.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Printer holatini tekshirish — Mac OS X

1. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.
2. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.
3. **EPSON Status Monitor**-ni cherting.

Tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash

Tiqilib qolgan qog'oz, jumladan har qanday yirtilgan bo'laklarini olib tashlash uchun boshqaruv panelida namoyish qilingan xatolikni tekshiring va ko'rsatmalarga amal qiling. Keyin xatolikni tozalang.

> ***Muhim:***
>
> *Tiqilib qolgan qog'ozni ehtiyotlik bilan oling. Qog'ozni jadallik bilan olish printerga shikast yetkazishi mumkin.*

Orqa Qog‘oz Tortmasi-dan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash

Tiqilib qolgan qog'ozni oling.



Printerning ichidan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash

> ***Diqqat:***
>
> - *Skaner qurilmasi qopqog'ini ochganda yoki yopganda qo'llaringiz yoki barmoqlaringizni qisib olmaslik uchun ehtiyot bo'ling. Aks holda jarohat olishingiz mumkin.*
> - *Qo'lingiz printerning ichida bo'lgan vaqtda boshqaruv panelidagi tugmalarga tegmang. Agar printer ishlay boshlasa, bu jarohatlanishga olib kelishi mumkin. Jarohatlanishning oldini olish uchun turtib chiqqan qismlarga tegib ketmaslikka harakat qiling.*

1. Hujjat qopqog'i yopilgan holda skaner qurilmasi qopqog'ini oching.



2. Tiqilib qolgan qog'ozni oling.



Muhim:

Printer ichidagi oq yassi kabel, yarim shaffof qism va siyoh tubiklariga tegmang. Bunday qilish printerning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.



3. Skaner qurilmasini yoping.



ADF-dan tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash

1. ADF qopqog'ini oching.



2. Tiqilib qolgan qog'ozni oling



3. ADF-ni oching.



4. Tiqilib qolgan qog'ozni oling



5. ADF kirish lotogini ko'taring va keyin tiqilib qolgan qog'ozni oling.



6. ADF qopqog'ini yoping.

Qog'oz to'g'ri uzatilmayapti

Quyidagilarni tekshiring va muammoni hal qilish uchun kerakli amallarni bajaring.

❏ Printerni tekis sirtga joylashtiring va undan tavsiya qilingan atrof-muhit sharoitlarida foydalaning.

❏ Ushbu printer tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qog'ozdan foydalaning.

❏ Qog'oz bilan muomala qilish ehtiyot choralariga amal qiling.

❏ Qog'oz o'lchami va qog'oz turi sozlamalari printerga solingan qog'oz o'lchami va turiga mos kelsin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Foydalanish va saqlash sharoitlari” - 134-sahifada

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada

➡ “Qog'oz bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralari” - 26-sahifada

➡ “Qog'oz turlari ro'yxati” - 28-sahifada

Qog'oz g'ijimlanishi

❏ Qog'ozni to'g'ri yo'nalishda soling va tekislagichni qog'oz qirralariga qarama-qarshi yo'nalishda suring.

❏ Agar bir nechta qog'oz solish kerak bo'lsa, qog'oz varaqlarini bittalab soling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash” - 108-sahifada

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Qog'oz qiyshiq uzatilmoqda

Qog'ozni to'g'ri yo'nalishda soling va tekislagichni qog'oz qirralariga qarama-qarshi yo'nalishda suring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

Bir vaqtda bir nechta qog'oz uzatilmoqda

❏ Qog'ozni bittalab soling.

❏ Qo'lda 2 tomonlama chop qilish vaqtida bir vaqtning o'zida bir nechta qog'oz varag'i uzatilganda qog'ozni qaytadan solishdan avval printerda qolgan qog'ozlarni olib qo'ying.

Qog'oz uzatilmayapti

Qog'oz uchun ko'rsatilgan maksimal varaqlar sonidan ortiq qog'oz solmang. Oddiy qog'ozni qirra yo'naltirgidagi uchburchak belgisidan o'tadigan tarzda solmang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada

Printer qog'ozni chiqarib yubormoqda

Garchi qog'oz orqa qog‘oz tortmasiga solingan bo'lsada qog'ozni chiqarib yuborish xatoligi yuz bersa, qog'ozni orqa qog‘oz tortmasi o'ng qirrasiga qarshi holda qaytadan soling.

Asl nusxa ADF-da uzatilmayapti

❏ ADF tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi asl nusxalardan foydalaning.

❏ Asl nusxalarni to'g'ri yo'nalishda soling va ADF qirralarini asl nusxalar qirralariga qarama-qarshi yo''nalishda suring.

❏ ADF ichini tozalang.

❏ Asl hujjatlarni tekislagich ustidagi uchburchak belgisidan oshib ketmaydigan qilib qo'ying.

❏ Boshqaruv panelida ADF tasvirchasining paydo bo'lishini tekshiring. Agar u namoyish qilinmasa, asl nusxalarni qaytadan joylashtiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “ADF uchun mavjud asl nusxalar” - 32-sahifada

➡ “ADF-ga asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “ADF-ni tozalash” - 92-sahifada

Quvvat va boshqaruv paneli bilan bog'liq muammolar

Printer yonmayapti

❏ ⏻ tugmasini bir oz uzoqroq bosib turing.

❏ Quvvat shnurining rozetkaga mahkam tiqilganligiga ishonch hosil qiling.

Quvvat o'chmayapti

⏻ tugmasini bir oz uzoqroq bosib turing. Agar siz baribir printerni o'chira olmasangiz, quvvat shnurini rozetkadan uzing. Chop qilish golovkasining qurib qolishining oldini olish uchun ⏻ tugmasini bosish orqali printerni qayta yoqing va o'chiring.

Printer avtomatik o‘chib qolsa

❏ **Sozlash** bo‘limidan **O'chirish sozlam.**ni tanlab, keyin **Qo'shilmagan bo'lsa, quvvatni o'chirish** va **Ajratilgan bo'lsa, quvvatni o'chirish** parametrlarini o‘chirib qo‘ying.

❏ **Sozlash** bo‘limidan **Printerni o'chirish taymeri** parametrini o‘chirib qo‘ying.

Eslatma:
*Jihoz ishlab chiqarilgan sana va qayerda xarid qilinganiga qarab mahsulotda **O'chirish sozlam.** yoki **Printerni o'chirish taymeri** funksiyasi bo'lishi mumkin.*

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Sozlash** rejimi” - 20-sahifada

LCD ekran qorayib qoldi

Printer uyqu rejimida. LCD ekranni avvalgi holatiga qaytarish uchun boshqaruv panelidagi istalgan tugmani bosing.

Printer chop qilmayapti

Agar printer ishlamayotgan yoki hech narsani chop qilmayotgan bo'lsa, quyidagilarni tekshiring.

❏ USB kabelini printer va kompyuterga mahkam ulang.

- ❏ Agar USB xubidan foydalanayotgan bo'lsangiz, printerni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterga ulashga urinib ko'ring.
- ❏ Agar siz printerdan tarmoqda foydalanayotgan bo'lsangiz, printerning tarmoqqa to'g'ri ulanganligiga ishoch hosil qiling. Ulanish holatini boshqaruv panelidagi ko'rsatkichlarni tekshirish yoki tarmoq holati varag'ini chop qilish orqali tekshirishingiz mumkin. Agar printer tarmoqqa ulanmagan bo'lsa, *Tarmoq bo'yicha qo'llanma*-ga qarang.
- ❏ Agar siz katta hajmli tasvirni chop qilayotgan bo'lsangiz, kompyuter xotirasi yetmay qolishi mumkin. Tasvirni quyiroq tasvir aniqligida yoki kichikroq o'lchamda chop qiling.
- ❏ Windows-da printer drayverining **Texnik xizmat** panelidagi **Bosma navbati**-ni cherting va keyin quyidagini cherting.
  - ❏ Birorta to'xtatib qo'yilgan chop qilish ishining mavjudligini tekshiring.

    Zarur bo'lgan hollarda chop qilishni bekor qiling.
  - ❏ Printerning oflayn yoki kutish rejimida emasligiga ishonch hosil qiling.

    Agar printer oflayn yoki kutish rejimida bo'lsa **Printer** menyusida oflayn yoki kutish parametrini o'chiring.
  - ❏ **Printer** menyusidan printerning standart printer sifatida tanlanganligiga ishonch hosil qiling (menyu elementiga tekshirish belgisi qo'yilgan bo'lishi kerak).

    Agar printer standart printer sifatida tanlanmagan bo'lsa, uni standart printer sifatida o'rnating.
- ❏ Mac OS X-da printer holatining **Tox'tatib qo'yish** emasligiga ishonch hosil qiling.

  menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **izim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerga ikki marta cherting. Agar printer to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, **Qayta tiklash**-ni (yoki **Printer ishini qayta tiklash**-ni) cherting.
- ❏ Agar chop qilish soplolaridan birortasi tiqilib qolgan bo'lsa, soploni tekshirishni bajaring va keyin chop qilish golovkasini tozalang.
- ❏ Agar printerdan AirPrint orqali foydalanayotgan bo'lsangiz, Web Config-da AirPrint-ni yoqing. Agar bu parametr o'chirilgan bo'lsa, AirPrint-dan foydalanib bo'lmaydi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Chop qilishni bekor qilish” - 54-sahifada

➡ “Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash” - 87-sahifada

Chop qilish muammolari

Hech narsa chop qilinmayapti yoki tasvir juda xira

Agar printerni uzoq vaqtda davomida ishlatmagan bo'lsnagiz, chop qilish kallagi purkagichlari to'lib qolgan hamda siyoh tomchilari qolib ketgan bo'lishi mumkin. Agar chop qilish soplolaridan birortasi tiqilib qolgan bo'lsa, soploni tekshirishni bajaring va keyin chop qilish golovkasini tozalang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash” - 87-sahifada

Chop qilish sifati past

Chop qilingan materiallardagi chaplangan tasvirlar, polosalar, yo'qolgan ranglar, o'chgan ranglar, tenglanmaganlik va mozaikaga o'xshash namunalar tufayli chop qilish sifati past bo'lsa, quyidagilarni tekshiring.

- ❏ Dastlabki siyoh quyishning to'liq yakunlanganligiga ishonch hosil qiling.
- ❏ Siyoh bakini tekshiring. Agar bak bo'sh bo'lsa, uni darhol siyoh bilan to'ldiring va chop qilish golovkasini tozalang.
- ❏ Agar chop qilish soplolaridan birortasi tiqilib qolgan bo'lsa, soploni tekshirishni ishga tushiring va keyin chop qilish golovkasini tozalang.
- ❏ Agar printerdan uzoq vaqt foydalanmagan bo'lsangiz, printer drayverining Siyohni kuchli sepish yordamchi dasturidan foydalaning.
- ❏ Chop qilish golovkasini tekislang.
- ❏ Agar 2.5 sm oraliqlarda tenglanmasliklar paydo bo'lsa, chop qilish golovkasini tenglashtiring.
- ❏ Ushbu printer tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qog'ozdan foydalaning.
- ❏ Nam, zararlangan yoki juda eski qog'ozga chop qilmang.
- ❏ Agar qog'oz egilgan yoki konvert shishgan bo'lsa, uni tekislang.
- ❏ Tasvirlar yoki fotosuratlarni chop qilganda yuqori aniqlikdagi ma'lumotlardan foydalanib chop qiling. Garchi displeyda ular yetarlicha yaxshi bo'lib ko'rinsalar ham veb-saytlardagi tasvirlar ko'pincha quyi tasvir aniqligiga ega bo'ladi va shuning uchun chop qilish sifati ham pasayishi mumkin.
- ❏ Printerga solingan qog'oz turi uchun boshqaruv panelida yoki printer drayverida mos qog'oz turi parametrini tanlang.
- ❏ Boshqaruv panelida yoki printer drayverida yuqori sifatni tanlagan holda chop qiling.
- ❏ Tasvirlar yoki fotosuratlar kutilmagan ranglarda chop qilinganda ranglarni sozlang va keyin qaytadan chop qiling. Ranglarni avtomatik to'g'rilash funksiyasi **PhotoEnhance**-da standart tuzatish rejimidan foydalanadi. **Kadrni to'g'rilash** parametri sifatida **Avto-to'g'rilash**-dan boshqa opsiyani tanlash orqali **PhotoEnhance**-da boshqa tuzatish rejimini sinab ko'ring. Agar muammoni bartaraf qilib bo'lmasa, **PhotoEnhance**-dan boshqa istalgan ranglarni to'g'rilash funksiyasidan foydalaning.
- ❏ Qo'sh yo'nalish (yoki yuqori tezlik) parametrini o'chirib qo'ying. Bu parametr yoqilganda chop qilish golovkasi har ikkala yo'nalishda harakatlanganda chop qiladi va vertikal chiziqlar tenglanmasligi mumkin. Bu funksiya o'chirib qo'yilsa, chop qilish sekinroq bo'lishi mumkin.
  - ❏ Windows

    Printer drayverining **Ko'proq tanlamalar** panelida **Yuqori tezlik**-ni tozalang.
  - ❏ Mac OS X

    menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Opsiyalar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. **Off** parametri sifatida **High Speed Printing**-ni tanlang.
- ❏ Chop qilgandan keyin qog'ozni darhol taxlab olmang.
- ❏ Ularni tikishdan yoki namoyish qilishdan avval chop qilingan narsalarni to'liq quriting. Chop qilishni quritishda to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ta'siriga qo'ymang, quritgichdan foyadlanmang va qog'ozning chop qilingan tomoniga tegmang.
- ❏ Asl Epson siyoh butilkalaridan foydalanishga harakat qiling. Bu mahsulot asl Epson siyoh butilkalaridan foydalanishga asoslangan holda ranglarni sozlashga mo'ljallangan. Asl bo'lmagan siyoh butilkalaridan foydalanish chop qilish sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

❏ Bu printer uchun to'g'ri qism kodiga ega bo'lgan siyoh butilkalaridan foydalaning.

❏ Epson siyoh butilkalaridan qadog'ida ko'rsaatilgan sanadan avval foydalanishni tavsiya qiladi.

❏ Tasvirlar yoki fotosuratlarni chop qilganda Epson oddiy qog'ozdan ko'ra asl Epson qog'ozidan foydalanishni tavsiya qiladi. Asl Epson qog'ozning chop qilishga mo'ljallangan tomoniga chop qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Siyoh baklarini siyoh bilan to'ldirish” - 83-sahifada

➡ “Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash” - 87-sahifada

➡ “Siyoh naychalari ichidagi siyohni almashtirish” - 89-sahifada

➡ “Chop qilish golovkasini tekislash” - 90-sahifada

➡ “Qog'oz bilan muomala qilishdagi ehtiyot choralari” - 26-sahifada

➡ “Foydalanish mumkin bo'lgan qog'oz va sig'imlar” - 27-sahifada

➡ “Qog'oz turlari ro'yxati” - 28-sahifada

➡ “Chop qilish rangini sozlash” - 50-sahifada

Nusxa sifati past

Agar nusxa olingan tasvirda notekis ranglar, dog‘lar, nuqta yoki to‘g‘ri chiziqlar paydo bo‘lsa, quyidagini tekshiring.

❏ Qog'oz o'tish yo'lini tozalang.

❏ skaner oynasini tozalang.

❏ ADFni tozalang.

❏ Asl nusxalarni skaner oynasi-ga joylayotganda asl nusxa yoki hujjat qopqog'ini qattiq bosmang. Asl nusxa yoki hujjat qopqog'i haddan tashqari qattiq bosilsa, notekis ranglar, chaplanishlar yoki nuqtalar paydo bo'lishi mumkin.

❏ Kesishgan ko'rinishdagi tasvirlar paydo bo'lsa, kattalashtirish va kichiklashtirish parametrini o'zgartiring yoki asl nusxani bir oz boshqacha burchak ostida qo'ying.

❏ Agar qog'ozda dog' paydo bo'lsa, nusxalash zichligi sozlamasini kamaytiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Qog'oz yo'lidagi siyoh dog'larini tozalash” - 91-sahifada

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

➡ “ADF-ni tozalash” - 92-sahifada

➡ “Chop qilish sifati past” - 115-sahifada

Asl nusxaning orqa tarafi tasviri nusxa ko'chirilgan tasvirda ko'rinayapti

❏ Yupqa qog'ozlar uchun asl nusxani skaner oynasi-ga qo'ying va keyin uning ustidan qora qog'oz qo'ying.

❏ Boshqaruv panelida nusxa ko'chirish zichligi parametrini pasaytiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Nusxalash** rejimi” - 18-sahifada

Chop qilingan materialning holati, o'lchamlari yoki hoshiyalari noto'g'ri

❏ Qog'ozni to'g'ri yo'nalishda soling va qirra yo'naltirgichlarini qog'oz qirralariga qarama-qarshi yo'nalishda suring.

❏ Asl nusxalarni skaner oynasi-ga joylashtiriganda asl nusxa burchagini skaner shishasi ramasidagi belgi bilan ko'rsatilgan burchakka tenglashtiring. Agar nusxaning qirralari qirqilgan bo'lsa, asl nusxani burchakdan bir oz uzoqlashtiring.

❏ skaner oynasi va hujjat qopqog'ini tozalang. Agar shishada chang yoki dog'lar bo'lsa, chang yoki dog'larni o'z ichiga olish uchun nusxa olish sohasi kengayishi mumkin, bu esa noto'g'ri skanerlash holati yoki kichkina tasvirlarga olib keladi.

❏ Boshqaruv panelida asl nusxa uchun mos bo'lgan o'lcham parametrini tanlang.

❏ Boshqaruv panelida yoki printer drayverida mos qog'oz o'lchami parametrini tanlang.

❏ Uning chop qilinadigan sohaga tushishi uchun dasturda hoshiya parametrini sozlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

➡ “Chop qilish sohasi” - 130-sahifada

Qo'goz chaplanayapti yoki ishqalanayapti

Agar chop qilish vaqtida qog'oz chaplansa yoki ishqalansa, quyidagilarni tekshiring.

❏ Qog'oz o'tish yo'lini tozalang.

❏ skaner oynasi va hujjat qopqog'ini tozalang.

❏ Qog'ozni to'g'ri yo'nalishda soling.

❏ Qo'lda 2 tomonlama chop qilishda qog'ozni solishdan avval siyohning to'liq quriganligiga ishonch hosil qiling.

❏ Nusxa ko'chirish vaqtida qog'oz chaplanganda boshqaruv panelida nusxa ko'chirish zichligini pasaytiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Qog'oz yo'lidagi siyoh dog'larini tozalash” - 91-sahifada

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

➡ “Orqa Qog‘oz Tortmasi-ga qog'oz solish” - 28-sahifada

➡ “Chop qilish sifati past” - 115-sahifada

Chop qilingan harflar noto'g'ri yoki buzilgan

❏ USB kabelini printer va kompyuterga mahkam ulang.

❏ Barcha to'xtatib qo'yilgan chop qilish ishlarini bekor qiling.

❏ Chop qilish vaqtida kompyuterni qo'lda **Gibernatsiya** yoki **Uyqu** rejimiga o'rnatmang. Kompyuter keyingi safar ishga tushirilganda buzilgan matnli sahifalar chop qilinishi mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Chop qilishni bekor qilish” - 54-sahifada

Chop qilingan tasvir teskari

Printer drayveri yoki dasturda istalgan ko'zgu tasvir parametrlarini o'chiring.

❏ Windows

Printer drayverining **Rasmni akslantirish** panelida **Ko'proq tanlamalar**-ni tozalang.

❏ Mac OS X

Printer dialogining **Chop etish sozlamalari** menyusida **Mirror Image**-ni o'chiring.

Chop qilish bilan bog'liq muammoni aniqlab bo'lmadi

Agar siz barcha yechimlarni sinab ko'rgan va muammoni hal qila olmagan bo'lsangiz, printer drayverini o'chirish va qayta o'rnatishni sinab ko'ring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Dasturlarni o'chirish” - 103-sahifada

➡ “Dasturlarni o'rnatish” - 104-sahifada

Chop qilishning boshqa muammolari

Chop qilish xaddan tashqari sekin

❏ Keraksiz dasturlarni yoping.

❏ Sifat parametrini pasaytiring. Yuqori sifatli chop qilish printerning chop qilish tezligini pasaytiradi.

❏ Qo'sh yo'nalish (yoki yuqori tezlik) parametrini yoqing. Bu parametr yoqilganda chop qilish golovkasi har ikkala yo'nalishda harakatlanganda chop qiladi va chop qilish tezligi ortadi.

❏ Windows

Printer drayverining **Yuqori tezlik** panelida **Ko'proq tanlamalar**-ni tanlang.

❏ Mac OS X

menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Opsiyalar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. **On** parametri sifatida **High Speed Printing**-ni tanlang.

❏ **Sokin rejim**ni o'chirib qo'ying.

❏ Windows

Printer drayverining**Asosiy** panelida **Sokin rejim** parametri sifatida **O'chiq**-ni tanlang.

❏ Mac OS X

menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Opsiyalar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. **Off** parametri sifatida **Sokin rejim**-ni tanlang.

To‘xtovsiz chop qilish vaqtida chop qilish tezligi keskin pasayib ketmoqda

Printer mexanizmining isib ketishi va shikast yetishining oldini olish maqsadida chop qilish tezligi pasayadi. Shunday bo‘lsa-da, chop qilishda davom etishingiz mumkin. Odatiy chop qilish tezligiga qaytish uchun printerni 30 daqiqa davomida dam oldiring. Agar quvvat uzib qo‘yilsa, chop qilish tezligi odatiy holatga qaytmaydi.

Skanerlashni boshlab bo'lmayapti

❏ Agar ADF bilan skanerlayotgan bo'lsangiz, hujjat qopqog'i va ADF qopqog'ining yopilganligini tekshiring.

❏ USB kabelini printer va kompyuterga mahkam ulang.

❏ Agar USB xubidan foydalanayotgan bo'lsangiz, printerni to'g'ridan-to'g'ri kompyuterga ulashga urinib ko'ring.

❏ Agar tarmoq orqali skanerlay olmasangiz, *Tarmoq bo'yicha qo'llanma* ga qarang.

❏ Agar tarmoq orqali yuqori aniqlikda skanerlay olmasangiz, bu aloqa bilan bog'liq muammodan bo'lishi mumkin. Tasvir aniqligini pasaytiring.

❏ EPSON Scan-ni ishga tushirganingizda skanerlar ro'yxati namoyish qilinsa, to'g'ri printerni (skanerni) tanlaganligingizga ishonch hosil qiling.

❏ Agar birorta TWAIN-ga mos dasturlardan foydalanayotgan bo'lsangiz, o'zingiz foydalanayotgan printerni (skanerni) tanlang.

- Windows-da printerning (skanerning) **Skaner va kamera**-da namoyish qilinganligiga ishonch hosil qiling. Printer (skaner) "EPSON XXXXX (printer nomi)" sifatida namoyish qilinishi kerak. Agar printer (skaner) namoyish qilinmasa, EPSON Scan-ni o'chiring va qaytadan o'rnating. **Skaner va kamera**-ga kirish uchun quyidagiga qarang.
  - Windows 8.1/Windows 8/Windows Server 2012 R2/Windows Server 2012

    Ish stoli > **Sozlanmalar** > **Boshqaruv paneli**-ni tanlang, qidiruv maydoniga "Scanner and Camera"-ni kiriting, **Skaner va kamerani ko'rsatish**-ni cherting va keyin printerning namoyish qilinganligini tekshiring.
  - Windows 7/Windows Server 2008 R2

    Start tugmasini cherting va **Boshqaruv paneli**-ni tanlang, qidiruv maydoniga "Scanner and Camera"-ni kiriting, **Skanerlar va kameralarni ko'rish**-ni cherting va keyin printerning namoyish qilinganligini tekshiring.
  - Windows Vista/Windows Server 2008

    Start tugmasini cherting, **Boshqaruv paneli** > **Apparat vositalar va tovush** > **Skanerlar va kameralar**-ni tanlang va keyin printerning namoyish qilinganligini tekshiring.
  - Windows XP/Windows Server 2003 R2/Windows Server 2003

    Start tugmasini cherting, **Boshqaruv paneli** > **Printerlar va boshqa apparat vositalar** > **Skanerlar va kameralar**-ni tanlang va keyin printerning namoyish qilinganligini tekshiring.
- Agar birorta TWAIN-ga mos dasturdan foydalanib skaner qila olmasangiz, TWAIN-ga mos dasturni o'chiring va qaytadan o'rnating.
- Intel prosessorli Mac OS X uchun agarEPSON Scan-dan boshqa Epson skaner drayverlari, masalan, Rosetta yoki PPC o'rnatilgan bo'lsa, ularni va EPSON Scan-ni o'chiring va keyin EPSON Scan-ni qaytadan o'rnating.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Dasturlarni o'chirish” - 103-sahifada

➡ “Dasturlarni o'rnatish” - 104-sahifada

Boshqaruv panelidan foydalanganda skaner qilib bo'lmayapti

- EPSON Scan va Epson Event Manager-ning to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
- Epson Event Manager-da belgilangan skanerlash parametrini tekshiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Epson Event Manager” - 100-sahifada

Skanerlangan tasvir bilan bog'liq muammolar

Skanerlash sifati past

- skaner oynasini tozalang.
- ADFni tozalang.

- ❏ Asl nusxalarni skaner oynasi-ga joylayotganda asl nusxa yoki hujjat qopqog'ini qattiq bosmang. Asl nusxa yoki hujjat qopqog'i haddan tashqari qattiq bosilsa, notekis ranglar, chaplanishlar yoki nuqtalar paydo bo'lishi mumkin.
- ❏ Asl hujjat ustidagi changni tozalab tashlang.
- ❏ Hujjat turi uchun mos sozlamalarni tanlang.
- ❏ Piksellar sig‘imini yuqoriroq qilib skanerlang.
- ❏ Tasvirga EPSON Scan yordamida ishlov berib, keyin skanerlang. Tafsilotlar uchun EPSON Scan yordam ma’lumotiga qarang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

➡ “ADF-ni tozalash” - 92-sahifada

Harflar chaplanib ketayapti

- ❏ EPSON Scan-dagi **Home Mode** yoki **Office Mode**-da **Image Option** parametridan **Image Adjustments**-ni tanlang va keyin **Text Enhancement**-ni tanlang.
- ❏ EPSON Scan-dagi **Professional Mode**-da **Document**-ni **Original** parametrlarda **Auto Exposure Type** sifatida tanlang.
- ❏ EPSON Scan-da bo'sag'aviy qiymat parametrlarini sozlang.
  - ❏ **Home Mode**

    Black & White-ni **Image Type** parametri sifatida tanlang, **Brightness**-ni cherting va keyin bo'sag'aviy qiymatni sozlang.
  - ❏ **Office Mode** yoki **Professional Mode**

    Black & White-ni **Image Type** parametri sifatida tanlang va keyin bo'sag'aviy qiymatni sozlang.
- ❏ Yuqoriroq tasvir aniqligida skanerlang.

Asl nusxaning orqa tarafi tasviri skanerlangan tasvirda ko'rinayapti

- ❏ Yupqa qog'ozlar uchun asl nusxani skaner oynasi-ga qo'ying va keyin uning ustidan qora qog'oz qo'ying.
- ❏ Tegishli hujjat turi parametrlarini o'rnating.
- ❏ EPSON Scan-dagi **Home Mode** yoki **Office Mode**, **Image Option Image Adjustments** sozlamasidan tanlang va **Text Enhancement** tanlang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Skanerlash** rejimi” - 19-sahifada

Skanerlangan tasvirda Muar (To'r) namunalari paydo bo'layapti

- ❏ Asl nusxani biroz boshqacha burchak ostida joylashtiring.

❏ EPSON Scan-da **Descreening** tanlang.

❏ Tasvir aniqligi sozlamasini o'zgartiring.

Skanerlash sohasi yoki yo'nalishi to'g'ri emas

❏ Asl nusxalarni skaner oynasi-ga joylashtiriganda asl nusxa burchagini skaner oynasi ramasidagi belgi bilan ko'rsatilgan burchakka tenglashtiring. Agar skanerlangan tasvirning qirralari qirqilgan bo'lsa, asl nusxani burchakdan bir oz uzoqlashtiring.

❏ skaner oynasi va hujjat qopqog'ini tozalang. Agar shishada chang yoki dog'lar bo'lsa, chang yoki dog'larni o'z ichiga olish uchun skanerlash sohasi kengayishi mumkin, bu esa noto'g'ri skanerlash holati yoki kichkina tasvirlarga olib keladi.

❏ Agar ularni alohida skanerlash uchun bir necha asl nusxani skaner oynasi-ga joylashtirsang, biroq ular bitta faylga skanerlansa, asl nusxalarni bir-biridan kamida 20 mm (0,8 inch) ajratgan holda joylashtiring. Agar muammoni hal qilib bo'lmasa, asl nusxalarni alohida-alohida skanerlang.

❏ Skanerlash hududini to'g'ri belgilang.

❏ EPSON Scan-da miniatyurali ko'rinishdan foydalangan holda skanerlaganda asl nusxani skaner oynasi qirralaridan 4,5 mm (0,18 inch) masofaga joylashtiring.

❏ EPSON Scan-da **Home Mode** yoki **Professional Mode** rejimlarida katta qilib dastlabki ko'rishni eskiz sifatida ko'rsangiz, skanerlash maydoni to'g'ri bo'lmasligi mumkin. EPSON Scan-da dastlabki ko'rishda **Preview** oynasidagi **Preview** panelida skanerlamoqchi bo'lgan sohangizning chodirlarini yarating.

❏ Agar **Auto Photo Orientation**-dagi EPSON Scan ko'zda tutilgani kabi ishlamasa, EPSON Scan yordamiga qarang.

❏ **Auto Photo Orientation**-ni EPSON Scan-datozalang.

❏ EPSON Scan bilan skanerlaganda agar tasvir aniqligi parametri juda baland bo'lsa, mavjud skanerlash sohasi cheklanishi mumkin. Tasvir aniqligini pasaytiring yoki **Preview** oynasida skanerlash sohasini o'zgartiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

Skanerlangan tasvir bilan bog'liq muammoni aniqlab bo'lmadi

Agar siz barcha yechimlarni sinab ko'rgan va muammoni hal qila olmagan bo'lsangiz, EPSON Scan parametrlarini qayta o'rnatish uchun EPSON Scan oynasida **Configuration**-ni cherting va keyin **Other** panelida **Reset All**-ni cherting. Agar qayta o'rnatish muammoni hal qilmasa, EPSON Scan-ni o'chiring va qaytadan o'rnating.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Dasturlarni o'chirish” - 103-sahifada

➡ “Dasturlarni o'rnatish” - 104-sahifada

Skanerlashning boshqa muammolari

Miniatyurali dastlabki ko'rish to'g'ri ishlamayapti

EPSON Scan yordamiga qarang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “EPSON Scan (Skaner drayveri)” - 99-sahifada

Skanerlash xaddan tashqari sekin

Tasvir aniqligini pasaytiring.

PDF/Multi-TIFF-ga skanerlaganda skaner to'xtab qolayapti

- ❏ EPSON Scan-dan foydalanib skanerlaganda 999 betgacha PDF formatida va 200 betgacha Multi-TIFF formatida skanerlashingiz mumkin. Boshqaruv panelidan foydalanib skanerlaganda 50 betgacha PDF formatida va Multi-TIFF formatida skanerlashingiz mumkin.
- ❏ Katta hajmlarda skanerlaganda kulrangda skanerlashni tavsiya qilamiz.
- ❏ Kompyuter qattiq diskidagi bo'sh joyni ko'paytiring. Bo'sh joy yetarli bo'lmaganda skanerlash to'xtab qolishi mumkin.
- ❏ Quyiroq tasvir aniqligida skanerlashga harakat qiling. Ma'lumotlarning jami hajmi o'rnatilgan limitga yetganda skanerlash to'xtaydi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Skanerlash** rejimi” - 19-sahifada

Fakslarni yuborish va olish vaqtidagi muammolar

Fakslarni yuborib yoki olib bo'lmayapti

- ❏ Faks ulanishini avtomatik tekshirish uchun boshqaruv panelidagi **Faks aloqasini tekshirish**-dan foydalaning. Hisobotda chop qilingan yechimlarni sinab ko'ring.
- ❏ **Liniya turi** parametrini tekshiring. Buni **PBX**-ga o'rnatish muammoni hal qilishi mumkin. Agar telefon tizimi tashqi liniyaga chiqish uchun tashqi kirish kodini talab qilsa, kirish kodini printerda ro'yxatdan o'tkazing va yuborishda faks raqamining boshlanishiga # (xash) belgisini kiriting.
- ❏ Agar aloqa xatoligi yuz bersa, boshqaruv panelida **Faks tezligi** parametrini **Sekin(9,600bps)**-ga o'rnating
- ❏ Telefonni unga ulash va tekshirib ko'rish orqali devordagi telefon uyachasining ishlashini tekshiring. Agar qo'ng'iroq qila yoki qabul qila olmasangiz, telekommunikatsiya kompaniyasiga murojaat qiling.

- ❏ DSL telefon liniyasiga ulanish uchun ichki qurilgan DSL filtri bilan jihozlangan DSL modemidan foydalanish yoki liniyaga alohida DSL filtrini o'rnatish talab qilinadi. DSL provayderingizga murojaat qiling.
- ❏ Agar DSL telefon liniyasiga ulanayotgan bo'lsangiz, printerning faks yubora olishini tekshirish uchun printerni to'g'ridan-to'g'ri devordagi telefon uyachasiga ulang. Agar u ishlasa, muammo DSL filtri tomonidan bo'lishi mumkin. DSL provayderingizga murojaat qiling.
- ❏ Boshqaruv panelida **ECM** parametrini yoqing. ECM o'chiq bo'lganda rangli fakslarni yuborib yoki olib bo'lmaydi.
- ❏ Kompyuterdan foydalangan holda fakslar yuborish yoki olish uchun printerning USB kabeli orqali yoki tarmoqqa ulanganligiga hamda printer drayveri va PC-FAX drayverining kompyuterga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. PC-FAX drayveri FAX Utility bilan birgalikda o'rnatiladi.
- ❏ Windows-da printerning (faksning) **Qurilmalar va printerlar**, **Printer** yoki **Printerlar va boshqa apparat vositalar**-da namoyish qilinganligiga ishonch hosil qiling. Printer (faks) "EPSON XXXXX (FAX)" sifatida namoyish qilinadi. Agar printer (faks) namoyish qilinmasa, FAX Utility-ni o'chiring va qaytadan o'rnating. **Qurilmalar va printerlar**, **Printer** yoki **Printerlar va boshqa apparat vositalar**-ga kirish uchun quyidagiga qarang.
  - ❏ Windows 8.1/Windows 8

    Apparat vositalar va tovush yoki **Apparat vositalar**-da **Ish stoli** > **Sozlanmalar** > **Boshqaruv paneli** > **Qurilmalar va printerlarni ko'rish**-ni tanlang.
  - ❏ Windows 7

    Start tugmasini cherting va keyin **Apparat vositalar** yoki **Apparat vositalar va tovush**-da **Boshqaruv paneli** > **Qurilmalar va printerlarni ko'rish**-ni tanlang.
  - ❏ Windows Vista

    Start tugmasini cherting va **Apparat vositalar va tovush**-da **Boshqaruv paneli** > **Printerlar**-ni tanlang.
  - ❏ Windows XP

    Start tugmasini cherting va **Boshqaruv paneli** > **Printerlar va boshqa apparat vositalar** > **Printerlar va fakslar**-ni tanlang.
- ❏ Mac OS X-da quyidagilarni tekshiring.
  - ❏ menyu > **Printerlar va skanerlar** (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**)-da **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin namoyish qilingan printerni (faksni) tanlang. Printer (faks) "FAX XXXX (USB)" or "FAX XXXX (IP)" sifatida namoyish qilinadi. Agar printer (faks) namoyish qilinmasa, **+**-ni cherting va printerni (faksni) ro'yxatdan o'tkazing.
  - ❏ menyudan **Tizim afzalliklari**-ni tanlang, **Printerlar va skanerlar**-ni (yoki **Chop qilish va skanerlash**,**Chop qilish va faks**-ni) tanlang va keyin printerni (faksni) ikki marta cherting. Agar printer to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, **Qayta tiklash**-ni (yoki Printer ishini qayta tiklash-ni) cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

➡ “ShTS telefon tizimi uchun parametrlarni o'rnatish” - 70-sahifada

➡ “Printerni telefon liniyasiga ulash” - 65-sahifada

➡ “Dasturlarni o'chirish” - 103-sahifada

➡ “Dasturlarni o'rnatish” - 104-sahifada

Fakslarni yuborib bo'lmayapti

- ❏ Boshqaruv paneliga chiquvchi fakslarga sarlavha ma'lumotlarini o'rnating. Ayrim faks mashinalari sarlavha ma'lumotlari bo'lmagan fakslarni avtomatik ravishda rad qiladi.
- ❏ Agar o'zingizning qo'ng'iroq qiluvchi ID ni blokirovka qilgan bo'lsangiz, uni blokirovkadan chiqaring. Ayrim telefon yoki faks mashinalar anonim qo'ng'iroqlarni avtomatik ravishda rad qiladi.
- ❏ Oluvchidan faks raqamining to'g'riligini va oluvchi faks mashinasining faksni olish uchun tayyorligini so'rang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

➡ “Fakslarni yuborib yoki olib bo'lmayapti” - 123-sahifada

Aniq bir oluvchiga fakslarni yuborib bo'lmayapti

Agar xatolik tufayli aniq bir oluvchiga fakslarni yubora olmasangiz, quyidagilarni tekshiring.

- ❏ Agar printer raqam terishni yakunlagandan keyingi 50 soniya ichida oluvchi mashina qo'ng'iroqni olmasa, qo'ng'iroq xatolik bilan tugaydi. Faks tovushini eshitishingizdan avval uning qancha vaqt olishini tekshirish uchun ulangan telefondan foydalangan holda raqam tering. Agar u 50 soniyadan ko'proq vaqt olsa, faks yuborish uchun faks raqamidan keyin to'xtatlishlar qo'shing. To'xtalishni qo'shish uchun *-ni bosing. To'xtalish belgisi sifatida defis kiritiladi. Bitta to'xtalish taxminan uch soniya. Zarur bo'lsa bir nechta to'xtalishlar qo'shing.
- ❏ Agar siz oluvchini kontaktlar ro'yxatidan tanlagan bo'lsangiz, ro'yxatga olingan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiring. Agar ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, kontaktlar ro'yxatidan oluvchini tanlang, ▶ tugmasini bosing va keyin **Tahrirlash**-ni tanlang. **Kiritma qo'shish** ekranida **Faks tezligi**-ni **Sekin(9,600bps)**-ga o'zgartiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Fakslar yuborish Tashqi telefon qurilmasidan raqam terish” - 73-sahifada

➡ “Faks yuborish uchun kontaktlarni ro'yxatga qo'shish” - 71-sahifada

➡ “Fakslarni yuborib yoki olib bo'lmayapti” - 123-sahifada

Ko'rsatilgan vaqtda fakslarni yuborib bo'lmayapti

Boshqaruv panelida sana va vaqtni to'g'ri o'rnating.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Ko'rsatilgan vaqtda fakslarni yuborish (Faksni keyinroq jo'natish)” - 74-sahifada

➡ “**Sozlash** rejimi” - 20-sahifada

Fakslarni qabul qilib bo'lmayapti

- ❏ Agar siz qo'ng'iroqlarni yo'naltirish xizmatiga obuna bo'lgan bo'lsangiz, printer fakslarni qabul qilishi mumkin. Xizmat provayderiga murojaat qiling.

❏ Agar telefonni printerga ulagan bo'lsangiz, boshqaruv panelida **Qabul qilish rejimi** parametrini **Avtomatik**-ga o'rnating.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

➡ “Fakslarni yuborib yoki olib bo'lmayapti” - 123-sahifada

Xotiraning to'lib qolishi xatosi yuz berganda

❏ Agar printer fakslarni kompyuterga qabul qilishga o'rnatilgan bo'lsa, fakslarni saqlash uchun o'rnatilgan kompyuterni yoqing. Fakslar kompyuterga saqlangach ular printer xotirasidan o'chiriladi.

❏ Garchi xotira to'lib qolgan bo'lsa ham **To'g'ridan-to'g'ri jo'natish** funksiyasidan foydalanib monoxrom fakslarni yuborish mumkin. Yoki ularni bir nechta paketda yuborish uchun asl nusxalaringizni ikki yoki undan ko'proqqa bo'ling.

❏ Agar printer xatosi, masalan, qog'ozning tiqilib qolishi tufayli printer olingan faksni chop qila olmasa, xotiraning to'lib qolishi xatosi yuz berishi mumkin. Printer muammosini hal qiling va keyin yuboruvchiga murojaat qiling va faksni qaytadan yuborishini so'rang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Olingan fakslarni kompyuterga saqlash” - 77-sahifada

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada

➡ “Tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash” - 108-sahifada

Yuborilgan faks sifati past

❏ skaner oynasi va hujjat qopqog'ini tozalang.

❏ ADF-dagi barabanni tozalang.

❏ Boshqaruv panelida **Nuqtalar zichligi** parametrini o'zgartiring. Agar asl nusxada matn va fotosuratlar bo'lsa **Foto**-ni tanlang.

❏ Boshqaruv panelida **Zichlik** parametrini o'zgartiring.

❏ Boshqaruv panelida **ECM** parametrini yoqing.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

➡ “ADF-ni tozalash” - 92-sahifada

➡ “**Faks** rejimi” - 19-sahifada

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

Fakslar noto'g'ri o'lchamda yuborilayapti

❏ skaner oynasi-dan foydalangan holda faks yuborganda asl nusxani burchagini asl nusxa belgisiga tenglashtirgan holda joylashtiring.

❏ skaner oynasi va hujjat qopqog'ini tozalang. Agar shishada chang yoki dog'lar bo'lsa, chang yoki dog'larni o'z ichiga olish uchun skanerlash sohasi kengayishi mumkin, bu esa noto'g'ri skanerlash holati yoki kichkina tasvirlarga olib keladi.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Asl nusxalarni joylashtirish” - 32-sahifada

➡ “Skaner Oynasi-ni tozalash” - 93-sahifada

Olingan faks sifati past

❏ Boshqaruv panelida **ECM** parametrini yoqing.

❏ Yuboruvchiga murojaat qiling va undan yuqoriroq tasvir aniqligida yuborishni so'rang.

❏ Olingan faksni qaytadan chop qiling.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

➡ “Olingan fakslarni qayta chop qilish” - 79-sahifada

Olingan fakslar chop qilinmayapti

Agar qog'ozning tiqilib qolishi singari printerda xatolik yuz bergan bo'lsa, printer olingan fakslarni chop qila olmaydi. Printerni tekshiring.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Tiqilib qolgan qog'ozni olib tashlash” - 108-sahifada

Faks yuborishning boshqa muammolari

Ulangan telefonda qo'ng'iroqlarni qilib bo'lmayapti

Telefonnni printerning EXT. portiga ulang va go'shakni ko'taring. Agar go'shak orqali raqam terish tovushini eshita olmasangiz, telefon kabelini to'g'ri ulang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Telefon qurilmasini printerga ulash” - 67-sahifada

Javob berish mashinasi ovozli qo'ng'iroqlarga javob bera olmayapti

Boshqaruv panelida **Javob berishga jiringlashlar soni** parametrini javob berish mashinasi uchun jiringlashlar sonidan balandroq songa o'rnating.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Faks sozlamalari**” - 23-sahifada

➡ “Avtomatik javob bergich uchun parametrlar” - 76-sahifada

Yuboruvchining faks raqami olingan fakslarda ko'rsatilmayapti yoki raqam noto'g'ri

Yuboruvchi faksning sarlavha ma'lumotlarini o'rnatmagan yoki ularni noto'g'ri o'rnatgan bo'lishi mumkin. Yuboruvchiga murojaat qiling.

Boshqa muammolar

Printerga tekkanda yengil elektr toki urayapti

Agar kompyuterga juda ko'p yordamchi qurilmalar ulangan bo'lsa, printerga tekkanda yengil elektr toki urishini sezishingiz mumkin. Printerga ulangan kompyuterga yerga ulangan simni o'rnating.

Ishlash tovushi baland

Agar ishlash vaqtida ovoz baland bo'lsa, **Sokin rejim**ni yoqing. Bu funksiya yoqilsa, chop qilish tezligi pasayishi mumkin.

❏ Windows printer drayveri

Asosiy panelida **Sokin rejim** parametri sifatida **Yoniq**-ni tanlang.

❏ Mac OS X printer drayveri

menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Opsiyalar**-ni (yoki **Drayver**-ni) cherting. **On** parametri sifatida **Sokin rejim**-ni tanlang.

ADF ishlamayapti

skaner oynasi-ning old o'ng tomonidagi tirqishda chang bo'lishi mumkin. Changlarni tozalab tashlang.

Sana va vaqt noto'g'ri

Boshqaruv panelida sana va vaqtni to'g'ri o'rnating. Chaqmoq urishi natijasidagi elektr ta'minotidagi uzilishdan keyin yoki elektr ta'minoti uzoq vaqt berilmasa, soat vaqtni noto'g'ri ko'rsatishi mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “**Sozlash** rejimi” - 20-sahifada

Dastur Brandmauer tomonidan to'sib qo'yilgan (faqat Windows uchun)

Boshqaruv paneli-dagi xavfsizlik parametrlarida dasturni Windows Brandmaueri ruxsat berilgan dasturlariga qo'shing.

Siyoh darajalarini qayta o'rnatishni so'rovchi xabar namoyish qilinadi

Barcha yoki ko'rsatilgan siyoh baklarini qaytadan to'ldiring, LCD ekranda o'zingiz to'ldirgan rangni tanlang va keyin siyoh darajalarini qaytadan o'rnatish uchun ⓘ tugmasini bosing.

Foydalanish sharoitlariga bog'liq ravishda bakda hali ham siyoh bo'lganda xabar namoyish qilinishi mumkin.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Siyoh baklarini siyoh bilan to'ldirish” - 83-sahifada

Ilova

Texnik xususiyatlari

Printerning texnik xususiyatlari

Printer golovkasi soplosini almashtirish		Qora siyoh uchliklari: 180 Rangli siyoh uchliklari: har bir rang uchun 59
Qog'oz vazni	Oddiy qog'oz	64 g/m² dan 90 g/m² gacha (17 lb dan 24lb gacha)
	Konvertlar	Envelope #10, DL, C6: 75 – 90 g/m² (20 – 24 funt)

Chop qilish sohasi

Printer mexanizmi tufayli soyali joylarda chop qilish sifati pasayishi mumkin.

Yakka varaqlar (oddiy chop qilish)



A	3.0 mm (0.12 in.)
B	3.0 mm (0.12 in.)
C	40.0 mm (1.57 in.)
D	32.0 mm (1.26 in.)

Konvertlar



A	3.0 mm (0.12 in.)
B	5.0 mm (0.20 in.)
C	18.0 mm (0.71 in.)
D	40.0 mm (1.57 in.)

Skanerning texnik xususiyatlari

Skaner turi	Planshetli
Fotoelektrik qurilma	CIS
Hujjatning maksimal o'lchamlari	216×297 mm (8.5×11.7 in.) A4, Letter

Tasvir aniqligi	Dyuymda 1200 ta nuqta (asosiy skanerlash) Dyuymda 2400 ta nuqta (qismiy skanerlash)
Rang chuqurligi	Rangi ❏ Pikseligiga 48 bit ichki (rang bo'yicha pikseliga 16 bit ichki) ❏ Pikseligiga 24 bit tashqi (rang bo'yicha pikseliga 8 bit tashqi) Kulrang ❏ Pikseliga 16 bit ichki ❏ Pikseliga 8 bit tashqi Oq-qora ❏ Pikseliga 16 bit ichki ❏ Pikseliga 1 bit tashqi
Yorug'liq manbasi	LED

Interfeys xususiyatlari

Kompyuter uchun	Yuqori tezlikdagi USB

Faks xususiyatlari

Faks turi	Walk-up oq-qora va rangli faks qobiliyati (ITU-T Super guruhi 3)
Qo'llab-quvvatlanuvchi liniyalar	Standart telefon liniyalari, ShTS (Shaxsiy telefon stansiyalari) telefon tizimlari
Tezligi	33.6 kbit/son gacha
Tasvir aniqligi	Monoxrom ❏ Standart: 8 pel/mm×3,85 chiz/mm (203 pel/in.×98 chiz/in.) ❏ Yuqori: 8 pel/mm×7,7 chiz/mm (203 pel/in.×196 chiz/in.) ❏ Foto: 8 pel/mm×7,7 chiz/mm (203 pel/in.×196 chiz/in.) Rangi ❏ Yuqori: dyuymda 200×200 ta nuqta ❏ Foto: dyuymda 200×200 ta nuqta
Sahifalarni saqlash uchun xotira	100 tagacha sahifa (1-raqamli ITU-T grafigi monoxrom rejimda qabul qilinganda)
Raqamni qayta terish*	2 marta (1 daqiqa oraliq bilan)
Interfeys	RJ-11 telefon liniyasi, RJ-11 telefon ulanishi

* Mamlakat yoki hududga bog'liq ravishda texnik xususiyatlar farq qilishi mumkin.

Wi-Fi xususiyatlari

Standartlar	IEEE802.11b/g/n*1

Chastota diapazoni	2,4 GGts
O'tkazilgan maksimal radiochastota quvvati	17 dBm (EIRP)
Koordinta rejimlari	Infratuzilma, boshqa*2, Wi-Fi Direct*3 *4
Simsiz xavfsizliklar	WEP (64/128bit), WPA2-PSK (AES)*5

*1 Xarid qilingan joyiga qarab IEEE 802.11b/g/n yoki IEEE 802.11b/g bilan mos keladi.

*2 IEEE 802.11n uchun qo'llab-quvvatlanmaydi.

*3 IEEE 802.11b uchun qo'llab-quvvatlanmaydi.

*4 Oddiy AP rejimi Wi-Fi ulanishi (infratuzilma) yoki Ethernet ulanishiga mos. Ko'proq ma'lumotlar olish uchun *Tarmoq bo'yicha qo'llanma*-ga qarang.

*5 WPA2 standarti bilan mos, WPA/WPA2 Personal qo'llab-quvvatlanadi.

Ethernet xususiyatlari

Standartlar	IEEE802.3i (10BASE-T)*1 IEEE802.3u (100BASE-TX) IEEE802.3az (Quvvatlarga tejamkor Ethernet)*2
Aloqa rejimi	Avto, 10Mbit To'liq dupleks, 10Mbit Yarim dupleks, 100Mbit To'liq dupleks, 100Mbit Yarim dupleks
Konnektor	RJ-45

*1 Radioto'lqinlarning halaqit berishining oldini olish uchun 5e toifadagi yoki yuqoriroq STP (Izolyatsiyalangan qo'sh sim) kabelidan foydalaning.

*2 Ulangan qurilma IEEE802.3az standartlariga mos bo'lishi kerak.

Xavfsizlik protokoli

SSL/TLS	HTTPS Server/Client, IPPS

Boshqalarning qo'llab-quvvatlanuvchi xizmatlari

AirPrint	Chop qilish	iOS 5 yoki keyingi versiyalari/Mac OS X v10.7.x yoki keyingi versiyalari
	Skanerlash	Mac OS X v10.9.x yoki keyingi versiyalari
	Faks	Mac OS X v10.8.x yoki keyingi versiyalari
Google Cloud Print		

O'lchamlari

O'lchamlari	Saqlash ❏ Kengligi: 490 mm (19.3x in.) ❏ Chuqurligi: 377 mm (14.8 in.) ❏ Balandligi: 229 mm (9.0 in.) Chop qilish ❏ Kengligi: 490 mm (19.3 in.) ❏ Chuqurligi: 543 mm (21.4 in.) ❏ Balandligi: 294 mm (11.6 in.)
Og'irligi*	Taxminan 6.3 kg (13.9x lb)

* Siyohsiz va ta'minot shnurisiz.

Elektr xususiyatlari

Elektr toki kuchlanishi	100 – 240 V
Nominal chastota diapazoni	50 Gts dan 60 Gts gacha
Nominal tok kuchi	0.5 A dan 0.3 A gacha
Quvvat iste'moli (USB ulanishi bilan)	Avtonom nusxa ko'chirish: Taxminan 11 W (ISO/IEC24712) Tayyorlik rejimi: Taxminan 4.0 Vt Uyqu rejimi: Taxminan 1.6 Vt O'chirilgan: Taxminan 0.3 Vt

Eslatma:

❏ *Uning kuchlanishini ko'rish uchun printerdagi yorliqqa qarang.*

❏ *Yevropalik foydalanuvchilar quvvat iste'moli bo'yicha ma'lumotlar olish uchun quyidagi veb-saytga qarashlari mumkin.*

http://www.epson.eu/energy-consumption

❏ *Belgiyalik foydalanuvchilar, nusxa ko'chirish vaqtidagi quvvat iste'moli o'zgarishi mumkin.*

Eng so'nggi texnik xususiyatlarni ko'rish uchun http://www.epson.be saytiga tashrif buyuring.

Foydalanish va saqlash sharoitlari

Ishlatish	Printerdan quyidagi grafikda ko'rsatilgan diapazon doirasida foydalaning.  Harorat: 10 dan 35°C gacha (50 dan 95°F gacha) Namlik: 20 dan 80% gacha nisbiy namlik (kondensatsiyalanishsiz)
Saqlash	Harorat: -20 dan 40°C gacha (-4 dan 104°F gacha)* Namlik: 5 dan 85% gacha nisbiy namlik (kondensatsiyalanishsiz)

* Mahsulotni 40 °C (104 °F) haroratda bir oygacha bo'lgan muddat saqlash mumkin.

Siyohli idishlar uchun foydalanish va saqlash sharoitlari

Saqlash harorati	-20 °C da 40 °C gacha (-4 °F dan 104 °F gacha)*
Muzlash harorati	-15 °C (5 °F) Siyoh eriydi va 25 °C (77 °F) da taxminan 2 soatdan keyin undan foydalanish mumkin.

* Mahsulotni 40 °C (104 °F) haroratda bir oygacha bo'lgan muddat saqlash mumkin.

Tizimga bo'lgan talablar

❏ Windows 8.1 (32-bit, 64-bit)/Windows 8 (32-bit, 64-bit)/Windows 7 (32-bit, 64-bit)/Windows Vista (32-bit, 64-bit)/Windows XP Professional x64 Edition/Windows XP (32-bit)/Windows Server 2012 R2/ Windows Server 2012/Windows Server 2008 R2/Windows Server 2008 (32-bit, 64-bit)/Windows Server 2003 R2 (32-bit, 64-bit)/Windows Server 2003 (32-bit, 64-bit)

❏ Mac OS X v10.10.x/Mac OS X v10.9.x/Mac OS X v10.8.x/Mac OS X v10.7.x/Mac OS X v10.6.8

Eslatma:

❏ *Mac OS X ayrim dasturlar va funksiyalarni qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.*

❏ *Mac OS X uchun UNIX fayl tizimi (UFS) qo'llab-quvvatlanmaydi.*

Me'yoriy ma'lumotlar

Standartlar va ruxsatnomalar

AQSH modeli uchun standartlar va ruxsatnomalar

Xavfsizlik	UL60950-1 CAN/CSA-C22.2 No.60950-1
EMC	FCC Part 15 Subpart B Class B CAN/CSA-CEI/IEC CISPR 22 Class B

Ushbu jihozda quyidagi simsiz modullar mavjud.

Ishlab chiqaruvchi: Askey Computer Corporation

Turi: WLU6320-D69 (RoHS)

Ushbu mahsulot FCC qoidalarining 15-qismiga va IC qoidalarining RSS-210 bandiga mos keladi. Epson mahsulotlarning tavsiya qilinmagan o'zgartirilishlaridan kelib chiquvchi himoya talablarini har qanday ko'rinishdagi qondrimasliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola olmaydi. Ishlatishda quyidagi ikki vaziyatni hisobga olish lozim: (1) ushbu jihoz jarohat yetkazmasligi kerak (2) ushbu qurilma olingan har qanday o'zaro ta'sirni qabul qilishi kerak, jumladan, qurilmaning noto'g'ri ishlashiga sabab bo'luvchi o'zaro ta'sir.

Litsenziyalangan xizmatga nisbatan radio ta'sirining oldini olish uchun ushbu qurilma ichkarida ishlatishga mo'ljallangan va u oynadan maksimal darajada himoyalangan bo'lishi lozim. Tashqariga o'rnatiladigan jihoz (yoki uning uzatuvchi antennasi) litsenziyalanishi lozim.

Yevropa modeli uchun standartlar va ruxsatnomalar

Past kuchlanish direktivasi — 2006/95/EC	EN60950-1
EMC direktivasi — 2004/108/EC	EN55022 Class B EN61000-3-2 EN61000-3-3 EN55024
R&TTE direktivasi — 1999/5/EC	EN300 328 EN301 489-1 EN301 489-17 TBR21 EN60950-1

Yevropalik foydalanuvchilar uchun

Biz, Seiko Epson Corporation, ushbu orqali quyidagi jihoz modeli 1999/5/EC Direktivasining muhim talablari va boshqa tegishli qoidalariga mos kelishini e'lon qiladimiz:

C463C

Faqat Irlandiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Germaniya, Lixtenshteyn, Shveytsariya, Fransiya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Italiya, Portugaliya, Ispaniya, Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Islandiya, Xorvatiya, Kipr, Gretsiya, Sloveniya, Malta, Bolgariya, Chexiya, Estoniya, Vengriya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya va Slovakiyada foydalanish uchun.

Epson mahsulotlarning tavsiya qilinmagan o'zgartirilishlaridan kelib chiquvchi himoya talablarini har qanday ko'rinishdagi qondrimasliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola olmaydi.

CE

Avstraliya modeli uchun standartlar va ruxsatnomalar

EMC	AS/NZS CISPR22 Class B

Epson ushbu orqali quyidagi johoz Modellarining AS/NZS4268 ning muhim talablari va boshqa tegishli qoidalariga mos kelishini e'lon qiladi:

C463C

Epson mahsulotlarning tavsiya qilinmagan o'zgartirilishlaridan kelib chiquvchi himoya talablarini har qanday ko'rinishdagi qondrimasliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola olmaydi.

Nusxa ko'chirishdagi cheklanishlar

Printerdan ma'suliyat bilan va qonuniy foydalanishni kafolatlash uchun quyidagi cheklanishlarga amal qiling.

Quyidagilardan nusxa ko'chirish qonun bilan ta'qiqlanadi:

- ❏ Bank cheklari, tangalar, hukumat tomonidan chiqarilgan liikvidli qimmatli qog'ozlar, davlat qimmatli qog'ozlari va munitsipial qimmatli qog'ozlar
- ❏ Foydalanilmagan pochta markalari, marka yopishtirilgan otkritkalar va boshqa yetkazilib beriluvchi rasmiy pochta buyumlari
- ❏ Hukumat tomonidan chiqarilgan aksiz markalari va qonunchilik talablariga ko'ra chiqarilgan qimmatli qog'ozlar

Quyidagilardan nusxa ko'chirishda ehtiyotkorlikka rioya qilish lozim:

- ❏ Xususiy likvidli qimmatli qog'ozlar (aksiya sertifikatlari, muzokara qaydlari, cheklar va boshq.), oylik yo'l chiptalari, konsession chiptalar va boshq.
- ❏ Pasport, haydovchilik guvohnomasi, kafolat xatlari, yo'l chiptalari, oziq-ovqat talonlari, chiptalar va boshq.

Eslatma:
Bu buyumlardan nusxa ko'chirish ham qonun bilan ta'qiqlanishi mumkin.

Mualliflik huquqlari bilan himoyalangan materiallardan ma'suliyat bilan foydalaning:

Printerdan mualliflik huquqlari bilan himoyalangan materiallarni noto'g'ri nusxa ko'chirib olish uchun foydalanilishi mumkin. Bilimga ega bo'lgan advokat maslahati bilan ish ko'rmas ekansiz, chop qilingan materialdan nusxa ko'chirishdan avval mualliflik huquqi egasidan ruxsat olish orqali ma'suliyatni his qilgan va xurmat bilan ish ko'ring.

Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish

Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirishingiz mumkin.

Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish — Boshqaruv paneli

Bu ma'lumotlar soploni tekshirish namunasi bilan birgalikda chop qilinadi.

1. Printerga A4 o'lchamdagi qog'oz soling.
2. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
3. **Qarov** > **Kallak uchini tekshirish**-ni tanlang.
4. Soploni tekislash namunasini chop qilish uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.

Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish — Windows

1. Printer drayveri oynasiga kiring.
2. **Printer va tanlama ma'lumoti** panelidagi **Texnik xizmat**-ni cherting.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Windows Printer drayveri” - 97-sahifada

Printer orqali o'tkazilgan jami sahifalar sonini tekshirish — Mac OS X

1. menu > **Printerlar va skanerlar**-dan (yoki **Chop qilish va skanerlash**, **Chop qilish va faks**-dan) **Tizim afzalliklari**-ni tanlang va keyin printerni tanlang.
2. **Opsiyalar va ta'minotchilar** > **Yordamchi dastur** > **Printer yordamchi dasturini ochish**-ni cherting.
3. **Printer and Option Information**-ni cherting.

Quvvatlarni tejash

O'rnatilgan vaqt davomida birorta ham operatsiya bajarilmasa, printer uyqu rejimiga kiradi yoki avtomatik ravishda o'chadi. Quvvatlarni boshqarish qo'llanilishidan avval vaqtni sozlashingiz mumkin. Har qanday orttirish printerning quvvat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Har qanday o'zgartirishlar qilishdan avval atrof-muhitni hisobga oling.

Quvvat tejash — Boshqaruv paneli

1. Bosh ekrandan **Sozlash**-ga kiring.
2. **Umumiy sozlamalar**-ni tanlang.
3. Quyidagilardan birini bajaring.
   - ❏ **Uyqu taymeri** yoki **O'chirish sozlam.** > **Qo'shilmagan bo'lsa, quvvatni o'chirish**ni tanlab, kerakli parametrlarni belgilang.
   - ❏ **Uyqu taymeri** yoki **Printerni o'chirish taymeri**ni tanlab, kerakli parametrlarni belgilang.

   Eslatma:
   *Jihoz ishlab chiqarilgan sana va qayerda xarid qilinganiga qarab mahsulotda **O'chirish sozlam.** yoki **Printerni o'chirish taymeri** funksiyasi bo‘lishi mumkin.*

Printerni tashish

Ko'chirish yoki ta'mirlash uchun printerni tashishingiz kerak bo'lgan hollarda printerni qadoqlash uchun quyidagi qadamlarga amal qiling.

> ⚠ ***Diqqat:***
> *Skaner qurilmasi qopqog'ini ochganda yoki yopganda qo'llaringiz yoki barmoqlaringizni qisib olmaslik uchun ehtiyot bo'ling. Aks holda jarohat olishingiz mumkin.*

> ***Muhim:***
> - ❏ *Printerni joylashda yoki biror yerga tashishda uni qiyshaytirish, tik yoki teskari holatda o‘rnatish mumkin emas; aks holda, siyoh oqib chiqishi mumkin.*



> - ❏ *Plombasini buzgandan keyin siyoh butilkasini saqlaganda yoki tashiganda butilkani quyshaytirmang va uni turli ta'sirlar yoki haroratdagi o'zgarishlar ostiga qo'ymang. Aks holda xattoki butilka qopqog'i mahkam yopilgan bo'lsa ham siyoh oqib ketishi mumkin. Qopqoqni qotirayotgan vaqtda siyoh butilkasini tik ushlang va butilkani tashiganda siyohning oqib ketishining oldini olish choralarini ko'ring.*
> - ❏ *Ochilgan siyoh butilkalarini printer bilan bitta qutiga joylashtirmang.*

1. ⏻ tugmasini bosish orqali printerni o'chiring.

2. Quvvat chirog'ining o'chganligiga ishonch hosil qiling va ta'minot shnurini rozetkadan uzing.

> ***Muhim:***
> *Quvvat chirog'i o'chganda ta'minot shnurini rozetkadan uzing. Aks holda qiyohning qurib qolishiga olib kelgan holda chop qolish golovkasi boshlang'ich holatga qaytmasligi va chop qilish mumkin bo'lmay qolishi mumkin.*

3. Ta'minot shnuri va USB kabel singari barcha kabellarni uzing.

4. Printerdan barcha qog'ozlarni olib qo'ying.

5. Printerda asl nusxalarning qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

6. Hujjat qopqog'i yopilgan holda skaner qurilmasi qopqog'ini oching. Chop qilish golovkasini tasma bilan korpusta mahkamlang.



7. Skaner qurilmasini yoping.



8. Quyida ko'rsatilgani kabi printerni qadoqlashga tayyorlang.



9. Siyohdon qopqog'ini mahkam yopganligingizga ishonch hosil qiling.



10. Printerni o'z qutisiga solib, uni himoya materiallari bilan o'rang.

Printerdan yana foydalanganingizda chop qilish golovkasini ushlab turuvchi tasmani olib tashlang. Keyingi safar chop qilganingizda chop qilish sifati yomonlashsa, chop qilish golovkasini tozalang va tekislang.

Aloqador ma’lumotlar

➡ “Qismlarning nomlari va funksiyalar” - 14-sahifada

➡ “Chop qilish golovkasini tekshirish va tozalash” - 87-sahifada

➡ “Chop qilish golovkasini tekislash” - 90-sahifada

Qayerdan yordam olish mumkin

Texnik qo'llab-quvvatlash veb-sayti

Agar sizga qo'shimcha yordam zarur bo'lsa, quyida ko'rsatilgan Epson qo'llab-quvvatlash veb-saytiga tashrif buyuring. Mamlakatingiz yoki mintaqangizni tanlang va mahalliy Epson veb-saytining qo'llab-quvvatlash bo'limiga o'ting. So'nggi drayverlar, ko'p so'raladigan savollar (FAQs), qo'llanmalar yoki boshqa yuklab olinadigan fayllarni ham shu saytdan olish mumkin.

http://support.epson.net/

http://www.epson.eu/Support (Yevropa)

Agar Epson mahsulotingiz to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa va muammoni hal qila olmasangiz, yordam olish uchun Epson-ning qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.

Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish

Epson-ga murojaat qilishdan avval

Agar Epson mahsulotingiz to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa va mahsulot qo'llanmasida berilgan nosozliklarni bartaraf qilish ma'lumotlaridan foydalanib muammoni hal qila olmasangiz, yordam olish uchun Epson-ning qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling. Agar quyida hududingiz uchun Epson-ning qo'llab-quvvatlash xizmati ko'rsatilmagan bo'lsa, mahsulotni sotib olgan dileringizga murojaat qiling.

Agar siz ularga quyidagi ma'lumotlarni taqdim etsangiz, Epson-ning qo'llab-quvvatlash xizmati sizga tezroq yordam berishi mumkin:

- ❏ Mahsulotning seriya raqami

  (Seriya raqami belgisi odatda mashulotning orqa tarafida bo'ladi.)
- ❏ Mahsulot modeli
- ❏ Mashulot dasturiy ta'minoti versiyasi

  (Mahsulot dasturiy ta'minotidagi **About**, **Version Info**-ga yoki shunga o'xshash tugmani cherting.)
- ❏ Kompyuteringiz markasi va modeli
- ❏ Kompyuteringizdagi operatsion tizim nomi va versiyasi
- ❏ Mahsulotingiz bilan odatda foydalanadigan dasturiy ta'minotlarning nomlari va versiyalari

Eslatma:
Mahsulotga bog'liq ravishda faks uchun raqam terish ro'yxati ma'lumotlari va/yoki tarmoq parametrlari mahsulot xotirasiga saqlanishi mumkin. Mahsulotning ishdan chiqishi yoki ta'mirlanishi tufayli ma'lumotlar va/yoki parametrlar yo'qotilishi mumkin. Har qanday ma'lumotlarning yo'qotilishi, ma'lumotlar va/yoki parametrlarni zahiraviy nusxalash yoki qayta tiklash uchun Epson xattoki kafolat muddati davomida ham javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Biz ma'lumotlaringizning zahiraviy nusxasini olish yoki yozib qo'yishni tavsiya qilamiz.

Yevropadagi foydalanuvchilar uchun yordam

Epson qo'llab-quvvatlash xizmatiga qanday murojaat qilish to'g'risida ma'lumotlar olish uchun Pan-Yevropa Kafolat hujjatiga qarang.

Avstraliyalik foydalanuvchilar uchun yordam

Epson Australia sizlarni yuqori darajadagi mijozlarga ko'rsatiladigan xizmat bilan ta'minlashni xohlaydi. Mahsulotingiz qo'llanmalariga qo'shimcha ravishda biz ma'lumotlar olish uchun quyidagi manbalar bilan ta'minlaymiz:

Internet URL

http://www.epson.com.au

Epson Australia-ning jahon internet tarmog'idagi veb-sahifalariga kiring. Vaqti-vaqti bilan tashrif buyurish uchun modemingizni bu yerga to'g'rilashga arziydi! Bu sayt drayverlar uchun yuklab olish

maydoni, Epson kontakt nuqtalari, yangi mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar va texnik qo'llab-quvvatlash (elektron pochta) bilan ta'minlaydi.

Epson yordam xizmati

Telefon: 1300-361-054

Epson yordam xizmati mijozlarimizning maslahat olish imkoniyatiga ega bo'lishlariga ishonch hosil qilish uchun yakuniy zahiraviy nusxalash sifatida taqdim etiladi. Yordam xizmatidagi operatorlar Epson mahsulotlarini o'rnatishingiz, sozlashingiz va ishlatishingizda yordam berishlari mumkin. Bizning sotuvdan avvalgi yordam xizmati xodimlari yangi Epson mahsulotlari bo'yicha adabiyotlar bilan ta'minlashlari va eng yaqin diler yoki xizmat ko'rsatish markazining qayerda joylashganligini aytib berishlari mumkin. Bu yerdagi ko'pgina turdagi so'rovlarga javob beriladi.

Biz qo'ng'iroq qilishdan avval barcha tegishli ma'lumotrlarni jamlab olishingizni tavsiya qilamiz. Siz qanchalik ko'p ma'lumot to'plasangiz, biz muammoni shunchalik tez hal qilishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar Epson mahsulotingiz qo'llanmalari, kompyuter turi, operatsion tizim, dasturlar va o'zingiz kerak deb o'ylagan har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Jihozni tashish

Epson kompaniyasi mahsulot o‘ramini keyinchalik uni tashishda foydalanish uchun olib qo‘yishni tavsiya etadi. Siyohdonni tasma bilan mahkamlash hamda jihozni tik holatda qo‘yish ham tavsiya etiladi.

Yangi Zelandiyadagi foydalanuvchilar uchun yordam

Epson New Zealand sizlarni yuqori darajadagi mijozlarga ko'rsatiladigan xizmat bilan ta'minlashni xohlaydi. Mahsulotingiz qo'llanmalariga qo'shimcha ravishda biz ma'lumotlar olish uchun quyidagi manbalar bilan ta'minlaymiz:

Internet URL

http://www.epson.co.nz

Epson New Zealand kompaniyasining jahon internet tarmog'idagi veb-sahifalariga kiring. Vaqti-vaqti bilan tashrif buyurish uchun modemingizni bu yerga to'g'rilashga arziydi! Bu sayt drayverlar uchun yuklab olish maydoni, Epson kontakt nuqtalari, yangi mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar va texnik qo'llab-quvvatlash (elektron pochta) bilan ta'minlaydi.

Epson yordam xizmati

Telefon: 0800 237 766

Epson yordam xizmati mijozlarimizning maslahat olish imkoniyatiga ega bo'lishlariga ishonch hosil qilish uchun yakuniy zahiraviy nusxalash sifatida taqdim etiladi. Yordam xizmatidagi operatorlar Epson mahsulotlarini o'rnatishingiz, sozlashingiz va ishlatishingizda yordam berishlari mumkin. Bizning sotuvdan avvalgi yordam xizmati xodimlari yangi Epson mahsulotlari bo'yicha adabiyotlar bilan ta'minlashlari va eng yaqin diler yoki xizmat ko'rsatish markazining qayerda joylashganligini aytib berishlari mumkin. Bu yerdagi ko'pgina turdagi so'rovlarga javob beriladi.

Biz qo'ng'iroq qilishdan avval barcha tegishli ma'lumotrlarni jamlab olishingizni tavsiya qilamiz. Siz qanchalik ko'p ma'lumot to'plasangiz, biz muammoni shunchalik tez hal qilishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar Epson mahsulotingiz qo'llanmalari, kompyuter turi, operatsion tizim, dasturlar va o'zingiz kerak deb o'ylagan har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ilova

Jihozni tashish

Epson kompaniyasi mahsulot o‘ramini keyinchalik uni tashishda foydalanish uchun olib qo‘yishni tavsiya etadi. Siyohdonni tasma bilan mahkamlash hamda jihozni tik holatda qo‘yish ham tavsiya etiladi.